

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIMI
VAZIRLIGI**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Tarix fakulteti

“Tarix o`qitish metodikasi” kafedrasи

Tarix ta'lism yo'nalishi 4- kurs «V» guruhi talabasi

Shavqiyeva Muazzam Sobritdin qizi

**Mavzu: Maktab ta`limida tarix fanini o`qitishda
badiiy tarixiy asarlardan foydalanish**

(“O`zbekiston tarixi” misolida)

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: dots. R. Tolibov

2018-2019 o'quv yili

Mavzu: Maktab ta`limida tarix fanini o`qitishda badiiy tarixiy asarlardan foydalanish.

(“O`zbekiston tarixi” misolida)

I. Kirish

II. Asosiy qism

I. Bob. O`zbekiston tarixinining V-XVI asrlar davri tarixini o`rganishda badiiy- tarixiy asarlardan foydalanish.

1. O`rta asrlar davri tarixining umumta`lim maktablarida o`qitilisi, davrlashtirilishi, maqsad va vazifalari.
2. Ilk o`rta asrlar davri tarixining badiiy tarixiy asarlarda tahlili
3. XII-XIII asrlar davri tarixiga oid badiiy tarixiy asarlar.
4. XIV- XVI asrning birinchi yarmiga oid badiiy tarixiy asarlar.

II. Bob. O`zbekiston tarixinining XVII –XIX asrning ikkinchi yarmiga oid tarixini o`rganishda badiiy- tarixiy asarlardan foydalanish.

1. XVII -XIX asr ikkinchi yarmi davri asr davri tarixining badiiy- tarixiy asarlarda yoritilishi
2. Badiiy tarixiy asarlar oquvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini o`stirish. omili.

III. Xulosa

IV. Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, har tomonlama sog’lom bo’lgan barkamol shaxsni shakllantirish, jahon talablari darajasiga javob bera oladigan raqobatbardosh kadrlarni yetishtirib berish, barcha pedagoglarimiz oldidagi muhim vazifa hisoblanadi. Ta`lim tizimini faoliyatini rivojlantirish uchun bugun barcha shart-sharoit hamda imkoniyatlarni yaratar ekanmiz, bu bilan biz odamlarning tinch va osoyishta hayoti, ertangi kunga ishonchining mustahkam poydevorini bunyod etgan bo’lamiz. Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev mamlakat taraqqiyotini rivojlantirishning 2017-2021 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi dasturda belgilangan beshinchi tamoyilda ta`lim tizimini yanada rivojlantirish masalasiga alohida urg’u berib, uning muhim masalalardan biri ekanligini alohida ta’kidlagan¹.

Bugunda, ta’lim-tarbiya sohasidagi ishlarni tashkil etishda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», umumiy o’rta ta’limning davlat ta’lim standartlari, maktabdan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiysi kabi hujjatlar muhim ahamiyatga ega bo`lmoqda. Ayniqsa, bu borada O’zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qaror, qonun va farmonlari dastur amal bo’lib xizmat qilmoqda.

Sir emaski, axloqiy sifatlar, komil inson tarbiyasi juda kichik yoshligidan boshlab bolalarining ongiga singdirilsagina ijobiy samara berishi mumkin. Bu vazifatlarni bajarilishi eng avvalo o’qituvchi zimmasida. Shunday ekan, bugun biz o’qituvchi sifatida faoliyat yuritar ekanmiz, yoshlarga tarbiya berishning tashkiliy asoslarini, tarbiyaviy ishlarni kafolatlangan samarali, usullarini bilishimiz lozim. Shu izlanishlar samarasи sifatida, o`quvchilarni tarix ta`limi orqali tarbiyalashning yo’llarini chuqur o’rganish, ayniqsa, dars jarayoni va sinfdan tashqari ishlarda badiiy-tarixiy adabiyotlardan foydalanish masalalarini o’rganish va tadbiq etish dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Darhaqiqat, tarix ta`limida badiiy-tarixiy adabiyotlardan foydalanish, metodik taqdimot uslublarini aniqlash, bizdan izlanish,

¹ Mirziyoev SH.M. 2017-2021 yillarga mo’ljallangan O’zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasi dasturi. Toshkent: “O’zbekiston”, 2017.

uning serqirra uslublaridan foydalanishni talab etmoqda. Bu esa tanlagan mavzuimizni naqadar dolzarbligini bildiradi.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Hozirgi kunda ta`lim sohasidagi eng dolzarb muammo va masalalaridan biri o`quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, buning uchun esa ularning dunyoqarashini shakllantirishdan iboratdir. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyala-nadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o`rganmasa, berilgan bilim past bo`lishi muqarrar. Albatta bilim kerak, ammo mustaqil fikrlash katta boylikdir-deb ta`lim jarayonida o`quvchi yoshlarni tarixiy xotira bilan qurollantirish, uning axloqiy fazilatlarini insonparvarlashtirish, ajdodlarimiz tarixiy merosiga hurmat ruhida tarbiyalash mifik tabda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida badiiy-tarixiy asarlarni o`rgatish, tarbiyaviy ishlar olib borish nechog`lik zarurligini ko`rsatib o`tgan edilar. Darhaqiqat, yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o`zgalarga o`rnak bo`ladigan bilimli, ma`rifatli kishi-komil inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi deb e`lon qilindi. Ushbu holat umumta`lim maktablarida tarix fanini o`qitish, xususan o`quvchi yoshlarni badiiy-tarixiy asarlar orqali yangicha fikrlashga o`rgatish masalalarini kun tartibiga qo`ydi.

O`quvchilarni mustaqil fikrlashini tashkil etish tarix ta`limi bilan bevosita uzviy bog`liq. Ayniqsa, o`quvchi yoshlarni tarbiyalashda tarix ta`limi orqali, badiiy-tarixiy asarlarni o`rganish, sinfda va sinifdan tashqari ishlarda foydalanish, o`quvchilar intelektual salohiyatini har tomonlama rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Demak, dars jarayonida va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish, uning yangi uslub va metodlarini aniqlash, ilmiy-pedagogik jihatdan asoslash, amalda joriy etish maqsad va vazifalarimiz sirasiga kiradi.

Mustaqillik sharoitida Jahon va O`zbekiston tarixini milliy g`oya nuqtai nazaridan o`rganishning dolzarbliji, uni o`qitish samaradorligini oshirishning ahamiyati tarix o`qitish metodikasi fani oldiga ulkan vazifalar qo`yadi. Keyingi

vaqtida ta'lif-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash keng yoyilib bormoqda. Xususan, hozirda tarix o'qitish samaradorligini oshirishni yangi pedagogik texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yangi pedagogik texnologiyalar tushunchasi keng tushuncha bo'lib, u ta'lif-tarbiya jarayonini oldindan loyihalash, ta'lif sifatiga erishishni kafolatlovchi mexanizmni ishlab chiqish va yo'lga qo'yishni kompyuter texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyatda qo'llashni, individual yondashuv, interaktiv usullarni keng qo'llash kabi jihatlarni o'z ichiga oladi, bu esa tarixchi-pedagoglardan tinimsiz ijodkorlikni, doimiy izlanishni talab etadi. Dars o'tishda texnik vositalardan (multimedia, kodoskop) turli ko'rgazma qurollardan foydalaniladi. Ayni paytda yangi usul va metodlardan foydalanib, o`quvchi yoshlarning darsdan tashqari faoliyatini to`g`ri va qiziqarli tashkil etish, yoshlarni bilimli va mustaqil fikrlovchi qilib tarbiyalash imkoniyatini beradi. Shubhasiz, noan`anaviy usullardan biri sifatida dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish ijobiy natija berishi mumkin.

Mavzuning o`rganilish darajasi. Tarix ta`limida badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish mavzusini o`rganar ekanmiz, tarix ta`limida hali bu yo`nalishda tadqiqotlar olib boorish zarurligiga amin bo`lamiz. Binobarin bu yo`nalishda chuqur va atroflicha o`rganish uchun zarur daliliy ma`lumotlar ko`p. Shu bois ana shu ma`lumotlar, tarixiy manbalar asosida tarix ta`limida dars jarayonida va sinfdan tashqari ishlarining bajarilishida metodik uslublarni qo'llash, ishlab chiqish va o`rganish, tahlil etish nihoyatda muhimdir. Mazkur mavzuni tarix ta`limi orqali o`rganishning yana bir muhim jihatni bor. Bugun biz tarixiy o`zgarishlar davrida, ya`ni mustabid totalitar tizimdan erkin va ozod tizimga o`tmoqdamiz. Bunday sharoitda xalqimizning bunyodkorlik, yaratish yo`lidagi barcha g`ovlarni o`rganib, to`siqlarni engib o`tish uchun harqanday mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashimiz, tariximizni yangicha o`rganishimiz, o`zligimizni anglashimiz lozim. Zero, matonatli yoshlarni kamol toptirish, istiqlol mafkurasini yoshlar ongi va qalbiga singdirish hamda buni ta'lim – tarbiyaning turli shakillari orqali amalga oshirilishi zaruriyat bo'lib qoldi. Bugunda, osh mutaxassis

ma’naviyatiga katta e’tibor qaratilmoqda. Yurtboshimiz tabkidlaganlaridek,- “Insoniyat tarixi ma’naviyat–insonning, xalq-ning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch–qudrat manbai ekanini, bu hayotda ma`naviyatsiz hech qachon odamiylik va mehr oqibat, baxt va saodat bo`lmasligini tasdiqlaydi¹. Shu sababli ilmiy bilimlarni, badiiy- tarixiy qarashlar, saboqlarni ta`lim-tarbiya vositasida yoshlar ongiga singdirish masalasiga ham alohida urg`u berilmoqda.

Ta’lim - tarbiyaga alohida ahamiyat berish - bu kelajak haqida qayg`urish demakdir. “Ma’naviyatga ta`sir etadigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta’lim – tarbiya tizimi bilan chambarchars bog`liqdir”². Endilikda har qaysi davlat, har qaysi millat, bиринчи navbatda o`zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil, 12 - yanvar. “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi Farmoni”³ sohani yanada rivojlanishiga turtki bo`ldi.

Tarix ta`limida komil inson tarbiyasi va o`qitishning yangi uslub metodlaridan foydalanish masalasi borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borildi va olib borilmoqda.Tarixning tarbiyaviy ishlardagi ahamiyati, insonning dunyo-qarashini shakllantirishdagi o`rni haqida Prezidentimz Sh.M. Mirziyoev muhim fikrlani olg`a surdi.

Bugunda tarix fanlarini o`rganishda turli yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayoni oshib bormoqda. To`g`ri bu usul dars samaradorligini oshirishi, yoshlarni yangi bilim va ma`lumotlar bilan qurollantirishi mumkin. Lekin yoshlarni estetik va uning duyoqarashini shakllantiradiga omillar ham borki, bu-tarixiy badiiy asarlardir. Agar dars jarayonida yoki darsdan tashqari vaqtarda o`quvchilarga mavzuga oid badiiy asarlarni o`qish tavsiya etilsa, yoshlarning olam va odamlarga bo`lgan munosabati o`zgaradi, unda insoniylik

¹ Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T. «Ma’naviyat», 2008., 29-bet

² Shu yerda: 60 – bet.

³ Sh.M.Mirziyoevning . “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi Farmoni” 2017 yil, 12 –yanvar.

fazoilatlari qaror topadi, tarixiy voqea va hodisalarga nisbatan mustaqil fikr yurita olish imkoniyatini yaratadi.

Badiiy tarixiy asarlarning o`quvchi yoshlarni tarbiyalashdagi salohiyati sezilarli darajada ta`sirchan va ularning yosh xususiyatariga mos. Ular asarlarni o`qib, uning qahramonlari bilan birga yashaydilar, unga taqlid qiladilar.Yovuzlik o`rnini yaxshilik egallaydi.Vatan ozodligi, yurt ravnaqi yo`lida yashashga undaydi, komil inson sifatida kamol topishiga zamin yaratadi.

Ayni paytda yutimizda tarix ta`limida badiiy-tarixiy asarlardan foydalanish mavzusini o`rganish, uning metodik uslublarini aniqlash, tadqiqot tajribalaridan taraqqiyot yo`lida foydalanish borasida ham ijobjiy ilmiy izlanishlar olib borilgan va bu davom etmoqda. Bularning aksariyati tarixiy roman, qissa va esse, pesa va dramatik asarlar tarzida bosilib chiqqan.¹.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida aynan shu mavzuni tanlaganimiz bejiz emas.Binobarin, bu mavzuni metodik jihatidan o`rganilishi hali endi o`z echimini topmoqda. Biz bitiruv malakaviy ishimizda tarix ta`limida

¹ Jo`ra Fozil. Ayriliq ostonasi.”Sharq”,2006.Tarixiy roman. //Jo`ra Fozil. ”Buxoroyi sharif. Tarixiy qissa//SadriddinAyniy.Temur Malik.Muqanna qo`zg`aloni.Dushanbe. ”Maorif”1978.168 b.H.Olimjon. Muqanna.Tarixiy p`esa.T.: 3-tom. G`.G`ulom nashr.280b. Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino.“Yosh gvardiya” noshriyoti. T.: 1987. 240-bet..Z.Qurbanyazova“Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy o`zlikni anglashni shakllantrishning pedagogik asoslari. Avtoreferat ”Nomzodlik dissertatsiyasi“.T.-2002 Maqsud Qoriyev. G`aznaviylar.”Sharq” nashriyoti. T.: 2006. 255-bet. Bo`riboy Axmedov. Amir Temur.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.T.: 1995. 640bet, Poyon Ravshanov. Amir Temur sulolası.”Yangi asr avlodi”. T.: 2014.652 bet. Muhammad Ali. Sarbadorlar. G`ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.T.:1997. 560 bet. Marsel Brion. Menkim, Sohibqiron-Jahongir Temur.T.: “Yangi asar avlodi”.2014.572 bet. Georg Fridrix Gendel. Amir Temur.”Yangi asr avlodi”.T.: 118-bet. Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti. 1978. 464 bet. Primqul Qodirov. Yulduzli tunlar.Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981. 496 bet. Qur'onov M. Maktab ma`naviyati va milliy tarbiya.–T.:Fan,1995.-118b. Ergashev.K.Yoshlarning manaviy tarbiyasi.T.: Manaviyat. 1999.–40b. Musurmonova.O. Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.:1996.O`quvchi ma`naviyatini shakllantirish.T.:Sharq, 2000.–273b.Hasanboyeva O.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. T.: 1996. To`qboyeva Z.D Maktabda va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o`ziga xos xususiyatlari. O`z.MU Xabarları. № 1/3. 2014. 214-217 betlar.

badiiy–tarixiy asarlardan foydalanishnng metodik uslublari mavzusini o`rganishda noan`anaviy usullar orqali, yangi badiiy–tarixiy adabiyotlar va manbalardan, hamda jahon adabiyotlaridan foydalanib o`rganishqa harakat qildik. Taklif va mulohazalarimizni bildirdik. O`ylaymizki, bu izlanishlarimiz pedagogik amaliy faoliyatimizda yordam beradi, dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodi va ilmiy - nazariy asoslari. Bitiruv malakaviy ishini yozishda dialektik metodga tayandik. Ayniqsa, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o`rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, anan`aviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ`ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariyva amaliy ahamiyati. Tarix ta`limida badiiy–tarixiy asarlardan foydalanish, uning metodik uslublari o`rganishda noan`anaviy usullardan foydalanish, tarixiy haqiqatni oydinlashtirishga, tarixiy voqealarning sabab va maqsadlari turlicha baholangan yoki ziddiyatli qarashlarning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Mazkur ilmiy ishning nazariy xulosalari va natijalaridan oliy o`quv yurtlarida “Tarix o`qitish metodikasi” fani bo`yicha maxsus kurslar o`tishda, darslik, o`quv qo`llanmalari va dasturlar tuzishda foydalanish, ochiq darslar tashkil etish mumkinligi, BMI amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ayni paytda ko`p tarixiy badiiy adabiyotlardan foydalanish uslublari ko`rsatildiki, ulardan dars va darsdan tashqari vaqtarda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning manbalari. BMI yozishda o`rganilgan asarlar va matbuot materiallari natijalari asos qilib olindi. Shuningdek, mustaqillik davrida mazkur mavzuda uyushtirilgan davra suhbatlari materiallari, respublika miqiyosidagi ilmiy konfrensiyalarda chop etilgan ilmiy maqolalar, davriy matbuot materiallardan ham keng foydalanildi. Shuningdek, shu vaqtga qadar chop etilgan badiiy tarixiy asarlar izlab topildi va ulardan unumli foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv ishi kirish, asosiy qism, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

I.Bob. O`zbekiston tarixining V-XVI asrlar davri tarixini o`rganishda badiiy- tarixiy asarlardan foydalanish.

1. O`rta asrlar davri tarixining umumta`lim maktablarida o`qitilisi, davrlashtirilishi, maqsad va vazifalari.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturida» milliy pedagog kadrlar jumladan, bakalavr yo`nalishidagi kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor berilgan. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev asarlari va risolalarida, hukumatimiz chiqargan qonun va farmonlarida chuqur ilmiy potensialga ega bo`lgan pedagoglarni tayyorlash, yosh olimlarni yetishtirish vazifasiga alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, yosh tarixchi olimlarni yetishtirishga muhim ahamiyat qaratilmoqda.

Ayni paytda tarix, mafkura va ma'naviyat bir-biri bilan chambarchas bog`liq, chunki g`oyasiz, e'tiqodsiz inson bo`lmaydi. Tarixni bilish – inson mafkurasingning asosiy yo`nalishlaridan biri – milliy o`zlikni anglashdir. Milliy o`zlikni anglash esa, o`z tarixini o`rganishdan boshlanadi. Demak, tarixiy ongni shakllantirish zarur bo`lib qoldi.

Mazkur vazifa O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyulda e'lon qilingan «O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida» deb qabul qilingan qarorida o`z ifodasini topdi. Bu tarixiy qarorda o`zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixini ilmiy asosda xolisona o`rganish, tadqiqotlar zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk, salohiyatli kuchli tarixchilar maktabini yaratish vazifalari belgilab berildi. Tarix asosida yosh avlodni mustaqillik, erkinlik, o`z-o`zini anglash ruhida tarbiyalash ota – bobolarimiz merosini tugri xolisona o`rganish uchun katta ishlarni amalga oshirmoq zarur edi.

Ma`lumki, asrlar davomida xalq, millat madaniyati, ma'naviyati oyoq osti qilindi. Eski tuzumdan qolgan hamma asoratlarni yuqotish davr talabiga aylandi. Shu sababli «Madomiki, o`z tarixini bilgan undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo`lmas ekan biz haqqoniy tariximizni, millatimizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarurdir»¹ – deb

¹ I. A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”. T. “Sharq”. 1998. 24 - bet

ta'kidladi Prezidentimiz I.A.Karimov.Vazirlar Mahkamasining **1998 yil 27 iyulidagi** qaroridan keyin tarix fanining qo`yidagi muammolarini hal etish kun tartibiga qo`yildi. Bular :

- O`zbekiston hududlarida ilk davlatchilik asoslarini yuzaga keltirgan tarixiy shart–sharoitlar va davlatning kelib chiqishi masalasini tadqiq etish va aniqlash;
- O`zbek xalqi va uning davlatchilik tarixi, o`zbek xalqi etnogenezi hamda ushbu muammolar bo`yicha arxeologik va barcha turdagи yozma manbalar tadqiqotlari natijalarini jamlash, har tomonlama ilmiy – qiyosiy tahlil qilish va muofiqlashtirish;
- Eng qadimdan hozirga qadar davlatchilik tarixiy – bosqichlarida hududimizda yashagan xalqlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy hayoti masalalarini o`rganish, xolisona tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy, ilmiy ommabop asarlar, darsliklar yaratish hamda O`zbekiston tarixiy atlasini tayyorlash;
- Mamlakatimiz va chet el olimlarining eng qadimdan hozirgi kungacha o`zbek xalqi tarixi bo`yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarini olib borishda, ularni ommalashtirishda, tahlil qilishdan so`ng ularning bat afsil bibliografiyasini va ilmiy tarixshunosligini yaratish;
- O`zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixiga oid tadqiqotlarni olib borishda, bir yoqlama yondashuvga o`tmishni soxtalashtirishga mustamlakachilik mafkurasi aqidalariga yo`l qo`ymaslik hamda eski g`oyaviy andozalardan holi bo`lgan , tarix ilmining istiqlolga xos falsafasini o`zlashtirgan tarixchi olimlarning yangi avlodalarini tarbiyalash;
- Magistr va aspiranlar tayyorlashda ularning ilmiy tadqiqot ishlarida shunday dolzarb muammolarni tadqiqot ob'yekti qilib olish;
- Chet el ilmiy markazlari bilan nazariy hamda amaliy hamkorlikni yo`lga qo`yish va rivojlantirish, ilmiy anjumandlar barcha shakldagi ilmiy muhokama, munozara, fikr almashuv tadbirlarini tashkil etish.

Milliy istiqlol mafkurasi tariximizni xolisona o`rganishga da'vat etar ekan, avvalo uning metodologik asosini yaratishni talab etildi. Prezidentimizning

«Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q» risolasi mazkur talabga javob berdi. Unda tarixni o`rganishda quyidagi metodologik asos ilgari surildi. Asosan, xolisiylik va tanqidiylik tamoyillariga amal qilish lozimligi ta`kidlandi.

Ma'lumki, har qanday voqeа hodisaga tarix deb qarashimiz noto`g`ri. Voqeа hodisalar avvalombor jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Yoki aksincha voqeа hodisalar jamiyatdagi mavjud davlatning tanazzuliga yuz tutishiga sabab bo`lishi mumkin. Bunday holatda tarixdan saboq chiqariladi. Agar voqeа hodisa jamiyat taraqqiyotiga, rivojiga xizmat qilsa, undan andoza olinadi. Mana shu oddiy bir haqiqat, tariximizni o`rganishda uzoq vaqt xaspo`shlab kelindi. Tarixga «sinfiy nuqtai nazarda qarash» targ`ib qilindi.

Prezidentimiz olg`a surgan tarixni o`rganish bo`yicha metodologik tamoyillar tariximizni o`rganish jabhalarida samarali ahamiyat kasb etmoqda. «Tarix sohasida mehnat qilayotgan olim, mutaxassislarga murojat qilmoqchiman: Sizlar, millatimizning xaqqoniy tarixini yaratib bering, toki u xalqimizga ma'naviy kuch qudrat baxsh etsin, g`ururni uyg`otsin. Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yorug` g`oya kerak. Bu g`oyaning zamirida xalqimizni o`zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o`zlikni anglash mumkin emas»¹-deydi, I A. Karimov.

Tarixiy voqeа – hodisalarga bir kishining fikri deb, yagona haqiqat sifatida qabul qilinishiga yo`l qo`ymaslik darkor. Muayyan tarixiy masalaga turli fikrlarni berish, bahs orqali haqiqat oydinlashuviga erishish lozim bo`ladi. Jumladan, tadqiqot ishida aniq tarixiy fakt va dalillarga tayanib, o`sha davrda ro`y bergen voqealarni xolison ko`rsata bilishi kerak. Unda aniq tarixiy voqealar aks etmog`i lozim. Bundan, o`z o`zidan taqqoslash usuli kelib chiqadi. Masalan: Ibn Arabshoxning A.Temurga nisbatan adovati va kitobidagi salbiy nuqsonlar va hokazo. Aksincha, Ali Yazdiy va Nizomiddin Shomiy saroy tarixchilari bo`lganligi sababli birmuncha madhiyabozlikka yo`l qo`yganliklari va hokazo.

¹ I. A. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q”. T. “Sharq”. 1998. 29 – bet.

Tarix darslaridagi har bir o`quv mashg`ulotlari g`oyaviy siyosiy yechimlar mustaqil davlatimizning taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.Faqatgina milliy istiqlol g`oyasigina tariximizni xolisona o`rganishga ko`maklashadi. Nuqsonlardan holi qiladi.Eng muhimi xalqimiz tarixini yangicha o`rganishga, o`zligimizni anglashga yordam beradi. Yoshlar orasida xavf solishi mumkin bo`lgan ayrim mafkuraviy tahdidlarga,yovuz intilishlarga qarshi kurashishga ko`maklashadi. Shuningdek, buzuq g`oyalarning kirib kelmasligi uchun inson qalbi va ongini egallashga chaqiradi.Bunyodkorlikga da'vat etadi.

Darhaqiqat, tarix - tafakkur mahsuli. Bu fan kishini fikrlashga, o`tmishni idrok qilib, kelajakni aql yo`rig`i bilan belgilashga yordam beradi.Azaldan tarix fanini predmetini belgilash, tarixiy bilim nazariyasidagi eng muhim muamolaridan biri sanaladi. Olimlarning fikricha, tarix tushunchasi va uning vazifasi haqida 30 ga yaqin yondoshuv va tadqiq etish usullari mavjud ekan. Masalan, tarixshunos B. Mogilniskiy “Tarix odamlar faoliyati, shuningdek, ushbu faoliyat oqibatlari bilan bog`liq bo`lgan konkret ommaviy taraqqiyot qonunlarini tadqiq qiladi”,deydi.V.Ivanov esa “Tarix ommaviy hayat qonuniyatlarining konkret shakllarini o`rganadigan predmet”, deydi. Demak, qarashlar turlicha, yondashuvlar xilma-xil.

Taniqli olim Narzulla Jo`rayev, tarix fanining mohiyati haqida shunday fikrlarni bildiradi:**“Tarix - inson haqidagi, odamlar haqidagi fan. Biroq u bugunning odamlari, kechinmalari, his-tuyg`ulari, faoliyatları va munosabatlari xususida emas, balki o`tgan ajdodlarimiz turmush tarzi, ma`naviy ruhiy kechinmalari, sodir etgan voqeа hodisalari, maqsad intilishlari haqidagi fandir”**¹

Bugunda tarix fanini milliy istiqlol g`oyasidan kelib chiqib, xolisona o`rganish davr talabiga aylandi.Darhaqiqat, kishilar ongini eski tuzum asoratlariidan xalos etish, ular qalbida yangicha tafakkur, yangi mafkura g`oyalarini singdirish, milliy qadriyatlarimizni, tilimiz, tariximizni tiklash, barkamol avlod tarbiyasi borasida amalga oshiriladigan ishlarni bajarish, biz yosh avlodlarning

¹ Narzulla Jo`rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T., ”Ma`naviyat”. 2008. 24-bet.

zimmasiga tushmoqda. Shuningdek, ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor berish,yoshlar orasida xavf solishi mumkin bo`lgan ayrim mafkuraviy taqdidlarga, yovuz intilishlarga aslo yo`l qo`yib bo`lmaydi. Tarixchi endilikda o`z ilmiy tadqiqot ishida jamiyatni yanada erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, qonun asosida yashashni o`rganish kabi masalalarga tayanishi lozim.

O`rta Osiyoning o`rta asrlar tarixi kursi feodalizmning paydo bo`lishi, rivojlanishi va uning yemirilishidan iborat tarixiy taraqqiyot jarayonini o`rganadi.

O`rta Osiyoning O`rta asrlar tarixi kursi quyidagi uchta katta davrga bo`lib o`rganiladi:

1. Ilk o`rta asrlar (IV - IX asrlar). Bu davrda feodal ijtimoiy-iqtisodiy tuzum tashkil topdi.Arablar hukumronligiga barham berildi.Mustaqil davlatlar vujudga keldi.

2. Feodal munosabatlarning rivojlangan (IX - XVI asrning boshlari) davri. Bu davrda mo`g`illar istilosи natijasida mamlakat tanazzulga yuz tutdi.Amir Temur davlati mamlakatni birlashtirdi,mo`g`ullar istibdodiga barham berdi.Feodal xonliklar davrda ishlab chiqarishi, madaniyat, san`at sohasida jiddiy o`zgarishlar ro`y berdi.

3. Feodalizmiing so`nggi davri (XVI asrning ikkinchi yarmi - XIX asrning o`rtalarigacha). Bu davr feodal munosabatlarning yemirilishi va feodaliya zaminida kapitalizm elementlarining paydo bo`la olishi bilan xarakterlanadi. Chor Rossiyasining istibdodi boshlandi. Xalq ozodlik kurashi davom etdi.

Bugungi kunda umumiyl o`rta ta`lim maktablarining V-IX sinflarida O`zbekiston va Jahon tarixining qadimgi zamonlardan to XX asr boshlarigacha bo`lgan davrini o`rgatish maqsad qilib qo`yilgan.Tarixchi - olimlarimiz tomonidan yangi avlod darsliklari yaratildi va amaliyotga joriy etildi.

Hozirda maktablarda 5-sinf uchun darslik sifatida qo`llanib kelinayotgan eng qadimgi davrlardan shu kunlargacha bo`lgan ayrim epizodik lavhalarni o`z ichiga olgan “Tarixdan hikoyalar”(Q .Usmonov,U..Jo`rayev, B.Axmedov) darsligi bo`lib, tarix fan sifatida o`rganilmay, qisman tarixiy tasavvur hamda eng soda tushunchalarni egallash bilan cheklanadi.

6-sinfda tarix darslarida asosiy predmet sifatida eng qadimgi davrlardan milodning V asrigacha bo`lgan davr o`rganiladi. Mazkur sinf o`quvchilari uchun ilk marotaba Jahon tarixi va O`zbekiston tarixi uyg`unlashtirish asosida yaratilgan (A.S.Sagdullayev, B.A.Kosteskiy) muallifligida “Tarix: qadimgi dunyo” tarixi qo`llanib kelindi.

Mamlakatimizda hamda jahon xalqlari tarixining IV asridan XVI asr boshlarigacha bo`lgan davrni qamrab olgan A.Muhammadjonov, Q.Usmonov hammuallifligida “O`zbekiston tarixi”, va “Jahon tarixi” darsliklari 7-sinf o`quvchilari uchun tavsiya etilgan.

8-sinfda O`zbekiston tarixi hamda Jahon tarixining XVI asrdan XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan davri o`rganiladi. O`zbekiston va Jahon tarixining XVI asrdan XIX asr o`rtalarigacha bo`lgan davr o`rganiladi.

9-sinfda O`zbekiston va Jahon tarixi darslilarida XIX asrning ikkinchi yarmidan 1918 yilgacha bo`lgan davr tarixi bilan tanishtiriladi.

Eng yangi davr tarixini o`rganish umumta`lim maktablari vazifasiga kirmaganligi uchun, mazkur davrni izchillikda o`rganish o`rta maxsus, kasb hunar ta`limi o`quv yurtlarida davom ettiriladi.

Yuqorida qayd etilganidek, darsliklar DTS talablariga muvofiq tuzilgan bo`lib, o`quvchilar ongiga vatanparvarlikva milliy g`urur hissini, ma`naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirilishda alohida o`rin tutib kelmoqda. Shu bilan birga darsliklarning ijobiy tomonlari va yutuqlarini inkor etmagan holda, ularni yada takomillashtirish va mazmunan boyitish maqsadida, hozirda maktablarda tarix fani bo`yicha o`quv dasturlarini o`zlashtirishida ma`lum qiyinchiliklarni bartaraf etishda badiiy –tarixiy asarlardan foylananiz ham foydadan xoli bo`lmasligini isbotlashga harakat qilamiz.

Ma`lumki, o`rta asrlar tarixining xronologik chegarasi keng va murakkabdir. Chunki feodal tuzum jahondagi davlatlariing ayrimlarida III asrda, bazilarida esa VII asrda boshlandi. O`rta Osiyoda esa V asrdan boshlanadi. Bu o`rta asrlar tarixi mazmunining butunligiga putur yetkazmaydi. Chunki bu davrda feodal munosabatlari Yevropadagina emas, balki Sharq davlatlarida ham ustunlik qildi. O`rta

asrlar tarixida material hajmining kengligi va murakkabligi to`quvchilarning bu kursni o`zlashtirishida jiddiy qiyinchiliklarni tug'diradi. O`quvchi o'quv yilining dastlabki kunlaridan boshlab zarur adabiyotlar ustida muntazam mustaqil ish olib borgandagina mazkur qiyinchiliklarni yengib, uni mukammal va puxta o`zlashtirib olishi mumkin. O'rta asrlar tarixidagi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga, ya'ni urug'chilik tuzumining yemnrilishi, feudal munosabatlarining vujudga kelishi, feudal ishlab chiqarish usulining rivojlanishi, markazlashgan davlatlarning vujudga kelishi, o'rta asr shaharlarining o'sishi, ajnabiylar: (arablar, mo`gullar) bosqini, XIII—XIV asrlarda dehqonlar va shahar mehnatkashlari ahvolining yomonlashishi, dehqon qo'zg'olonlari, xonlikning tarkib topishi va Rossiyaning bosqini, ozodlik yo`lida milliy xalq harakatlari, yirik dehqon qo`zg`alonlariga o`quvchilarning diqqati jalb etiladi va shu muhim masalalarni chuqurroq o'rganishga yordam berish ko'zda tutiladi. Bu hol o`quv jarayonini yangicha usul va metodlardan foydalanib tashkillashtirishni, o`rgatishni taqozo etadi.

Demak, tarix fanini milliy g`oya ruhida o`rganish davr talabiga aylandi. Bugunda yangi uslub va metodlarning izlanishi jarayonida hatto xalqaro ta`lim tajribalari o`rganilmoqda. Binobarin uslub va metodlarning qo`llanilish doirasi ancha keng. Ilg`or yoki zamonaviy usullarni qo`llash natijasida ta`lim sifati va samaradorligi tubdan yaxshilanishi ta`minlanmoqda va bu o`qitishda ta`lim - tarbiyani jadal rivoglanishiga olib kelmoqda.

Ayniqsa, dars jarayonida badiiy tarixiy asarlardan foydalanish, o`quvchi yoshlarning bilimini o`stirish va unda estetik tuyg`u, vatanparvarlik, barkamolik fazilatlarini shakllantirishda ijobiy natija bermoqda. Ma`lumki, Turkiston tarixini chuqur anglash va tushunish, tarixdan xulosa chiqarish, shu orqali tarixiy shaxslar va tarixiy voqealar, qahramonlarning orzu va armonlari, kechinmalari haqida ma`lumot berish faqat badiiy asarlar orqali amalga oshishi mumkin.

Shu sababli biz bitiruv malakaviy ishimizda badiiy tarixiy asarlardan foydalangan holda o`quvchilarga dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarida uni tadbiq qilish masalalarini bosh maqsad qilib oldik.

2. Ilk o`rta asrlar davri tarixinining badiiy tarixiy asarlarda tahlili.

Zamonamiz madaniy taraqqiyotining hozirgi pallasida xalqimizning o`z o`tmishiga, tarixini chuqur o`rganishga bo`lgan qiziqishi oshib bormoqda. O`zbek xalqi boshqa xalqlar qatori o`zining boy madaniyatini, xalqparvar an`analarini, o`zligini anglash va his etish jarayonini boshidan kechirmoqda. Jamiyatimiz rivojlanishi jarayonida xalqimizda tolerantlik har tomonlama o`sdi, ulg`aydi, chiniqdi. Uning madaniy merosiga, milliy san`atiga va tiliga bo`lgan talab har tomonlama oshib bordi. Madaniy merosimiz durdonalarini o`rganib, uni bugun va etragi kunimiz uchun xizmat qildirishdek oljanob ish o`zining yangi bosqichiga ko`tarilmoqda. Endilikda biz milliy tariximizni ro`yobga chiqarish uchun kurash davriga o`tdik. Bunday sharoitda xalqimizga, ayniqsa talabchan yoshlarimizga madaniy ozuqa berish, ajdodlarimiz teran merosining ijobiy jihatlarini o`rgatib, ularni uzviy rivojlantirishga undash milliy madaniyatimiz taraqqiyoti yo`lini to`g`ri tushunishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayon ayniqsa ta`lim tizimida, o`qitish va organizh jarayonida yaqqol ko`zga tashlanmoqda.

Ta`lim tizimini isloh etish jarayonida o`qitish va organizh usullarida o`zgarishlar sezilmoqda. Xalqaro tajribalardan foydalanimoqda. O`quv jarayonida respublikamizda xalqning tarixiy – madaniy va ma`naviy merosini o`rganishga, yoshlarimizni yuksak axloqiy va boy ma`naviy tamoyillarda, Vatan va umumjahon tarixinining ezgu an`analari ruhida tarbiyalashga katta e`tibor berilmoqda.

Odatda o`quv jarayonini tashkillashtirish jarayonida turli tarixiy manbalardan foydalinadi. Lekin yana bir usul borki bu-mavzuga doir badiiy-tarixiy asarlardan foydalanishdir.

Haqiqatdan ham, har bir tarixiy davr mavzusi o`z davri voqealarini real aks ettirgan asl maibalar bilan uzviy aloqada bo`lmasa, o`z qiymatini yo`qotadi. Lekin yana bir qo`shimcha manba borki u shu davr to`g`risida o`quvchilarni badiiy estetik tuyg`ularini o`stiradi bilimlarini to`ldiradi. Bu tarixiy badiiy asarlardir. Shuning uchun ham tarix fanini o`qitishning eng muhim metodlaridan biri badiiy tarixiy manbalar bilan ishlash hisoblanadi.

O`quvchi har bir tarixiy manbani o`rganishda, uning qachon va qanday sharoitda paydo bo`lganligini e`tiborga olib mustaqil holda manbaga to`g`ri baho bera olishi lozim.

Talabalarni bevosita badiiy tarixiy manbalar bilan tanishtirish o`tmish voqealarini ilk tasviri holida ko`rish va tarixiy jarayonlarni yanada yaxshiroq o`rganish imkonini beradi.

Dars jarayoni yoki sinfdan tashqari mashg`ulotlarda manbalardan unumli foydalanish dars jarayonini faollashtiradi, o`rganilayotgan masalaga bo`lgan qiziqishni hamda e`tiborni oshiradi, o`quvchilarda tarixiy muammolarni mustaqil ravishda ilmiy tahlil qilish qobiliyatini uyg`otadi. Bularning barchasi o`tilgan materialni yanada yaxshiroq va chuqurroq o`zlashtirishni ta`minlaydi.

1961 va 1965 yillari O`zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog`ida Samarqandning Afrosiyobida V-VII asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo`lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag`oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga Sug'd tilida o'n olti satrdan iborat ishonch yorlig'i yozib qo'yilgan edi. Bu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o`rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqandda topilgan yozuvlar IX asrga oid uch tilda Sug'd, qadimgi turk va xitoy tilida yozilgan turk xoqonining qabr toshidagi bitikdir. Quyida ilk o`rta asrlar bilan bog`liq mavzularni mustahkamlash uchun badiiy tarixiy asarlardan ayrim namunalarni keltiramiz:

Jo`ra Fozil. Ayrilish ostonasi. Tarixiy roman."Sharq" T.: 2006.83-89 betlar.(Asarda Tuman Tangriqut o`g`li O`g`izzonni Ulug`Yovchilar mamlakatiga urush ochmaslik shartiga ko`ra uni xon saroyiga yuboradi. Lekin urush boshlanadi. O`g`li O`g`uzxon asirlikdan qutilib, ulug` saltanat barpo etadi.)

- Quyosh Bayding cho`qqilari ortiga o`tib, atrof yoz oqshomining barqutdek qo`yniga g`arq bo`ldi. Shabnam qo`ngan o`t-o`lanlar hiqi dimoqqa urdi. O`g`uzxon lashkari qarorgohida gulxanlar yondi. Ortiqcha qon to`kmasdan, dushmanning tinkasini qurshov bilan quritishga ahd qilgan O`g`uzxon lashkariga

qisqa muddatli hordiq uchun ruxsat bergandi. Oldingi marradagi va qorovul qismlardan tashqari barcha lashkar dam olardi.

Oqshom va tun almashinayotgan g'oyat so'lim bir pallada Lulu xabar yo'lladi: "Bu tun saropardamni sening husning sha'mi bilan yoritish uchun tashrifingga muntazirdurman..."¹

O'g'uzxon Luluning ipakdek muloyim badanini, o'tli bo'salarini eslab, entikdi, kanizakka "ma'qul" ishorasini qildi.

Keyingi sertashvish kunlar va tunlar, qon, o'lim, urush xoqon zimmasiga yuklagan had-hisobsiz g'alvalar O'g'uzxonni behad charchatgan, u istirohatga muhtoj edi. Bu boisdan go'zal Lulu taklifi uning ko'nglini ko'tarib yubordi, o'zini kutayotgan osuda, orombaxsh tun xayolini band etdi.

To'lin oyning mayin oq nuri salobatli cho'qqilar, o'ngirlar va adirlarni munavvar etganda yelkasiga yengil chakmonni tashlab olgan O'g'uzxon Lu'lularoqdasiga tashrif buyurdi.

Lulu xoqonni nozu navozishi, ta'zimi ila qarshilab, yasatig'liq dasturxonga taklif qildi. Dasturxonda yetti iqlim noz-ne'matlari muhayyo etilgan, sharobi qimiz to'la ko'zachalarning son-sanog'i yo'q edi. Saroparda bekasi xojasi ko'nglini olish uchun bor mahorati, didini ishga solgandi. Dasturxondag'i barcha taomlar xoqon ta'bini hisobga olib pishirilgan, hama narsa shirin visol suhbatiga mos edi.

- Ilgarilari xoqonim taklifimni kutib o'tirmay, o'zi yo'qlab kelib, cho'risi ko'nglini Bayding cho'qqilaridan-da yuqoriga ko'targuvchi edi. Endi esa... – nozlandi Lulu O'g'uzxoniga kosada qimiz uzatar ekan. – Endi esa ko'zda yoshu iltijola chorlashga majburdir joriyang.

- Eh, - uning mayin sochlarini silab, xo'rsindi xoqon, - agar imkon bo'lganida men dunyoning jamiki rohat-farog'atini sening issiq og'ushingga alishmas edim, jonim,-O'g'uzxon Luluning tim qora ko'zlariga suq bilan boqdi.

Xoqon ma'shuqasi visol bazmiga zo'r berib tayyorlangan, harir libos kiygan badanidan mushki anbar hidi kelar, tilla kamari chicka bel, bo'liq siynalar, nim ochiq mushtoq dudoqlar oshiq yurakka g'ulg'ula solardi...

- Sen uchun imkonning hamma eshiklari ochiq, g'olib xoqonim. Sen imkonlar shohisan!.. – Lulu bu oqshom xojasini butunlay eritib o'z maqsadiga erishmoqni niyat qilgan, shu bois uning aqiq lablaridan bol tomardi.

Etti iqlim go'zallari muhabbatiga sazovor bo'lgan. Haramida yuzlab nozanin bir ishorasiga muntazir turgani holda,O'g'uzxon Lulu nozu karashmalariiga tob berolmas, zumda ixtiyor qo'lidan ketar, tungus go'zalining biror so'zini yerda qoldirolmasdi. Lulu ishvalari xoqonga qanday ta'sir qilishini yaxshi bilar, undan ustalik bilan foydalanardi.

¹ Jo`ra Fozil. Ayrilis ostonasi. Tarixiy roman."Sharq" T.: 2006. 83-89 betlar.

O'g'uzxonday shavkatli sarkardani maftun etolgan Lu'luning zaif bir tomoni bor edi. U oltinu marvarid, zaru zevarga juda o'ch. O'g'uxxon vaqt-vaqt bilan unga shohona sovg'alar qilib tursa-da, boylikka bo'lgan ishtiyoqi sira so'nmasdi. O'g'uzxonning qattol dushmanlari buni yaxshi bilardilar.

Ching Ping Liyubongdan juda ko'p oltin yombilar olib, O'g'uzxon dan bir necha soat burun Lu'lu saropardasiga kelgan, ular ancha vaqt pinhona suhbat qurgan edilar. Ching Ping son-sanoqsiz soqchilaru, xos navkarlar solgan to'siqlardan qanday o'tganini hech kim bilmaydi. Ehtimol, yana o'sha oltin yombilar ish bergandir?..

Vazir va malika suhbati ham bizga qorong'i. Faqat shu suhbatdan so'ng vazir Ching Ping qurshov halqa ochilishiga komil ishonch bilan O'g'uzxon lashkargohini tark etdi. Vazirning oti endi yengilgina lo'killab borar, oltin yombi solingan qopchiqlar bo'm-bo'sh edi. Faqat qopchiqlar bo'shagan bo'lsada, Ching Pingning ko'ngli to'q edi, u xon topshirig'ini bajargandi.

... To'lin oy chor atrofni tobora munavvar etganicha, osmon gumbazining eng baland nuqtasiga ko'tarilgan, Lu'lu saropardasida esa visol bazmi davom etardi. Sharob to'la kosalar paydar-pay aylanar, O'g'uzxon shu topda go'zal ma'shuqasi uchun sherning og'ziga bosh suqishga ham rozi edi. Lekin u makkora hali bu farahli tundan ko'zlagan asosiy maqsadini bayon etmagan, xoqon inon-ixtiyoridan batamom ajrashini, qo'ynida yuvosh qo'zichoqdek bo'lib qolishini kutib, payt poylardi. Shirin so'z, xushomad jahongir xoqonlarni emas, hatto tilsiz toshlarni ham erita oladi. Buni yaxshi anglagan saroparda bekasi nuqul hamdu sano, xushomadga zo'r berardi. O'g'uzxon a'yonlari xushomadiga unchilik e'tibor bermasa-da, ayollar tilidan uchadigan shirin kalom unga xush yoqar, o'z qudrati, shon-shavkatiga bo'lgan ishonchi ortardi.

- Xoqonim,- deyardi Lu'lu qadah sunib, - sen so'nggi, hal qiluvchi zarbaga shaylangan arslonga o'xshamishsan. Yana bir hamlang bilan Zangu Farang, Chin-Mochin, Arabu Ajam itoatingda bo'lgay! Shunday ekan, Liyubongga o'xshash ojiz sichqonlar sening oldingda nima degan gap?.. Ular sening qullaringdir, xolos. Sen esa xojasan, g'olib, sarafrozdzursan. G'oliblar esa mard va marhamatli bo'lg'aylar. Sening g'alabang, mudom g'olibliging uchun qadah ko'taraman, jonim!..

Tun sohirasining har bir so'zi visol sharobidan sarxush xoqonning jon-joniga singib borar, kayfini oshirar, Lu'luni esa ko'zlangan maqsadi sari tobora yaqinlashtirardi. Uning quralay ko'zlari oldida O'g'uzxon surati emas, Ching Ping berib ketgan oltin yombilar shu'lesi jilvalanar, ko'ngliga ulkan boylik, u bilan bog'liq turli hayollar vasvasasi oralagandi. Shu oltinlarsiz ham O'g'uzxon tortiq qilgan shohona sovg'alar bir emas, bir necha go'zalni butun umr

ta'minlashga yetardi. Lekin ko'nglida shayton vasvasa qilgan Lu'lu oltin yombilar deya xiyonat ko'chasiga qadam qo'yishga tayyor edi.

Nihoyat, u harakat qilish vaqtি yetganini sezib, ehtiyotkorlik bilan so'z boshladi.

- Tong yaqindur, xoqonim sening yana bir ulug'vor g'alabang tong otari boshlanayotir va lekin ko'nglim nedandir bezovta... – Lu'lu ovoziga ataylab g'amgin tus berib, xojasiga tikildi.

O'g'uzxon uning tabiatidagi andakkina o'zgarishni ham ilg'ashga o'rgangan edi, ma'shuqasi ko'zlariga iztirob soya solganini ko'rib, xushyor tortib so'radi:

- Nedan bezovtasan, go'zalim ?

- Kecha oqshom ham sening diydoringga mushtoq edim, lekin xabar yo'llashga jur'at etolmagandim. Shu vajdan uzoq vaqt bedorxbob bo'lism. Tongga yaqin ko'zim ilinib, bir tush ko'rdim. Tushimda shomonlar davra olib, raqs tushganlaricha, allanimalar haqida baqirib – chaqirardilar. Yaxshilab qulqoq solsam, ular menga murojaat etayotgan ekan... "Hoy Lu'lu, xoqoningga ayt, bekorga qon to'kishni bas qilsin, bu Kuntangriga sira xush kelmagay!" leyishardi ular. Qo'rqb ketdim. "Axir, xoqonim Kuntangri marhamatiga sazovor odam, u kishi neki qilsa, Tangri fatvosi ila qilg'ay", dedim, Lekin shomonlar yana suron ko'tardilar, birdan tog' o'ngiridan aks sado kelganday bo'lib, guldirakdek ovoz eshitildi: "Hoy, xom sut emgan bandalar, qon to'kishni bas qilinglar, yo'qsa g'azabimga duchor bo'lgaysanlar!"

Uyg'onib ketganimda yostig'im ko'z yoshlardan jiqla ho'l, a'zoi badanim dag'-dag' titrardi. O'sha dahshatli ovoz Kuntangri vahisi bo'lib eshitildi menga. Bizni nelar kutmoqda, bilmam, xoqonim... – Lu'luning nozik musiqiy tovushi titrardi. Bu titroq Kuntangriga e'tiqodi baland bo'lgan O'g'uzxon yuragani ham larzaga soldi. U sharob va visol kayfini unutib, bir zumda hushyor tortdi.

- Yuragimga g'ulu solding, Lu'lu, ne qil deysan ? – so'radi u.

- Mana, yetti kecha kunduzdirki Liyubong qo'shini qurshovda, och-nahorjon taslim qilayotir. Qamalni bo'shat, ortingga qayt!

- O-o-o, - zorlandi O'g'uzxon, - bu ne ko'rgilik, men netib ortimga qaytay? Axir, arslon izidan qaytmas, demishlar, Ortga qaytish men uchun sharmandalik-ku!

Lu'lu uchun mo'ljalga bexato urish fursati kelgan edi, u imkonini boy bermadi:

- Sallamno, xoqonim! Sen arslonsan, ortingga qaytolmaysan. Men shuning uchun seni behad sevamanda! Sen ortga qaytolmasang, raqibing sharmandalarcha ortiga qaytishi uchun imkoniyat yarat!

- Qandoq qilib, lashkar oldini ne degan odam bo'laman ! – dedi xoqon.

- Kuntangri dargohi keng, yana bir karra imon keltirsang, barcha mushkuling oson bo'lgay... Ya'ni, masalan, qurshovning biror-bir yerini sal bo'shatasan, vassalom! Raqibing sichqon inini ming tanga qilib, qochib qoladi.

- Axir lashkar buni sotqinlik, xiyonatga yo'yishi, ularning jangavor ruhi tushishi mumkin-ku! – achchiqlandi O'g'uzxon.U shu topda shomon Mushirning xiyonat haqidagi bashoratini ko'nglidan o'tkazmoqda edi.

- Eh, mening sodda arslonim, nahot kichkinagina hiylaga qurbing yetmaydi? Chinor otliq yoki bo'z otliq lashkaringga bir oqshomgina istirohat etishga ruxsat bersang, kifoya.Tun qorong'isi barcha qabohatu chirkinliklarni yutib yuborgay... – dedi Lu'lu uning ko'zlariga tik boqib. Uning ovozida anduhdan asar ham qolmagandi, qarashlar urg'ochi sher misol shiddatli, hattoki qahrli edi...

O'g'uzxon chuqur o'yga toldi.U juda qiyin ahvolda qolgan edi. Lu'lu nidosiga qulq solay desa, qattol dushman ustidan tayin g'alaba qo'ldan ketishi mumkin. Qulq solmasa, Kuntangri g'azabiga duchor bo'ladi...

U axir, faqatgina Kuntangri irodasi bilan xoqonlik taxtiga o'tirgan-ku! Xullas, sarkarda ikki o't orasida edi, uning ruhiy holatini diqqat bilan kuzatib o'tirgan Lu'lu xotirjam qilishga intildi:

- Sen qurshov xalqasini bir oz bo'shatganing – g'alaba qo'ldan ketdi degani emas-ku! Liyubong baribir sen bilan sulk tuzishga, sharmandali o'lpon to'lashga majbur va mahkum.

Doim g'olib va sarbaland yurgan O'g'uzxon barcha muvaffaqiyatlarim Tangri irodasi ila qo'lga kiritilayapti deya astoydil ishonardi va yuragida Kuntangriga cheksiz e'tiqod bor edi. Shu bois Lu'lu istagiga qarshi borishni Tangri irodasiga qarshilik deya baholamoqda va bundan cheksiz iztirobga tushmoqda edi. Buni ko'rib turgan Lu'lu hech qanday e'tirozga o'rinn qoldirmaslik uchun yana tangri nomiga zo'r berdi:

- Marhamatli, kechirimli insonlarga Tangri taolo-da marhamatli bo'lgay, sen shuni unutma, xoqonim!

Bu so'zlar O'g'uzxonni oxir-oqibat bir qarorga kelishga majbur etdi va yuragida qurshov halqasini ozgina bo'shatish istagi bilan saropardani tark etdi. Lu'lu esa o'zining jaydari, lekin duja sinalgan "haylasi" bu gul ham qo'l kelganidan shod edi. U agar shunaqangi hiylaga ustasi farang bo'lmanida, mag'lub Tungus xoni qo'ynidan chiqib, to'ppa-to'g'ri g'olib O'g'uzxon og'ushiga tushmas edi.

Mushir bashoratidan yaqinlari xiyonat qilishi mumkinligini bilgan O'g'uzxon Lu'lu ishonchini oltinga almashganini bilmasdi.Bu sir sirligicha qoldi va O'g'uzxon qurshov halqasini Lu'lu iltimosi bilan emas, Tangri irodasi ila ochdim deya ishondi.

O'g'uzxon farmoni bilan o'sha oqshom bo'z otliq lashkarga "dam" derildi. Ho'kizlar so'yilib, sharob bazmi boshlandi. Liyubong qo'shini esa ochlik, tashnalik azobi, eng muhimi, to'ng'iz qavmidagi o'lim xavfidan qutilganiga shukronalar aytib, qochib qolish payida bo'lди.

Liyubong uchqur arg'umog'i sag'risiga achchiq-achchiq qamchi bosar ekan, tirik qolganiga ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmas edi. U o'limdan qutulgan esada sharmanda bo'lgandi. U O'g'uzxon bilan muhoraba qilishga kuchi yetmasligiga amin bo'lgach, sulk tuzish va o'lpon to'lashdan o'zga chora yo'qligini sezib turardi. Ko'p oltin tufayli xolos bo'lganlik haqida mujda keltirgan makkor vazir Ching Ping fikri ham shunday edi. "Nachora, - xo'rsindi mag'lub xon,- yetsa mol,yetmasa jon demishlar.Hozircha molimiz yetib turibdi..."

Mamlakatimiz tarixi, xususan unda yashagan qadimiy xalqlar tarixini o'rghanishda, Sug'd tilida yozilgan "Xalqlar ro'yxati" deb atalgan bir hujjat (VIII asr) o'ta muhimdir. Unda O'rta Osiyoda yashagan 21 xalq va elatning nomi keltirilgan.

Ishoqov.M. Utilgan podsholikdan xatlar. T.: Tarixiy - ilmiy ommabop nasr. "Fan", 1992. 50-52 betlar.

So'g'd elchisi Fatufarnning Chochdan jo'natgan maktubi:

Mug' qasri xarobasida qolib ketgan ilk o'rta asr sug'd arxivi oradan 1210 yil o'tgach, 1932-1933 yillarda topildi. Mana salkam 60 yil bo'ldiki, Mug' tog'i sug'd hujjatlari izchil o'rGANIB kelinmoqda, barcha tekstlarning izohi nashrlari e'lon qilinmoqda.Ularning til xususiyatlari o'rganilmoqda. Qadimgi sug'd yozuvi bo'yicha poleografik tadqiqotlar bajarilmoqda.Shu yozuvdan namunalar keltiramiz:¹

1. Janobi hukmdorga, buyuk tayanchimiz, Sug'd podshosi, Samarqand hokimi.
2. Devashtichka uning eng e'tiborsiz («millioninchi» darajasi) qo'li Fatufaridan murojaatnoma
3. Janobi hukmdor, (senga) buyuk shon-sharaf (egasiga) ko'pdan-ko'p ta'zim yo'llayman («murojaat qilaman»).
4. Va janob, men bu yerga, Choch hukmdori huzuriga keldim. Janob, xatlarni ham topshirdim, og'zaki («til bilan») (aytilishi) lozim bo'lgan.

¹ Ishoqov. M. Utilgan podsholikdan xatlar. T.: "Fan", 1992. 1-2 betlar

5. murojaatnomani ham to'liq, oqizmay-tomizmay («qolliqsiz») buyon etdim va hokazo.

Yupqa ochiq kulrang qog'ozga yozilgan maktub. Sug'd podshosi Samarqand hokimi Divashtichga yo'llangan. Maktub muallifi podsho Devashtichning Chochga (Toshkent), undan turk hoqoni hamda Farg'ona podshosi huzuriga maxsus diplomatik vazifa bilan, xususan, arab istilochilariga qarshi birlashib kurashishni tashkil qilish maqsadida yuborgan elchisi Fatufaridir.

Maktub Fatufari tomonidan shunday bir vaziyatda yozilganki, bu holat aftidan kutilmagan edi. Gap shundaki, Fatufari Chochga kelgach, tudun deb nomlangan Choch hokimiga va uning yordamchisiga tegishli maktub va og'zaki aytlishi lozim bo'lган gaplarni yetkazadi. Ulardan javob maktubini oladi. Lekin turk hokimi bilan uchrashishning ilojini topmaydi. Vaziyat taqozosi bilan xoqonga va Farg'ona podshosiga tegishli maktublarni Farg'ona tutug'i (shu kunlarda Chochda ekan) orqali jo'natadi. Shoshilinch So'g'dga qaytgach Fatufarn Ustrushan viloyati arablar qo'liga o'tib, yo'li qirqilib qolganini bilib qoladi. Yolg'iz holda yo'lda davom etishga jur'at qilolmay Chochga qaytib keladi va shu yerdan turib Devashtichga ushbu maktubni yozib, Marvon ismli kishidan aylanma yo'l-Konibodom orqali Sug'dga jo'natadi. Maktubning yozilish tarixi, sanasi haqida turlicha fikrlar bayon etilgan.

Maktubda qayd etilgan mas'ul shaxslar arab istilosini kunlaridagi Toshkentning siyosiy mavqeい, uning turk hoqonligi, Farg'ona vodiysi va boshqa yerlar bilan munosabati, viloyat boshqaruvining xususiyatlari qabilalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan xoqon. Choch hokimi, tudun, uning yordamchi... Chodirchik degan joyda.....

Demak, yuqorida qayd etilgan Chodirchi sulhi tarixiy Chodirchik geografik rayoni bilan bog'liq hodisa ekan. Shunga binoan Fatufari Ustrushan va undan sharqda joylashgan Falgar, Buttam, Panch kabi tog'li viloyatlardan farqli ravishda pasttekislikda joylashgan hozirgi Zomin, Mirzacho'l, Jizzax muzofotiga nisbatan «Chodirchik» so'zini qo'llagan bo'lsa kerak, deyishga to'la asos bor. Fatufarin Sirdaryodan u tomondagi yerlar, jumladan, Ustrushan arablar qo'liga o'tgani tufayli bu hududlar orqali Sug'dga o'tib ketolmadi. Shu bilan bir qatorda «Chodarchik yerlaridan ham biror yaxshi xabar eshitmadи». Bu faktini hisobga olsak taxminimiz asosli ekani ko'rindi. Gap shundaki, agar Ustrushan yo'li qirqilib qolgan bo'lsa, Fatufari Chodirchik yerlari orqali Zomin, Jizzax ustidan aylanma yo'l bo'ylab Sug'dga qaytishni mo'ljallagan bo'lishi mumkin. Lekin u yo'l ham arablar nazaratiga o'tgani tufayli elchi noiloj Chochga qaytishga majbur bo'lgan.¹

¹ Ishoqov. M. Unitigan podsholikdan xatlar. T.: "Fan", 1992. 1-2 betlar

Choch hokimligining noibi tudun Chodirchik bitimi asosida qo'shinlarni arablardan uzoqlashtirgani haqidagi xabar biz uchun muhim bir xulosa yasashga imkon beradi. Bu hol Choch viloyatining ilk o'rta asrlarda zomin, Jizzax yerlari ustidan ham siyosiy hukmronligi bo'lganligidan dalolat bersa kerak. Arablar shu tufayli bu o'lkada Choch hamda turk qo'shinlari qurshovida qolishgan va vaqtincha sulk tuzishgan va tovon to'lab qutulishgan. Shundan so'ng tudun qo'shinlari, uning turli qismlari Chochga qaytgan bo'lishi kerak. Ayni shu kunlarda sug'd elchisi Toshkentda – Chochda tudun va uning yordamchisi bilan uchrashishga muayassar bo'lgan.

Chochning Chodirchik, taxminimizga Zomin, Mirzacho'l, Jizzax yerlari ustidan hukmronligi masalasi yana shu bilan asoslanadiki, bu katta muzofot sug'd podsholigi viloyatlari qatorida umuman tilga olingan emas. Bu yerlarda mustaqil ma'muriy birlik bo'lgani to'g'risida ham hech qanday ma'lumotga ega emasmiz. Shu tufayli sug'd elchisi maktubi asosida bayon etilgan siyosiy ahvol manzarasi ilk o'rta asrlarda Jizzax, Zomin, Mirzacho'l yerlari qadimgi Toshkent hokimligiga tobe yerlar bo'lgan deyishga asos beradi.

(Abdurahmon ibn Subhning Devashtichga maktubi):


Bu hujjat 1932 yil bahorida Zarafshon daryosiga Qum daryosi quyiladigan joyda voqe bo'lgan Mug' qasri deb nomlanuvchi qadimgi xaroba tepaligidan shu yerlik cho'pon Jo'rali Mahmudali tomonidan topilgan¹.

Mug' qasri Panjikentdan 50 km sharqda, Xayrabod qishlog'i yonida bo'lib 705 – 722 yillar arab istilochilariga qarshi Sug'diyona xalqlari kurashida muhim rol o'ynagan. Qasrda 722 yili Sug'd podshosi taxtiga da'vogar Panjikent hokimi Devashtich boshchiligidida bir guruh saroy ayonlari va ularning bola chaqalari arablar tomonidan qamal qilingan. At-Tabariyning xabar berishicha arablar qal'ani qamal qilishdan voz kechib, uni bir hamla bilan olishgan.

Devashtichni tutib arab xalifasining Xurosonda qarorgoh tutgan noibi ixtiyoriga jo'natishgan. Noib Devashtichni yaxshi kutib olgan. O'rtada bitim tuzilgan Lekin xalif noibi zimdan Devashtichni o'ldirish haqida buyruq bergen. Shunday qilib Devashtich 722 yili Xurosondan qaytayotganida hozirgi Kattaqo'rg'on shahri yaqinidagi qadimiy shahar Rabinjon yonidagi Zardushtiyalar qabristonida yog'ochga miztash yo'li bilan qatl qilingan.

Quyidagi hujjatga e'tiborimizni qaratamiz:

¹ Ishoqov. M. Unitilgan podsholikdan xatlar. T.: "Fan", 1992. 32- 33- betlar



Tarrjima qilib izohlayotgan I. 1. raqamli hujat ana shu Devashtich nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, arab istilosiga kunlari haqida ma'lumot beradi.¹

1. Yaralgan borliqni o'zida jam etuvchi xudo nomi bilan.
2. Amir Abdurahmon ibn Subhdan Sug'd podshosi, Samarqand hukmdori
3. Devashtichga (izzat-ikromlar bo'lsin). Janob, mana endi kecha Nijitak keldi va
4. Kurchi Vag'ipat (keldi). Ular amirdan shunday noma (pustak) keltirdilarki, unda amirning sendan xursand emasligi (bayon etilgan).

Shunday qilib mazmuni bayon etilgan maktubda 720 – 721 yillardagi siyosiy vaziyat mushkulligi, mahalliy zodagonlar va arab istilochilar o'rtasida kun sayin turlanib turgan munosabatlar, xalqning kurashchan ruhi jonli bir tarzda ifodalangan. Shu jarayonda Abdurrahmon ibn Subh Devashtichga amir buyrug'ini eslatib qo'yish lozim deb topgan. Agar buyruq ado etilmasa, oqibati yaxshi bo'lmasligi ta'kidlangan. Lekin Mirning ko'rsatmasi nima ekanligi noma'lum qoldi. Aftidan Devashtich unga amal qilmagan. Chunki biz tez orada uni bir guruh qo'zg'alonchi sug'dlarning boshlig'i sifatida ko'ramiz. Devashtichning arablar tomonidan qatl etilishi ham shu bilan izohlanadi.

Hamid Olimjon.Besh tomlik asarlar majmuasi. 3-tom, P`esalar. Muqanna. G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. T.: 1971. 280 -bet.

Parcha

- Boqiy Muqannani so'raydi. Otash Muqanna chiqqan tomonni ko'rsatadi. Sahnaga kiyimlari yirtiq, yaralangan bir necha kishi kiradi.

1- kishi

Ko'rondagi qo'shni tamom qirildi.

2- kishi

Dushman ichki qal'a tomon surildi.

¹ Ishoqov. M. Unitilgan podsholikdan xatlar. T.: "Fan", 1992. 50-52- betlar

U l a r Bog'iy chiqqan tomonga chiqadilar.

Sahnaga Hakim boshliq uch-to'rt odam kirib keladi. Ikkinchchi tomondan Muqanna bilan Bog'iy kiradi. Muqanna Hakimdan

Muqanna

Qani, so'yala, sen nima gap keltirding?

1-kishi

(hakmga)

Ayt!

Hakim

Sen o'zing

2-kishi

Sen o'zing ayt!

1-kishi

O'zing ayt!

Hakim

(o'rtaga chiqadi)

Uchmoqlikka endi qanot qolmadi,
Qutulmoqqa hech bir najot qolmadi.
Hech bo'lmasa jonni saqla endi san,
Bir yo'l topib qochmoq kerak bu eldan.

Hamma hayron. Muqanna javob beradi.

Muqanna

Nima deding? Meni qochgan dedingmi?
Ablah, hali shuncha botir edingmi?!
Shu jon bilan tushibmiding yo'limga.

pauza

Xoin bilan qo'rroq mahkum o'limga!
(otashga)

Buni o'ldir. Bu qutulmin tashvishdan,
Jarga tashla, qolib ketsin bekafan.

 Otash olib chiqadi. Uzoq pauza.

Mening onam shu tuproqda tug'ilgan,
Bobolarim shu tuproqqa ko'milgan.
Shu tuproqda kindigimning qoni bor,
Shu tuproqda avlodimning qoni bor.
Shundan ketib bo'layinmi muttaham?
Bir qarich yer topilmasmi menga ham?
G'amga botgan elim yig'lab qolsinmi?
Qayoqqa, deb tog'lar faryod solsinmi?

Xoin deya qichqirsinmi avlodlar?
 Quvlasinmi meni daryolar, dodlar?
 Yo'q. Aslo yo'q. Bu aytganing men emas!
 Jon saqlashga chaqirmagin meni, pas!
 Bir boshimga yuz ming balo kelsa ham
 Shu tuproqdan siljimayman bir qadam.
 Bir minut ham ajralmayman elimdan,
 O'lganda ham chekinmayman yerimdan.

Tashqarida shovqin. Gulxanda olov lovillaydi.

Otash

Adolat ham ba'zida yengiladi.
 Ba'zan bulut ortida qoladi kun,
 Ko'miladi tuproqqa ko'p vaqt oltin,
 Lekin aslo adolat hech o'lmaydi:
 Qo'milsa ham oltin nixon bo'lmaydi.

Gulxanda olov lovillaydi. Dushmanlar qo'rg'onga o't qo'ydilar.

Muqanna

Bir o't yoqki, validayi muhtaram,
 Bir o't yoqki, yorilsin yerus olam.

pauza

Xalqqa aying, men aslo o'lganim yo'q,
 Yov qo'liga taslim ham bo'lganim yo'q.
 Men eliminning yuragida yashayman,
 Erk deganning tilagida yashayman.
 Qullik bilan turolmayman bir yerda,
 Dushman bilan yotolmayman bir go'rda.
 Xalq tangrini axtarganda men unga
 Hurriyatning ollohin keltirdim,
 Yo'l boshlovchi bir dohiyni keltirdim
 Va ko'rsatdim ozodlikning zo'r rohin,
 Guloyindek muhabbatning ollohin.
 Bukun sizni chaqiradi u jangga,
 Hujum et deb yurtni bosgan dushmanga;
 Qldingizda nafrat o'ti yonsin der,
 Nafrat o'ti yov qoniga qonsin der.

pauza

O Guloyin, yodimdasan bir umr,
 Eslaganda ko'zlarimda ortar nur.
 Sun ishq kabi abadiysan, ey sanam,

Ozodlikdek mangu yasharman men ham.

**Pauza. Tashqi qo'rg'ondag'i o't zuraymoqda.
(Muqanna o'zining so'nggi so'zlarini aytmoqda.)**

Yana ko'rmoq bo'lganlarga yuzimni,
Quloq soling, tanitayin o'zimni:
Ochilar u g'alabaning tongida,
Jangga kirgan odamlarning ongida.
Yana meni ko'rmoqqa zor bo'lganlar,
Kulartakin va G'irdakka boqsinlar.
Yana kimki, vatan uchun jang qilsa,
Yana kimki, yov holini tang qilsa,
Yana kimki, yovni quvsqa vatandan
Mening chehram ko'rindi o'shandan.

**Pauza
(Gulobodga)**

Olovni yoq, validayi muhtaram,
Olovni yoq, yorilsin yerus olam.
Bukun men ham olovga qo'shilaman,
Bukun men ham mangulik o't bo'laman.
Nafrat o'ti kabi yonib qonlarga,
Qo'shilaman million-million jonlarga.
Yovni jondan yomon ko'rganligim rost,
Bundan so'ngra nomimni qo'ying: qasos!

Hamma

Muqanna – qasos!

Muqanna

Tiriklayin tushmayman yov qo'liga!
Shu so'zlar bilan do'stlari-la quchoqlashib xayrlashadi.
Ularning har biri ham muqanna bilan quchoqlashar ekan "Tiriklayin tushmaymiz yoq qo'liga!" va "qasos" so'zlarini takror qiladilar. Ular xayrlashib bo'ladilar. Gulxan lovillaydi. Butun atrofda olov. Muqanna o'zini gulxanga tashlaydi, do'stlari ham o'zlarini birma-bir olovga tashlay boshlaydilar.

PARDA

Shuningdek, maktab tarix ta`limida Vasiliy Yanning "Chingizxon", Sadriddin Ayniyning "Muqanna isyonii" tarixiy asarlaridan ham unumli foydalananish mumkin.

3. XII-XIII asrlar davri tarixiga oid badiiy tarixiy asarlar.

1. Bog`dod xalifaligi vayronalarida tashkil topgan eng yirik feodal davlatlardan biri **Samoniylar davlati (819 – 1005 y)** edi. Bu davlatga Nuh ibn Asad (819 – 842 y) asos soldi. Bu davlat ayniqsa X asrning birinchi yarmida, Ismoil ibn Ahmad davridan (892 – 907 y) boshlab kuchaydi. Bu davrda Samoniylar Movaraunnahr, Xuroson, Eron, hozirgi Afgonistonning katta qismi, shuningdek, Toshkent, Turkiston va Sayram ustidan o`z hukmronligini o`rnatdilar.

Samoniylar davri ilm – fan va madaniyatning O`rta Osiyo sharoitida benihoyat rivojlangan davri hisoblanadi. Bu davr Rudakiy, Daqiqiy va Firdavsiy singari ulkan shoirlarni, Farobiy, Beruniy va Ibn Sinodek zabardast olimlarni etishtirdi. X asr oxirlariga kelib, feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi; Hamadon, Isfahon va Rayda Buvayxilar, Tabariston va Jurjonda Ziyoriyalar mustaqillikga erishdilar. Sirdaryoning o`ng sohilidagi yerlar shuningdek, Chog`oniyon va Xorazm ham Samoniylarga itoat qilishdan bosh tortdi. **Qoraxoniylar** (X asrning 90 yillarda Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Tyan – Shanning Janubiy qismida tashkil topgan feodal davlat asoschilari), yuqorida aytilganimdek, 996 – 999 yillarda Nasr ibn Ali boshchiligidida bostirib kirib, butun Movaraunnahrni bo`ysundirdilar. Keyinchalik Saljuqiylar va Qoraxitoyllilar, Xorazmshohlar davlati vujudga keladi. Lekin tuzilgan bu ulkan davlat markazlashgan va mustahkam davlat emas edi. Bosib olingen mamlakatlar etnik jihatdan turlicha bo`lib, ularning iqtisodiy va madaniy taraqqiyot tepasida turgan shaxs tashabbussiz va shijoatsiz odam edi. Shuning uchun ham bu davlat mo`g`ullarnirning kuchli zarbasiga bardosh bera olmadi. 1219 – 1221 yillar ichida O`rta Osiyo mo`g`ullar tomonidan istilo etilgan. Chingizzon vafot etgandan keyin uning bosib olgan yerlari o`g`illari o`rtasida bo`lindi.

Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino. “Yosh gvardiya” noshriyoti. T.: 1987. 240-bet. 57-59 betlar.

Siyosiy o`zgarishlar.

Beruniy O'rdaga kelganida bu yerda podshoh oilasi, oliv dargoh ahli shohona motam marosimini o'tamoqda edilar. Shu bilan birga O'rda ahlida qandaydir besaranjomlik, baland martabali zotlarning xatti-harakatlarida motamdan tashqari boshqa bir tashvish borligi sezilib turar edi.

Marhum podshohning o'g'li shahzoda Muhammad barcha tadbirlarga bosh. Vazir Muhammad Abu Ali Hasan uning yonida parvona, u shahzoda yonidan bir nafas jilmas, shahzodaning farmoyishini o'z atrofida o'ralishayotgan odamlar orqali darhol amalga oshirar edi.

Boshqa bir guruh amaldorlar shahzoda Mas'ud tevaragida jam bo'lganlar, ular Mas'udning o'z ukasi Muhammadning yo'l-yo'riqlariga xalaqit berish maqsadida qilayotgan ishlariga jonu jahd bilan ko'maklashdilar.

Podshoh Mahmud G'aznaviyning vafotiga oid motam marosimi bir necha kun davom etdi. G'azna ahli ulug' siyosatchi va fotihni munosib hurmatlar bilan abadiy dunyoga kuzatdilar. G'azna taxti esa shahzoda Muhammad ixtiyoriga o'tdi. Marhum podshohning vasiyatiga ko'ra amalga oshgan bu tadbir yana bir taxt da'vegari Mas'udga hech yoqmadи.

O'sha yili kuzak payti Mas'ud ukasi Muhammadni hokimiyatdan voz kechishga majbur etdi va G'azna taxtini egalladi.

Yangi podshoh Mas'ud shuncha harakat bilan qo'lga kiritgan hokimiyatni boshqarishga beparvo qarar edi. U ko'proq vaqtini taxtgohda emas, ishratgohda o'tkazadi. U lashkarboshilar va amaldorlar suhbatidan ko'ra dilrabo raqqosa va sozandalar bazmini xush ko'radi, davlat ishlari zahiradan ko'ra aysh sharobi uning ko'ngliga yoqimliroq.

Lekin Mas'udning Beruniyga munosabati oldingi podshohning muomilasidan ko'ra butunlay boshqacha bo'ldi.

Har bir yangi hukmron singari Mas'ud oldingi hokimiyat egasiga zid bo'lgnarlarni quvvatladi va ularni o'z atrofiga to'plashga kirishdi.

Marhum podshoh Mahmud G'aznaviy Beruniyga salbiy munosabati hammaga ayon edi. Mas'ud esa olimga ko'p iltifot ko'rsatdi. Uni o'ziga yaqin tutdi. Yosh sulton Sulton Mas'ud Beruniyning bilimi, aqlu-zakosidan bahramand bo'lmoqni istar, shu sabab ko'p fanlar bo'yicha u Beruniydan dars olar edi.

Ularning mashg'ulotlari asosan arab tili va astronomiyaga bag'ishlanardi.

Podshohning maxsus ta'lim xonasi. Zarrin naqshlar bilan bezatilgan devorlarda turli ranglardagi deraza oynalaridan o'tgan quyosh nurlari jilvalanadi. Yumshoq ko'rpacha parquga suyanib o'lirgan Mas'ud Beruningning astronomiyaga oid suhbatini tinglamoqda.

Olim shohga quyosh va oy harakatlari, yer aylanishining sur'ati, tun va kunlarning uzun va qisqa bo'lish sabablari to'g'risida so'zlab berdi.

Beruniy tahlilida eng murakkab va mushkul masalalar ham g'oyat tushunarli, sodda hamda qiziqarli shaklda bayon topar edi. U o'zining ilmiga bo'lган cheksiz muhabbatи tufayli har qanday ko'ngilni ham fanga maftun etuvchi jozibaga ega edi.

Dars yakunida Beruniy podshohga dedi:

- Siz mag'rib va mashriqni o'z tasarrufiga kiritgan ulug' hukmdor butun yer yuzasining sultonligiga munosib bir shohdirlsiz. Agar shunday baland martabali zot kun va tun sharoiti, ulardagи ishlarning borishi obod yerlarda, hamda sahro va inson yashamaydigan joylarda kun va tunlarning qay darajadagi uzunligiga oid ma'lumotlarni yaxshi bilsa, bu olimlar faqat oliv saltanatni mustahkamlamoqqa xizmat qilgan bo'lur edi.

- Shunday bilimlarni o'zida jam etgan, ammo mutolaa uchun qulay va yengil bitilgan kitoblar darkor.

- Bu so'zlaringizni men uchun farmon deb bilishga ruxsat etgaysiz. Podshohim aytgan tarzdagi kitobni bitmakka darhol kirishgumdir.

- Faqat hozirgi munajjimlarning qabul qilgan usullari va iboralaridan o'zgacharoq bo'lsa,- dedi podshoh Mas'ud,- chunki bularning yozganlari bemiqdor, uslublari murakkab, ifoda va iboralari g'aliz.

- Ilm ravshanlik ila fazilatlidir. Haqiqat esa g'oyat sodda va to'ppato'g'ri. Murakkablik va g'alizlik muallifning o'z bayonidagi haqiqatga shubhasi borligidan nishonadir.

- To'g'ri, - deb kului Mas'ud, - kitob yozgan kishi bu kitobni odamlar o'qiydilar degan umid bilan yozmog'i darkor. Ba'zilar esa shunday yozadilarki, ular bu kitobni hech kim o'qimaydi deb o'yagan bo'lsalar kerak, deb qo'ngilga keladir.

Shu suhbatdan boshlab Beruniy o'zining ko'p yillardan beri o'ylab yurgan ishiga kirishmoqqa qaror qildi. Dastlab debocha sifatida bir kichikroq kitob yozib uni sulton Mas'udga yo'lladi. Unda tun va kun uzunligini aniqlash tamomila yangi, mavjud usullardan o'zining soddaligi va ixchamligi bilan farqli holda bayon etilgan edi.

Sulton Mas'udga bu kitob maqbul bo'ldi. Podshohning taqdirlashi olimni o'z qarorida yana qat'iylashtirdi.

Beruniyning ancha fursatdan beri yer va osmon haqidagi bilimlarning majmui bo'lган katta bir asar yaratmoq rejasи bor edi. Ammo podshoh Mahmud G'aznaviy bilan Beruniy orasidagi noxush munosabatlar olimning ko'ngliga tinchlik bermas: bundan tashqari kundalik boshqa xil ilmiy mashg'ulotlar bir yaxlit mavzu ustida ko'milib ishlashga yo'l qo'y may kelar edi. Sultan Mas'udning Beruniyga hurmatli munosabati,sultonning yosh, ma'rifatli ekani, ilm-fanga hayrixohligi Beruniyni shu katta ish ijrosiga chorlagan bo'ldi.

1031-yildan boshlab olim ana shu shoh asarini yaratishga kirishdi. U olti yildan ortiq muddat ishladi, Beruniyning kechasiyu kunduzi tinmay qilgan mehnati, uning ilm va mehnatga muhabbatining samarasi sifatida ulkan bir kitob yuzaga keldi. Beruniy o'zining butun kuch va quvvati, fursat va imkoniyatini ilmga bag'ishlagan, ilhom va muhabbat bilan fanga xizmat qiluvchi bir zahmatkash edi.

Sulton Mas'ud olimning ana shu intilishiga hurmatli munosabatda bo'ldi. Olimni o'z shohlik qudrati bilan e'tirof etdi. Olimga boshqacha iltifot kerak emas. Unga shunday hurmatli e'tirof darkor xolos. Shundan minnatdor bo'lган beruniy o'zining yangi shoh asarini Sulton Mas'udga bag'ishladi va bu kitobni "Qonuni Mas'udiy" deb atadi.

Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino. "Yosh gvardiya" noshriyoti. T.: 1987. 240-bet. 63-65 betlar. Asar badiiy to`qimalarga boy bo`lsada muallif asar qahramonlari obrazini yorqin ifodalar bilan tasvirlay olgan. Voqealarning badiiy syujeti o`quvchini ular yashagan davr va muhiti haqida to`laqonli ma`lumot bera oladi.

Shohona tuhfa.

Beruniy "Qonuni Mas'udiy"ni podshoh Mas'udga topshirdi. Podshoh bu kitobdan mamnun bo'ldi. Eng ulug' bir ilmiy qomus yosh podshohning nomini abadiyyan fan tarixiga olib kirgan edi.

Mas'ud Beruniyning bu katta xizmati va sharafli bag'ishlovi evaziga unga ulkan mukofot tayin qildi.

G'azna ko'chalari, Qator saf tortgan rastalar. Otzor maydoni sari oshiqdilar. Misgarlar, taqachilar do'konlarida jarang-jurung taqa-taq bolg'alar dukullaydi. Savdo rastalari salobat bilan saf tortgan. Shahar o'z kundalik hayoti og'ushida.

G'azna ko'chalaridan bir otliq tuyabon ikki serhasham bezakli tuyani ohista yetaklab o'tib boradi. Tuyalarning kajavalariga ortilgan kichik-kichik qopchalar tarang. Yukning og'irligidan tuyalar horg'inlik bilan qadam tashlaydilar.

Tuyabon oldida bezakli taqinchoqlar bilan to'la otga mingan zarhal libosli bir suvori ketmoqda. Katta yuk ortilgan bu tuyani otliq ikki soqchi qo'riqlab boradilar.

Rastadagi do'konlardan birida o'tirgan savdogar o'z suhbatdoshiga bu kichik karvonni ko'rsatib dedi:

- Ushbu tuyalar o'rda xazinasidan chiqqanlar. Ular qimmatbaho yuklarni qaygadir eltmoqdalar.
- Karvon oldidagi kishi ham xazina xizmatchisi bo'lsa kerak. Libosi shundan dalolat beradi.
- Shunday

G'azna ko'chalaridan viqor bilan kechmoqda bo'lgan bu karvon tezda ko'pchilikning diqqatini tortdi. Suvoriylar va ikki tuya tezda shaharning markazidan o'tib uning chekkasidagi bog' ko'chalar sari yo'l oldilar.

Beruniy ertalabdan beri tinmay ilmiy mashg'ulot bilan band bo'lib sal toliqdi shekilli ishini to'xtatib boqqa chiqdi. U gulzor yoqasida jadal oqayotgan ariqchadagi suv ovozini tinglab gullar jamoliga boqib bir oz hordiq chiqardi. Bu to'xtovsiz oqim olimga hayot fursatining tez o'tishini eslatdi. Ana shu ariqdagi suv kabi gullar undirib, mahsullarga baraka berib yashamog'i lozim har bir odam. Hayotning chin mohiyati elga, kishilarga bahra yetkazmoqdir. Agar shu ariqdagi suv bo'lmasa, gulzorlar qaqrab quruqshab ketgani singari, har bir kishi faoliyatida ko'pchilikka bahra yetmasa, el hayoti ham kambag'al-lashadi, odamlarga naf yetkazmay yashagan kimsa esa suvsiz ariq kabi befoyda va quruqdir.

Beruniy shunday mulohazalarda g'arq bo'lib bog'da sayr etar ekan, zizmatchi kelib o'rdadan kelgan odam Beruniyni qo'ylayotganini xabar qildi.

Beruniy bog' eshididan ko'chaga chiqdi. Bog' darvozasi oldida ikki katta tuya yerga cho'kkan va ustidagi og'ir yukni tashish mashaqqatidan xoliy bo'lgani uchun shukur qilganday chuqur nafas olar edi. Darvoza boshida turgan xizmatchi otdan tushib Beruniyning chaqirig'ini kutmoqda. U olimning o'zi eshikdan chiqib kelganini ko'rib sal sarosimada qoldi va darhol ot jilovini yonida turgan soqchilardan biriga topshirib o'zi Beruniy huzuriga keldi. U olimga ta'zim qilib salom berdi. Beruniy unga odob ila alik qaytardi.

Saroy xizmatchisi olimga dedi:

- Oliy hazrat shahanshoh sizga ushbu sovg'alarni yo'llamishdirlar. Qayerga tushurmoqni buyurgansiz.

- Bu ne sovg'alardir?

- Podshoh hazratlariga sizning kitobingiz g'oyat ma'qul tushmanish. Oliy hazrat buyurdilarki, ikki tuya ko'tara oladigan miqdorda kumush tangalarni siz taqsirimga sovg'a etib yetkazilsin. Ushbu tuyalarga ortilgan qoplardagi tangalar ushal oliv mukofotdir.

Xizmatchining so'zini tasdiqlaganday tuyalar pishillab boshlarini u yonbu yonga chayqar edilar.

Beruniy bunday iltifotni kutmagan edi. U bir oz jim qoldi. So'ng olim saroy xizmatchisiga dedi:

- Men podshoh hazratlarining bunday oliy darajadagi in'omlaridan behad minnatdormen. Ammo bu qadar katta davlat va boylikning menga zarurati yo'q. Alhamdulilloh, podshoh hazratlarining lutfu inoyatlari va oliy dargohi soyasida tirikchiligidan uchun yetarli ozuqa va kiyinmoq uchun kerakli kiyim menda bor. Undan boshqa narsaning esa menga hojati yo'q. Shuning uchun

bu tangalarni xazinaga qaytarib eltingiz. Ular shahanshoh davlatining lozim ehtiyojlariga sarf etilar.

Saroy xizmatchisi bu yuklarni Beruniyning uyida qoldirish uchun ko'p urinib ko'rdi. Ammo natija bo'lmasdi. Nihoyat tangalar ortilgan ikki tuya o'sha soqchilar himoyasida orqaga o'rda sari yo'l oldi.

Beruniy bog' orqali o'z uyiga qaytdi va yana ilhom bilan ijod jarayoniga cho'mdi.

Aytadilarki, Beruniy yil davomida faqat ikki martaba – hayit kunlari dam olar edi. O'shanda u o'z-o'ziga lozim ozuqa va kiyim tayyorlar edi. Boshqa kunlari esa tinmay ilm-fan mashg'uloti bilan band edi. Olim molu davlat, boylikka nisbatan mutlaqo befarq bo'lib, kundalik tirikchilikka yetarligina narsalar bilan kifoyalanan, uing butun boyligi hayot va insonlarga cheksiz muhabbati, fikrini hamisha ravshan va davlatmand etib turgan ilm va tafakkur xazinasidan iborat bo'lgan. Olim o'zidagi shu bilim durlarini samimiyat bilan elu-yurt uchun bag'ishlamoq ila baxtiyor edi.

Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino. "Yosh gvardiya" noshriyoti. T.: 1987. 240-bet. 98-101.

Amirning kasali

Bahor payti. Buxoro kshchalarini daraxtlarning yosh yashil yaproqlari bezaydilar. G'ir-g'ir esgan shabbodalar har yonga hayot nash'asini yoyadilar. Buxoro ko'rkaligidan dillar rohatlanadi. Inson tanasi tiniq bahor havosidan neafas olib orom topadi. Tabiat qishlik uyqusidan uyg'ongan va hayotbaxsh chehrasini ochgan bir fursat.

Ertalab Husayn tashqari hovlida bemorlarni qabil qilib turgan paytida huzuriga Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning odamlari kirib keldilar. Ular Husaynni amir yo'qlayotganini aytdilar. Husayn oxirgi bemoriga dori-darmon qilib bo'lib uni jo'natdi va o'zi amir odamlari bilan ark sari yo'l oldi.

Husayn Buxoro amiri Nuh ibn Mansurning ancha vaqtidan beri og'ir kasal ekanini eshitgan edi. Husaynning chaqirilishi shu boisdan ekanı unga darhol ayon bo'ldi. Ammo oliy nasab va baland martabali bemorni davolash ancha murakkab ish.

Saroya yetib kelishgach Husayn dastavval saroy tabiblari bilan uchrashdi. Ular Husaynning mohir tabiblik ovozasi saroyigacha yetib kelgani va uni chaqirmoqni amirga maslahat bergenlarini aytishdi. Husayn saroy tabiblari bilan bemorning ahvoli to'g'risida maslahatlashdi. Tabiblar amirni davolash azoyimxon va duoxonlarning aralashuvi tufayli qiyin bo'layotganidan nolidilar. So'ng hammalari birga amir huzuriga kirdilar. Husayn tabiblar bilan amir yotgan uyga kirib kelganda, bu shohona bezaklar bilan bezatilan, qimmatbaho

gilamlar, shohi ko'rpalar bilan to'la uying dimiqqan havosidan nafasi bo'g'ilib ketdi.

Amir uying to'rida qavat-qavat atlas ko'rpalar ustida og'ir nafas olib harakatsiz holda yotar edi. Uning yonida esa bir azoyimxon zo'r berib dam solmoqda. Uy isiriq hidi bilan to'lgan.

Saroy tabiblari amirning achchiq fe'lini bilganlaridan biror qat'iy tadbir qilishga jur'at eta olmaganlar. Ular bilan azoyimxon, duoxonlar o'rtasidagi tortishuv amirning aralashuvi tufayli azoyimxonlar foydasiga hal bo'lган, shuning uchun keyingi kunlarda bemorni faqat ins-jinslarni quvlarloqchi, uning jismidan yovuz kuchlar ta'sirini haydamoqchi bo'lган duoxonlar "davolamoqda" edilar. Dori-darmon qilmay faqat kuf-sufdan nari o'tmaganlari uchun bemorning holati tobora og'irlashmoqda edi.

Husayn bemorning tomir urushini aniqladi, uning yuz-ko'zlariga diqqat bilan boqdi. Dard zo'ridan azob chekayotgan amir hozir har bir davoga rozi edi. Tabiblar hammalari Husaynning duoxonlarni chemordan chetlatish to'g'risidagi taklifini quvvatladilar. Amirning roziligi bilan duoxonlarga javob berilib, jo'natildi. Husaynning taklifi bilan xonani shabadalatildi. Qiya ochilgan ravoq va eshiklardan bahorning yoqimli havosi uyg'a esib kirdi-da, xonadagi dud va dimiqishni yo'q qildi. Tabiblar bamaslahat davolashni dvom ettirdilar. Berilayotgan dori-darmonlardan ba'zilari Husaynning maslahati bilan to'xtatuvchi dorilarga ko'proq o'rin beriladigan bo'ldi. Salomatlikni saqlamoq uchun asosiy shart: parhez va tartib, uyqu va tinchlik, badantarbiya.

Amirni og'ir ahvoldan qutqarish tadbirlari birmuncha fursat davom etdi. Barcha tabiblar bamaslahat ish tutar edilar, lekin ko'pincha Husaynning aytganlari maqbul topilar edi. Sakin-sekin bemorning holatida o'zgarish sodir bo'la boshladi. Muttasil muolaja natijasida uning tanasidagi og'riqlar to'xtadi. Ishtaha paydo bo'ldi. Bu esa salomatlik tiklanayotganini bildirar edi. Qadimiylar aytganlarki, ishtahali bemor ishtahasiz sog'dan tuzuk. Chunki u sog'lig'ini tiklay, bunisi esa sog'lig'ini yo'qota boradi.

Husayn saroy tabiblari bilan birgalikda amirni bir oycha parvarish qildi. Hayotdan qo'l yuvib qo'ygan amir asta-sekin hayotga qaytdi. Uning barcha tabiblardan, ayniqsa Husayndan minnatdorligiga chek yo'q edi. Saroy tabiblari esa ikki xil kayfiyatda edilar. Ularning ba'zilari bir yosh tabibning saroydag'i mo'tabar tabiblar bilan barobar, bazan esa ulardan ustun kelganiga rashk qildilar. Ammo hammalari azoyimxon va duozonlarga qarshi kurashda kuchli bir ittifoqchi topilganidan mamnun edilar. Husaynning aql-zakosi va tabiblik tajribasining ortiq ekaniga uning do'stlari ham, dushmanlari ham tan berdilar.

Amir sog'ayib o'z vazifalarini o'tashga kirishgandan so'ng barcha tabiblarga mukofot berdi. Shu fursatda Husayn bilan Buxoro amiri Nuh ibn Mansur o'rtalarida bunday muloqot bo'lib o'tdi:

- Siz – dedi amir, - bizga yaxshi xizmat qildingiz. Buning evaziga qanday mukofot istarsiz? Agar xohlasangiz Buxoroi sharif yaqinidagi qishloqlardan ko'nglingiz tilaganini sizga ato etaylik. Yoki shaharda o'zingizga yarasha ko'rkan bir imorat bino etib beraylik. Agar oltin-kumush desangiz bo'yingizga barobar sochamiz.

Husayn Buxoro amiri davlati xazinalarining uzoq yillar davomida beshafqat yig'ilgan soliqlar va atrof yurtlarini talash hisobiga to'lib-toshib ketganini yaxshi bilar va amirning aytganlari osonlikcha amalga oshmog'iga ishonar edi.

- Amir hazratlarining marhamatlaridan benihoyat minnatdormen,- dedi yosh tabib. – Sizdan bir o'tinchim bor, agar ruxsati oliy bo'lsa izhor etsam.

- Aytingiz.

- Alhamdurilloh, yashamoqqa tayin joyim bor, qilgan mehnatim evaziga kunim o'tib turipdi. Bo'y barabar oltin-kumush menga ortiqchadir. Ammo agar bir xazinangizdan to'la istifoda etishga ruxsat bo'lsa bu katta mukofot bo'lган bo'lar edi.

-Qaysi biridan ? – qiziqib so'radi amir.

-Kutubxonadan,- dedi Husayn.–Bu kitoblar xazinasining boyligi ko'pchilikka ayon.Ammo undan foydalanmoqqa kam odam musharraf bo'lgan.Agar kutubxonangizda mutola qilmoqqa ruxsati oliy berilsa men uchun bu g'oyat oliy ehson bo'lur edi.

Amir ruxsat qildi.Shundan so'ng Husayn amirning mulozimi bilan kutubxona sari ravona bo'lgan edi.

Maqsud Qoriyev. G`aznaviylar."Sharq" nashriyoti. T.: 2006. 255-bet. 35-39 betlar.(Asarda tasvir etilgan voqealar o`zbek xalqi tarixining X-XI asrlariga oid bo`lib, o`z davrida katta mavqega ega bo`lgan, o`zbek davlatchiligi shonli sahifalaridan birini tashkil etgan G`aznaviylar sulolasini haqida. Sulton Mahmud ilm-fan, san`at va adabiyot ahliga homiylik qilgan, ularga yaxshigina maosh tayin etib, saroydan joy bergen hukumdordir. Yana yozuvchi Maqsud Qoriyevning ikkita tarixiy asari bor. Bular: "Spitamen" va "Ibn Sino" nomli asarlardir.Quyida "G`aznaviylar" badiiy tarixiy asaridan namuna keltiramiz:

Mo`ltondagi jang

Sulton Muhammad shunday qudatli harbiy kuchga ega ediki, uning son-sanoqsiz jangavor tayyorgarlikdan o'tgan turkiylar, forsiylar, g'o'riylar,

daylamiylar, xullas, turli millat, el-qavm, urug'lardan tashkil topgan lashkarlari o'ttizdan ortiq jang qilish hunarini egallagan jangariy g'oziylardan iborat edi.

Sulton Rojaning haqoratli qilmishiga g'azabi qo'zg'agab ketdi, keyin "Unga borib aytinglar, agar mard bo'lsa, o'zi maydonga chiqsun", deb yana javobnomal yubordi.

Xullas, endi qattiq jang bo'ladi. Agar Rojaning o'zi maydonga tushsa, unda pahlavon Mahmud uni yaxshilab adabini berib qo'yadi. Chunki Sulton Mahmud sohibqiron shunday mahoratlari jangchi ediki, shu damgacha hech kim uning yelkasini yerga tegiza olmagan. Shunisi qiziq bo'ldiki, Raj Kapor taslimnomal olib borgan jangchining qulogq-burunlarini kesib azoblagandan so'ng, "Sultoningga borib ayt, biz u o'yagan qo'rqlardan emasmiz", debdi. Shundan so'ng jang kunini ham berlgilabdi.

Yuz-qo'zlar qonga bo'yalgan elchi Sulton Mahmud qarorgog'iga kirib kelganda uning teppa sochi tikka bo'lib, bu odobsizlikmi yo nomardlikmi, bilolmay qoldi. Kimsan, jahongir Sulton Mahmud G'aznaviyga nisbatan qilingan o'ta hurmatsizlik uchun g'azab-nafrati oshib, endi iloji bo'lsa shu damdan boshlab shaharga hujum boshlashga ham tayyor. Ammo Sulton sohibqiron o'zini bosdi. Bunaqa vaqtda hammayoqni o'ylab, maslahat bilan ish tutmoq darkor! Qiziqkonlik qilish ketmaydi. Otasi Sabuktegning pandu nasihatlari yodiga tushdi: "Muhoraba chog'ida qiziqkonlik qilmoq mag'lubiyatga olib kelur. Aql-zakovat bilan, hammayoqni o'ylab, dushmanning imkoniyatlarini hisobga olib ish tutmoq darkor".

Hufton namozidan so'ng Sulton qarorgohiga barcha sarkardalar jam bo'lishdi. Unda ertaga bo'ladigan jang rejalar haqida so'z bordi. Filbonlarga alohida topshiriqlar berildi.

Erta tong bilan yog'iylar yuragiga vahima solish uchun fillarga yuklangan nog'oralarni chalib, so'ng otash va o'q otuvlarga old qo'shinga joylab, keyin qat'iy hujumga o'tmoq darkor. Reja shunday.

Agar hindlar jangovar fillarini muhorabaga chiqarsalar, otash otuvchilar fillarni qo'rquvga solish uchun barcha narsalarni shaylab qo'yishlari lozim bo'ladi.

Turkiy qo'shinlar sardori Muhammad Damirxon pahlavonning maxsus qismlari Sulton Mahmud bilan yonma-yon, yelkama-elka jangga tushadilar. Shu bilan birga har bir bo'linma sarkardalariga qat'iy topshiriqlar berildi. Yig'in tugagach, hamma chiqib ketdi.

Sulton Mahmud vaziri Amir Hasan bilan yolg'iz qoldi. Endi odatga ko'ra yana bir asosiy masala hal etilmog'i kerak. Olingan xabarlargal ko'ra Mo'lton rojasining xazinasida boyliklar oshib-toshib yotibdi. Oltin-kumush tangalaru zeb-ziynatlar behisob, degan ma'lumotlar bor. Buni Sulton ayg'oqchilarini

allaqachon bilib olishgan. O'sha o'ljalarni ehtiyotlab, talon-taroj etilishiga yo'l qo'ymasdan olib ketish va qo'lga olingan boyliklarni ehtiyotlab saqlash masalasida ham ikkovlon bu ishga mutasaddiy bo'lgan, ishonchli kishilar haqida kelishib olishdi.

Nihoyat, jangu jadal boshlanadigan dam ham keldi.

Tibiljon sadolari yangradi, nog'ora shovqinidan osmon qa'rida notinchlik qo'zg'aldi. Churug'u sadosiyu lashkar haybatidan gardun gumbaziga zilzila turganday. Shu vaqt shahar darvozasi ochilib, zulukdek qora ot mingan hind rojasi Raj Kapor chiqib keldi. Atrofida jangovar lashkar boshliqlari, keyin son-sanoqsiz lashkarlar hayqirib-baqiriqlar bilan maydonga saf tortib turdilar.

Ko'pincha jang tafsilotlarini yozib yurg'uvchi shoir Asjadiy o'z bitiklarida bunday ta'riflaydi: "Sarkardayi zamon, amir Sulton Mahmud tulporlarini o'ynatib, maydon o'rtasiga tushibdi, so'ng hindlar rojasi Kaporga dedilar:

- Ey, sen nobakor, palid, qani, mard bo'lsang kuchingni ko'rsat, maydonga chiq. Ista sang taslim bo'l, hali ham kech emasdur, dehuda qon to'kilmasun.

- Ko'p chirana berma, sendakangi kelgindilarni ko'p ko'rganmen. Barchasi zarbimizga dosh berolmay, zo'r bazo'r qochib qutulgan. Sening taqdiring ham shunday bo'ladi! – dedi Roja.

- Nechun o'zingga shunchalik bino qo'yursankim, sen o'zing bir badbashara maxluq bo'lsang, - deb ot surib borib, boshiga paydar-pay qilich urgan erdilar, agar sipar tutib qolmaganida, zARBASIDAN ikkiga bo'linib, joni do'zaxga ravona bo'lur erdi.

Shunda paytdan foydalanib, ul ablax ham Sultonga qilich solgan erdi, Sulton Mahmud chaqqonlik bilan uni rad etib, yana qayta qilich soldilar, zARBNING kuchliligidan nomardning boshiga kulahi uchib ketdi. Sultonning jahli bo'g'ziga kelib, yana unga paydar-pay hamla qila ketdilar. Roja bo'lsa har safar hujumga chap berib, zo'r-bazo'r o'zini amirning kuchli zarbidan saqlab qolur erdi. Shunda Sulton Mahmud: "Qani otdan tush, qilichingni tashla!" deb, o'zлари ham mardonavor duldu llaridin tushib, qo'llaridagi quroollarini bir chekkaga tashladilar. Roja bo'lsa gavdasini lapanglatib zo'r-bazo'r otidan tushdi va paxlavon Mahmudga ro'baro' keldi.

- Sen xom sul emgan itvachcha, shunday semirib ketibdursankim, hatto jang qilishga ham yaramaydursen! Qani endi ko'rsat kuchingni!

Roja dedi:

- Ey sen, kelgindilar podshohi, hindlar eliga o'lim istab keldingmu? Bashara ngga bir qara, al vastiga o'xsharsen! Yoshligingda qo'tir bo'lgan misankim, senday xunuk maxluqni "Sulton" deb atadurlar. Qani, bir dodingni berib qo'yay! – deb, bor kuchi bilan u ham Sultonga tashlandi.

Ikkovlon bel olib uzoq kurashdilar. Shunda sohibqiron “Ollohi akbar” deb, g’animni belidan ko’tarib, yerga chunonam qattiq urdilarki, zarbning kuchliligidin mal’unning ikki oyog’i bir qarich yerga kirib ketdi. Maydonda saf tortib turgan ming-minglab G’azna lashkarlari ayyuxannos solib, qichqirib yubordilar. Dushman lashkarlari esa sukutda, go’yo damlari ichlariga tushib ketganday. Keyin Sulton Mahmud bir na’ra tortdilar-da, rojaning o’nglanib olishiga ham imkon bermay, xarifni yerdan sug’irib olib, yerga yana andoq zarb bilan urdilarki, uning qovurg’alarining qirsillashi butun maydonga eshitilganday bo’ldi.

Roja endi lat yeb ancha ojiz holatda tiz cho’kib Sultondan omonlik so’radi. Ammo podshohi olam unga rahm-shafqat etmay, yonlaridan o’tkir shamshirlarini olib, do’zaxiyning kallasini sapchadek uzib tashladilar. Ana endi rosmana jang boshlandi.

Ikki tomon lashkarlari chunonam jang qildilarki, go’yo osmoni zamindagi quyosh ham hayratdan bulutlarni yuziga parda etib olganday edi. Tig’u shamshirlar yaltirashidan maydon mash’allar bilan to’lib ketganday tuyular, ikki tomon lashkarlari shovqin-qiyqiriqlar bilan jang maydonida javlon urishar, ayovsiz, qattiq jang boshlangan edi. Har ikkala tomonning bahodirlari, dilovarlari bir-birlariga tashlanib, shunday jang qillardilarki, qonlar go’yo daryo-daryo bo’lib oqardi. Mayiblarning nolishlari, og’riqdan azob chekayotganlar, jon berayotganlarning so’nggi nidosi janggohga do’zax tusini berganday erdi. Maydon yuzasi o’liklarga to’lib ketdi. Ayniqsa, Sulton turk lashkarlari sardori Damirxon “g’azavot”chilari shunday mahoraba qildilarki, ular hujum qilganda, dushman saflari chok-chokidan so’qilib ketganday edi. Damirxon qayga hamla aylasa, hindlar uning zARBiga bardosh berolmay, qochishga yo’l tutar erdilar. Shu vaqt shahar darvozasidan yuzaga yaqin devsifat fillar pishqirib, dahshat bilan maydonga kirib kelaboshladilar. Har bir filning jussasi tog’dek baxaybat, qo’rqinchli edi. Olov-otash otuvchi jangariylar bunga oldindan shay bo’lib turgan erdilar, ular mash’allarni yoqib alohida tayyorlab qo’yilgan olovli koptoksimon yo’lalarni tepalikdan turib fillar ustiga yo’naltirdilar. Fillar qo’rquvdan bo’kirib, o’z lashkarlarini bosib-yanchib shahar darvozasi tomon qocha boshladilar. Buyoqdan Sultonning jangchi fillari ham maydonga kirib keldi. Endi jang shunday tus oldiki, oqibatda kun botgunga qadar hindlardan minglab jangchilar qirilib ketdilar. Alqissa, jangu jadal to tun qorong’usiga qadar davom etdi. Qorong’ulik bosishi bilan birdan tibiljang sadolari yangradi. Ikki tomon ham jangni to’xtatdilar.

Erta tong bilan darvozalar ochilib, shaharning obro`-e`tiborli kishilari Sulton Mahmud huzuriga omonlik, sulh istab tashrif buyurdilar. Amir alarming iltimosini qabul ayladi.

Nurali Qobul. Sultonning so`ngi kuni yohud Amir Sohibqiron va To`xtamish. Tarixiy roman. Kamalak nashriyoti.T.: 2014.576 bet. Mazkur asarda Amir Temur saxsi va Jaloliddin Mankburnining ko`tsatgan qahramonligi, mo`g`ul bosqinchilariga qarshi olib brogan ozodlik kurashi voqealari tasvirlangan. Muallifning yana ikkita tarixiy romanlari bor. Bular: “Buyuk turon amiri yohud aql va qilich” va “Yetti iqlim hoqoni yohud ahd va taxt” tarixiy romanlaridir. Mazkur asarlar ham badiiy tarixiy asarlar hisoblanib, xalqimiz tarixidan so`zlaydi. Asardan dars jarayonida mavzularni mustahkamlashda va o`quvchilarning mustaqil o`qishi uchun foydalanish mumkin.

-Biz ularni dunyo ko`rgan, o`zaro munosabatlarni anglyajak insonlar deb bilar edik. Demak yangilishgan ekanmiz! Dedi hayajon ichida taxtdan turib ketgan Chingizzon. Uning kulrang ko`zlari yonib ketgan, sarg`ish va zahil yuzi oqarib malla sochlari tushib turgan iyagini asabiy silar, bo`yi chodir shiftiga etgulik darajada uzun va bashaasi vajohatli edi.

-Biz ul qonni suyuq va o`pkasi yo`q itlar kabi ish tutmaymiz. Har bir ishni yaso-yo`sini bilan, qo`shnichilik munosabatlarirusumiga amal qilgan holda bajarmogimiz lozim! - dedi Chingizzon qaytib oltin taxtiga o`tirar ekan, sovuqqonlik bilan. - Elchi Kirroj Bug`rani xuzuiga chorla! – amr berdi ulug` qoon. – Sening vazifang bunday! – dedi elchi o`rmalab kelib oyog`ini o`pgach. Qo`shnimiz, ulug` qoon Alouddin huzuriga borasan. Biz ul kishini o`g`limiz kabi ko`rur erdik. Biroq orada ne anglashilmovchilik yuz beribdikim, u yurtda bizning davlat va mamlakat kishilari jonu moliga ziyon-zahmat yetibdi! Aybsiz elchi va savdogarlar o`ldirilibdi. Mening ul qoonga shartlarim bunday! Qatl sababchilarini jazolab, O`tror hokimi Inalchiqni mening huzurimga yuborsin! Shunda biz u bilan do`st va yaxshi qo`shni bo`lib qolaveramiz. Uning bir qarich yerida ko`zim qo`yligini ta`kidla!

- Bul qotillarning ustiga hoziroq qo`shin tortib bormoq kerak! – dedi otasining yonida o`tirgan o`g`li O`qtoy.

- O`qtoy to`g`ri aytadi! Ularni jazolamoq lozim! – qo`shildi Jo`chi.

Chingizzon ohista boshini o`ng tarafga burib, o`qillariga osmondan tushdilaringmi degandek qaradi.

- O`g`illar ne qadar ulug` kishilar ersalar-da, ota so`zini bo`lmaydilar, - dedi zaharxanda ovozda, jerkib. – O`z vaqtida va asosli e`lon etilmagan urush mag`lubiyat demakdir. Senlar otang soyasida doimo pishib yetilgan xar xil mevalarni yeb o`rgangansanlar. Hali boshingga tushganda ko`rasan. Ular mani bu chumolisifat chinlar yoxud naymanlar kabi emas. Shunga ko`ra ish yuritib, chora-tadbir ko`rmoq kerak!

- Cho`zimda ham adashib ketdim! Qayerda qolgan edim? – deya Chig`atoya yuzlandi Chingizzon.

- Inalchiqni bizga topshirsin degandingiz, - deya so'zini otasiga xotirladi Chig'atoy.

- Ha o'shal kishini bizga yuborsun! – takrorladi Chingizzon. – Yoningga ikki xos kishimizni olasan. Shamoldek uch ul tarafga, - deya o'ng qo'li bilan eshikni ko'rsatdi qoon.

Chingizzon yana elchi keganligini eshitgan Xorazmshoxning ensasi qotdi. Sen bitko'zlardan bo'lak tashvishim yo'qmi, o'yladi jahli chiqib.

- Ne istaysan? So'yla? – dedi u qarshisida tiz cho'kib turgan Kirroj Bug'raga yeb qo'ygudek qarab. – Qara, o'sha Chingizzon turk va musulmon bo'lganing uchun sena ishonmay yoningga ana u ikki chulchutini qo'shib yubordi. Senlar esa unga it kabi xizmat qilmoqdan charchamaysan!

Qo'rquvdan a'zoyi badani zir-zir titrayotgan elchi tili zo'rg'a aylanib, Chingizzxonning talablarini bayon etdi.

- Shunaqa degin. Juda aqlli odam ekan-a, u Chingizzon deganing! Naslnasabini tayini yo'q bu ko'ksiz va so'ysiy o'zini kim hisoblaydi? Qoraxitoylarning yugurdagi Kushluxon naymanni yenggani bilan u jahongir bo'lib qolibdimi? Sen musulmon bo'la turib, o'sha g'ayriddin kofirga hizmat qilganing uchun boshing tanangdan judo etiladi! Mana bu ikki ya'juj-ma'jujni esa soqollarini qirqib, qo'yib yuboringlar! Borib boshlig'iga aytsin! Bizning oramizdag'i bahsni qilich hal qiladi! O'trordagi qatlga men buyruq bergenman!

- Elchiga o'lim yo'q! – qo'llarini dast ko'tarib yana tiz cho'kdi Kirroj Bug'ra. – Rahm qiling, hazrati oliylari! Alhamdulilloh, musulmonman!

- Bor! Nafaqat elchiga, balkim sening ulug` qooningga ham o'lim bor! Unutma buni, itvachcha! Yo'qol qo'limdan! – hayqirdi Xorazmshoh,

- Unday qilmang shohim! Bola-chaqam bor! Men sizga yog'iy emasman! – ko'z yoshlarini oqizib yolvorardi elchi.

- Yo'qoting buni! Oq it, qora it, baribir itdir! – so'kindi Alouddin.

Jallodlar Kirroj Bug'roni sudrab chiqib, boshini kundaga yetkazdilar. Xorazmshoh ichida Chingizzon haqligini bilsada, uning talabini istamaganidan emas, eplay olmaganidan, qo'lidan kelmaganidan bajara olmas edi. O'tror hokimi Inalchiqxon onasi Turkon xotunning ukasi edi. Qipchoq sarkardalari bilan qavm-qarindosh edi. Xorazmshoh ikki dunyoda yurak yutib, uni Chingizzon qo'liga topshira olmasdi.

Xuddi ana shu damda, jallodlar Kirroj Bug'roni itning o'ligi kabi shoh ko'rinishxonasidan sudrab olib ketayotganlarida Jaloliddin ilk bor otasiga ochiq ravishda qarshi fikr bildirdi. Ohista yurib kelib, taxtda asabiy o'tirgan shoh otasining bezovta ko'zlariga tik qaradi. Alouddin Xorazmshoh bu kutilmagan o'tkir nigohdan o'zini yo'qotayozdi. Qo'zini olib ochdi.

- Ustma-ust xato qilmoqdamiz qiblagoh! –dedi titroq ovozda. – Davlatlararo munosabatlar taomiliga ko’ra, elchilarga nisbatan xush muomalada bo’lmog’imiz lozim. Fojeaning bosh aybdori Inalchiqxonni tutib, Chingizzxon qarorgohiga yubormoq lozim! Sibiriyadan Suriyagacha bo’lgan ulkan mamlakatdagi musulmonlarning qoni to’kilgandan ko’ra, bitta odamning qoni to’kilgani ma’qul emasmi? – dedi u qat’iy ohangda dangal.

O’g’lidan bu gapni kutmagan Xorazmshoh tebranib ketdi. Tunggi maishatdan qizargan qo’zlarini qarshisida tog’ kabi turgan odamdan olib, xona shifti va devorlariga qadar, ne deya javob bermoqqa aqli shoshgandi. Shoh xonadan Jaloliddindan boshqa barchanining chiqib ketishini buyurdi. O’g’lini o’ng tomonidagi kursiga o’tirishga imo qildi.

- Men ham sen kabi fikrladurman, o’g’lim, - dedi past va so’nik ovozda. – Biroq sen aqllisan. Vaziyatni tushunasan. Bizni o’rab turgan qangli va qipchoqlar so’g’ullardan besh battar vahshiy ekanligini bilmaysanmu? Mening oyoq-qo’lim bog’liqligini ham barchadin yaxshi bilursan. Sirtdagi dushmanidan ichdagisi dushman yomon. Bularni qanday qilib qo’lga solmoqqa aqlim yetmaydur.

- Yurtda podishoh, bitta bo’lmog’i lozim, ota! Naqadar aqlli va hurmatli bo’lmasinlar, bosh malikaning xatti-harakatlarini cheklandoq lozim. Inalchiq kabi ifloslar ul kishimga suyanib, ertaga barchamizni chiqib bo’lmas chohga itaradi! – javob qildi Jaloliddin o’sha ohangda.

Alouddin Muhammad Xorazmshoh indamay, bosh irg’adi. Negadir ko’zi yoshovladi. Jaloliddin esa shartta orqasiga burilib, chiqib ketdi.

...Sulton Jaloliddin asabiylashar, isyon ko’targan amiru lashkarboshilarni jazolayverib, u shahardan bu shaharga ot qo’yaverib holdan toygan edi. Yigirma minglik qo’shimim bilan gurjilarning oltmisht mingli lashkarini yenggandan ko’ra mo’g’ullar ustiga bosib borsam bo’lmasmidi? Oz sonli nasroniyalar ko’p sonli musulmon davlatlari orasida qayerga ham borar edi deya o’ylardi alam bilan. Islomni qabul qilmagan gurjilarni qatl etdirganim ham chakki bo’ldi. Oldimda mo’g’ullar kabi dahshatli yog’iy turganida ne dinda bo’lsa ham, orqamdagisi xalqlarni o’zimga dushman qilmasligim kerak edi. Ayubiylar mulkiga qilgan yurishim ham bir dushmanimni to’rt qildi. Ertami-kechmi bu xatolarning hisobini berishga to’g’ri kelsa kerak. Otamning o’lishini bilganimda edi, bir tovoq kepakka almashar edim degani shu ekan...

Xatolari ham orzulari kabi ro’yodek ko’rinayotgan sulton arosatda edi. U ayrim arab va eron hukmdorlarining qo’g’ullarni Sulton Jaloliddin hududlariga bostirib kirishga undayotganlarini sezgach, ko’ziga tevarak atrofini xoinu yog’iy, o’rgamchik to’ri kabi o’rab olgandek tuyuldi. Biroq u har qanday mag’lubiyat va omadsizlikdan so’ng, ham o’zini yo’qotmas, vujudida oqayotgan

bahodirlik qoni qaynab, uni yangi jasorat sari undardi. O'zi tushunib yetmagan holda og'ir daqiqalarda kuchiga kuch qo'shilardi.

Hamidulla Zayniddin. Mangu Qalqon. Tarixiy roman. “Meruyus”. T.: 2012.192bet. 126-128betlar. Mazkur asarda muallif jaloliddin Mangu berdining Vatan va xalq ozodligi yo`lidagi kurashini qalamga oladi. Tarixiy voqealarni yorqin badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Asarda Jaloliddin Manguberdi shaxsiyati: uning mardligi, to`g`ri so`zligi, mulohazali, bilimli va shijoatliligi, qattiyatligi kabi fazilatlari adiy tasvirlar orqali namoyon bo'ladi. **Quyida Mangu Qalqon tarixiy romanidan namuna ketiramiz:**

Ilojsiz qolgan mo'g'ul qo'mondonligi o'zining so'nggi chorasin qo'llashga, xiyla ishlatishga o'tdi. Ular kigizdan odam shaklini yasab, o'zlarining ehtiyyot uchun ajratib qo'ygan otlariga mingashtirdilar-da, Jaloliddining piyoda qo'shinlariga qarshi jangga kirdilar. Bu ayyorlik dastlab bir oz ish berganday bo'ldi. Jaloliddinning piyoda qo'shinlariga qarshi jangga kirdilar. Bu ayyorlik dastlab bir oz ish berganday bo'ldi. Jaloliddin qo'shinida: "Mo'g'ullarga madad kuchi yetib kelibdi", degan vahima ta'sirida parokandalik boshlandi. Ammo g'oyat sezgir va bilimdon Jaloliddin dushmanning nayrangini tezda payqadi. Bu dushmanning odatdagagi yana bir xiylasi ekanini uqtirib, askarlarga dalda berdi. Natijada qo'shin tezda o'zini o'nglab oldi. Jang qizib ketgan bir paytda harbiy nog'oralar ishga tushdi, qasoskorlar karnay va burg'ularning sadosi ostida suvoriy bo'lib yov ustiga bo'ronday yopirildi. To'qnash kelib, bir-biriga aralash-quralash bo'lib ketgan har ikki tomon qo'shnlari Parvon ostonasidagi jang maydoniga sig'may qoldi. Ko'tarilgan chang-to'zondan kun yuzi ham xira tortdi. Egasiz kishnab-pishqirgan otlar u yoqdan-bu yoqqa zir chopishar, ingrashar, dahshatli xayqiriqlar uzoq-uzoqlardan eshitilib turardi. Dengizday chaqalgan bu jangda juda ko'p qon to'kilib, goh u tomonning, goh bu tomonning qo'li baland kelib turdi. Urushning eng dolzarb pallasida Jaloliddinning jovong'origa yetakchilik qilgan Sayfiddin Ag'roq raqib tomonning borong'orini dast uloqtirib tashlab, dushman qo'shining orqasiga yashinday shiddat bilan yorib kirdi va ketma-ket qo'shinini esankiratib, tang ahvolga solib qo'ydi. Jaloliddin o'zining butun e'tiborini hujum sur'atini zarracha ham susaytmaslik, dushmanni ko'z ochirmaslika, yana nafasini rostlab, o'zini o'nglab olishga mutloq imkon bermaslikka qaratdi. Xuddi shu paytda kelgan Jaloliddin ishorasi bilan oldindan belgilab qo'yilgan va fursat kutib turgan sarkadalardan Ixtiyoriddin Xorpusht hamda al-Hasanlarning pistirmadagi kuchli suvoriy qismlari dushman qo'shinlariga qarshi ikki biqindan to'satdan quyundek

tashlandilar.Buni ko'rgan mo'g'ul lashkarboshilarining yalpi hujumkorlik g'ayratlari ham yanada birmuncha susaydi.

Ikkinchi kuni davom etgan mislsiz janglar nihoyasida tashabbusni o'z qo'liga olgan Jaloliddin Manguberdi qo'shinlari zo'r g'ayrat hamda chaqqonlik bilan ish ko'rib, ko'rib, holdan toygan dushmanni qurshab oldilar. Chingizzxonning shu paytgacha mag'lubiyat nima ekanini bilmay kelgan yirik lashkarboshisi, ayyor va ehtiyotkor Shiki Xututu no'yon o'z qo'shinlarining batamom o'rab olinayotganini va ish shu tarzda kechadigan bo'lsa, taqdiri ham ayanchli hal bo'lishligini ko'rgach, qolgan fursatni g'animat bilib bor-yo'qlarini g'oliblar ixtiyoriga tashlagan ko'yi askarlarining tirik qolgan qismi bilan qocha boshladi. Buni ko'rgan Jaloliddin va uning ruhlangan qo'shinlari o'zlarining xali charchab ulgurmagan baquvvat otlarida dushmanni osongina quvib yetar va xuddi bug'doy o'rgandek ayovsiz qirardi...

Jang nog'oralarining ovozi shu kuni kechga tomon borib tindi. Dushmanning qadami bu yerlardan butkul uzilgandi.

Parvon ostonalarida bo'lib o'tgan eng katta urushlardan keyingi erta kuz oqshomi edi. Jaloliddin borgohi oldida g'oliblar bir necha kunlar davomida bayram, olamshumul zafar tantanalarini qildilar. Tantanalar kechalari ham son-sanoqsiz gulhanlar, mash'allar yorug'ida davom etdi. Qasoskor jangchilar asir olingan mo'g'ullarga shafqat qilmadilar.Ularni turli qyinoqlarga solib,bitta qo'ymay o'ldirib o'ch oldilar.

Mo'g'ullarning benihoyat katta kuchlari ustidan g'olib chiqqan dovyurak bahodirlarning dovrug'i shamoldek tez yelib, mamlakatning hammayog'iga, hatto undan ham olis o'lkalargacha tarqaldi. Ammo ming afsuski, ters kelgan zamona zayli bilan davomli g'alabani mustahkamlash Jaloliddinga nasib qilmadi. Jangdan so'ng umumqo'shin boshliqlari orasida o'zaro nizolar boshlandi. Sarkarda bu ixtiloflarni bosa olmadi. Natijada Jaloliddin qo'shining talay ko'p qismidan ajralib qoldi. Arzimagan nizolarning oqibati ana shu tariqa ulkan yo'qotishlarga sabab bo'ldi...

Jaloddin o`ljalarni ularshayotganda bir tulpor uchun ikki sarkarda A`zamxon Malik va SayfiddinAg`roq o`rtasida mojaro boshlandi. A`zamxon Malik Sayfiddinning yuziga qamchi tortdi. Sayfiddin odamlari undan achchiqlandilar

Keyingi yurushlar shuning oqibatida susayib, adavat, birlashmaslik og`rir oqibatlarga, ya`ni bo`linishga olib keldi.Bu hol uzoq davom etishi tayin bo`lib qoldi. Alqisa, bo`linganni bo`ri yeyishi tayin bo`lib qoldi.

Fursat o`tmay, ularning har ikkisi Chingizzon qo'shinlari bir tomoni boshi berk maydonda o'rab oldilar va yanchib tashladilar. Alqisa, boy berilgan o`lja ikki hissa qilib qaytarib olingan edi.

Asad Dilmurod. Mahmud Tarobiy. Tarixiy roman. T. "Sharq". 1998. –304b (276-277-betlar). Asarda bahorir Mahmud Tarobiy ruhiy dunyosini teran tahlil qilgan holda , o`sha davr murakkab hayotini, mo`g`ul bosqinchilarga qarshi e`lon qilingan gazavot hurlik iymon-e`tiqod kurashiga aylanganini haqqoniy tasvirlaydi.

Nigohdag'i og'riq va Armon¹

Ittifoq, Chig'atoy qo'nalg'asida oyog'i kuygan tovuqdek tipirsilab turarkan, saman otli, pahlavon kelbatli, na'rasi yeru ko'kni titratayotgan qora soqolli yigitga razm soldi, yigit nayzadorlar xalqasini bepisandlik bilan uzib tashlaganini ko'rib, ichini hasadga o'xhash narsa kemirdi.

- Janobi noib, anovi yovvoyi kim? – dedi Chig'atoy o'ljasidan ajralgan qoplondek xo'mrayib. – Tanimaysizmi?

- Mahmud Torobiy shul erur, adashmasam, - ming'irladi noib.

Chig'atoy jahongir otasi bola-baqrasi va haramini cho'ktirgan, so'ngra o'zi quturib oqayotgan daryoga tikkasiga ot solgan sulton Jaloliddin Manguberdini qanchalar olqishlaganini hali-hali yaxshi eslaydi. Mana bu gapi qulog'iga sirg'adek tiqilib qolgan: "Sarkardang kiroyi shundoq bo'lsa! Bunaqasi bilan hech qachon xorlik yutmaysan!" Hozir, ichidan qirindi o'tayotganda o'sha tahsin va e'tirofni tag'in xotirladi. Qo'sh qilich bilan barovar chopqilashayotgan Mahmud Torobiya bir havas, bir hasad bilan tikildi. Aftini burushtirib g'udrandiki: "Tangriga qasamki, bu inson otam belini sindirayozgan Jaloliddindan aslo qolishmagay!"

Ancha xayol surib qolgan Chig'atoy noibga yuzlandi:

- Janob, bunaqa sardori bor lashkar aslo tiz cho'kmaydi, uni tezroq gumdon qilish kerak!

- Xoqonim, xotirjam bo'lsinlar, iloji o'ylangan. Alovxon Yusuf yoki Aliakbar o'qi uni omon qo'ymas! – sovuq iljaydi Mahmud yalavoch, ikkala qo'lini ham ko'ksiga bosib.

Nechukkim, to'rsayib olgan Chig'atoy g'ashligi tarqamadi, qo'shin shaxti pasayib, safda parokandalik yuzaga kela boshlaganini sezgan edi. Har gal qulog'iga Mahmud Torobiy hayqirig'i chalinganda u bir seskanar, a'zoyi badaniga allatovur karaxlik yugurardi.Yo tavba, kimsan sohibqiron Chingizning dovruq taratgan o'g'li Chig'atoy kelib-kelib bir avboshdan, nojinsu noqobil devonadan yengilsa-ya! Aslo kechirib bo'lmaydigan bu hodisot peshonasiga tavqi la'nat tamg'asi kabi bosilmaydimi? Bu kulfat kelgusi nasllar uchun noshudu notavon deb tahqirlashlari uchun asos bo'lmaydimi, yo rabbiy!..

¹ Asad Dilmurod. Mahmud Tarobiy. Tarixiy roman. T. "Sharq". 1998. 276-277-betlar.

4. XIV- XVI asrning birinchi yarmiga oid badiiy tarixiy asarlar.

XIV asr o`rtalariga kelib Movarounahrda feodal tarqoqlik kuchaydi. 1370 yili Amir Temur oliv hokimiyatni qo`lga oldi. O`rta asrlarda o`zbek xalqi davlatchiligi tarixida turli sulolalarning yirik davlatlari vujudga keldi. Ushbu jarayonlarning yangi bosqichi Amir Temur davlati bilan bog`liq bo`lib, markazlashgan davlatda iqtisodiy hayot, madaniyat, ilm-fan yuksak darajada rivoj topdi. Temur hayotligida uning imperiyasi to`rt qismga bo`lingan edi. Temur vafotidan keyin uning avlodlari Shohruh (1409 – 1447), Abu Said, (1451 – 1469), Ulug`bek, Husayin Boyqaro (1470-1506) davrida bir muncha osoyishtalik qaror topdi, ilm – fan rivojlandi.

XIV- XVI asrlar davri tarixiga bag`ishlangan, ayniqsa, Shayboniyalar, Ashtarxoniyalar, Mang`itlar hukumronligi tarixi oid qator ilmiy asarlar yaratilgan. Shu davr tarixini o`rganishda qator ilmiy tarixiy manbalar qatorida badiiy tarixiy adabiyotlar ham yaratilganki,, ulardan dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtarda foydalanish mumkin. Shular asarlardan foydalanish haqida mulohaza yuritamiz:

Bo`riboy Axmedov. Amir Temur. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 1995. 640 bet.551-553 betlar.

Olamning ahvoli Parvardigormning qudrat va irodasiga bog`liq. Bunga boshqa hech kim aralashmolmaydi. Lekin insof va rostlik yuzasidan shuni aytish kerakki, Siz o`zingizga o`zingiz qildingiz, ko`p bor haddingizdan oshdingiz va bizni kina-kudurat tutish va hatto intiqom kuyiga kirishimizga majbur etdingiz. Bu diyorda kofirlarning fitna-fasodi ortib ketdi, lekin bunga svabertoqat qildik va Siz birlan musulmonlik va xushandishalik maqomida turib, murosayi madorag'a bordik. O`yladikki, nasixatlarimizni qabul qilib, tobe'lilik va bo`ysunish eshiklarini ocharsiz. Shunda mol-dunyogami yoki lashkargami ehtiyoj sezsangiz yordam bermoqchi bo`ldik, toki jihod tig'i birdan islom mamlakatlari ichida va tevaragingizdag shirk va bedinlarni tugatgaysiz. Va yana iltimos qildikki, Qimoh va Tahartanga tegishli yerlarni qaytarib bersangiz va Qora Yusuf turkmanni mamlakatdin chiqarib yuborsangiz, deb. Ishonchli odamlaringizni yuborsangiz, toki oramizni ahdu paymon birlan kelishtirsalar, deb. Lokin bunga yo`l bermadingiz va itoat hamda bo`ysunishdin bo`yin tovladingiz. Natijada ikki o`rtada kelishmovchilik paydo bo`ldi. Agar buning

aksi bo'lg'onda, yaratgan egam bizga bergen shavkat va qudrat Sizning ilgingizda bo'lur erdi. Lashkarimiz ayni shu paytda mamlakatingizda turibdur, lokin xotiringiz jam bo'lsinkim, alar fuqarolaringizga yaxshilikdin boshqa nimarsani qilmaydurlar.

Boyazid Yildirim qilib qo'yg'on ishidin pushaymon bo'ldi va xijolat chekib dedi:

- Bu yo'lida xato qildim, hazrat sohibqironning so'zlariga kirmaganimning jazosini tortib turibmen. Agar afv etsalar, gunohimdin o'tsalar, o'zimiz va farzandlarimiz to tirik erkanmiz tobelik va xizmatkorlik chizig'idin tashqarig'a chiqmagaymiz.

Qaysarning bu javobidin hazrat sohibqiron xursand bo'ldilar va uni shohlik libosi bilan siyladilar va unga podshohona navozishlar ko'rsatdilar. Qaysar uning yaxshi xulqi va xorik odatini mushohada etib, taajjub barmog'ini tishladi. So'ng duoyi-fotihadan keyin undan iltimos qildi:

- Farzandlarimiz Muso birlan Mustafo urush paytida biz birlan birga erdilar. Alardin xavotirdamiz. Buyursangiz alarni surishtirishsalar, agar tirik bo'lsalar, bandaning huzurig'a olib kelishsa...

Hazrat sohibqiron amr qildilar va tavochilar o'sha zahotiyoy qidirishga tutindilar va bir-ikki kundan so'ng Musoni topib hazrat sohibqironning huzuriga keltirdilar. Amir Temur unga podshohona marhamat ko'rsatib, xos chopon birlan siyladilar va otasining oldida jo'natib yubordilar. Va yana uning o'ziga humoyun o'rdu qarshisida alohida podshohona chodir tikib berishlarini buyurdilar va Xasan barlos birlan Boyazid Chimyoniyga "aning hol-ahvoldin xabar olib turinglar!" – dedilar...

Boyazid Yildirim o'g'li birlan bir necha kun humoyun o'rduda mehmon bo'lib turdi. So'ng hazrat sohibqiron Rum mamlakatini Boyazidxonning inonixtiyoriga topshirib, jo'natib yubordi. Lekin u, Sharafiddin Ali Yazdiy aytganday, dildan qilmishlariga pushaymon yeb, tavba-tazarru' qilmadi. Bir umr birovga bosh egmagan, aksincha, man-man degan podshohlarni tiz cho'ktirib, oyoqlarini o'ptirgan bu mutakabbir odamdan buni kutish amri-mahol, albatta. U faqat qismatiga achindi va alami ichida qoldi. Amir Temur esa oljanoblik qilib uni qo'yib yubordi. U bo'lsa: "Omon bo'lsak ko'rurmiz sening ham holingni", -dedi ichida. Xullasi kalom, Boyazidxon o'shanda poytaxt shahar Bursaga bormadi. Oq shaharda turg'un bo'ldi va marhum Shayx Mahmud Xayron xonaqosida kun kechirdi. Lekin u bu yerda hammasi bo'lib to'qqiz oyga yaqin yashadi. Toju taxt dardi va mag'lubiyat alami uni ich-ichidan kemirib ado qildi. Boyazid Yildirim o'sha yerda hijriy 805 yil sha'bon oyining o'n to'rtinchisi, payshanba kuni (1403 yil 8 mart) vafot etdi. O'zining vasiyatiga ko'ra, uni piri Shayx Mahmud Xayron mozoriga dafn etdilar.

Hazrat sohibqiron Boyazid Yildirimning vafotini eshitib ich-ichidan achindi va hatto obi diyda ham qilib oldilar. So'ng gavhar sochuvchi tillarini Qur'on tilovat qilishga ochdilar. Lekin bu bilan kifoyalanib qolmadilar. Izhor ta'ziya uchun ertasi kuni Oq shaharga qarab jo'nadilar. Lekin shaharga yaqinlashganda amirzoda Muhammad Sulton huzuridan mudxish bir xabar bilan amir Donoxo'ja keldi. U amirzoda qattiq og'rib qolgani, mavlono Farrux tabib qancha sa'y-harakat ko'rsatmasin, foydasi bo'lmayotganini xabar qildi. Hazrat sohibqiron bag'oyat tashvishda qoldi. Lekin shu zahotiyoq chopar bilan bemor huzuriga jo'namadi, chunki ta'ziyani orqaga surgisi kelmadni. Donoxo'jani ikki otliq bilan orqasiga qaytardi va amirzodaning ahvoli haqida uni tez-tez xabardor qilib turishni buyurdi. Cho'ng shaharga kirib, Boyazid Yildirimning bolalari, qarindosh va yaqinlariga chuqur ta'ziya bildirdi. Ularga podshohona siylash va navozishlar ko'rgizdi, ularning har biriga zardo'ziy chopon kiygizdi, o'g'li Musoga esa xos xal'at, murassa' kamar, shamshir va yuz bosh nasldor ot in'om etib, Bursa va Rum mamlakatini unga topshirdi. Bu xaqda ol-tamg'a bosilgan maxsus yorlig' ham berildi unga. So'ng Musoga "Otangizning muqaddas xokini sultonlarga xos izzat-ikrom bilan Bursaga olib borib, tirikligida o'zi qudirib qo'ygan oliy imoratga dafn ettiring", deb aytdi.

Butun Ovruponi o'n uch yil mobaynida titratib kelgan, g'olibona yurishlari va har qanday dushmani chaqmoq bo'lib yondirib kelgan va shu bois Yildirim Boyazid (shiddatli Boyazid, chaqmoqday Boyazid) nomi bilan shuhrat qozongan buyuk bir podshoh birdan o'chdi-ketdi. U endi qirq uch yoshga yetgan edi...

Muhammad Ali. Sarbadorlar. G`ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.T.:1997. 560 bet. (450-458 betlar)

Chinos yonidagi g'alabadan so'ng havolangan Jeta qo'shini, mamlakat hukmdori Amir Husaynning yurtini tashlab qochganidan xabardor edi, shu sababli shoshilmay mamlakat ichkarisiga qarab yudi. Ilyosxo'ja qo'shini yo'llarda qo'nib hordiq oldi, Zomin bilan Jizzaxni taladi, odamlarini qul qilib Mo'g'ulistonga jo'natdi. Ilyosxo'ja hech qayerda qarshilikka uchradamni, aslida bunday to'siq bo'lishini xayoliga ham keltirmasdi. Oldinda Samarqand turardi. Jeta xoni yaxshi biladi, Samarqandning shimoliy darvozalari bobokaloni Cpingizzon bosqini zamonida buzib tashlangan, shahar hozirda qo'rg'on bilan durust o'ralmagan, unga kirish bag'oyat osondir. Turkistonning bosh qal'asi olingach, Shahrисабз, Qarshi, Solisaroysa, undan Balxga o'tadir. Temurbek bilan alohida hisob-kitob bor, Amir Xusayn bilan esa alohida...

Jeta qo'shini Samarqandning Holvachilar ko'chasiga choshgoh paytida kirib keldi. Shahar sokin, go'yo hamma ko'chib ketganday tuyuladi. Chorsu

maydoniga olib boradigan Holvachilar ko'chasi ochiq qoldirilgan, qandolat rastalari bo'sh, odam zoti ko'rmasdi. Ur-ho-ur solib qiyqirib borayotgan dushman qo'shini Chorsu maydoniga chiqay degan yerda ulkan to'siqqa duch keldi. Ko'cha mustahkam chep bilan berkitilgandi. To'silib qolgan otlar kishnashib bir-biriga xalaqit bera boshladi, orqadan kelayotgan jangchilar esa oldinda ko'chaband borligidan bexabar otlariga qamchi bosardilar. Bir farsaxcha masofada tiqin hosil bo'ldi, hech kim hech qayoqqa qimirlay olmasdi.

Shu payt Chorsu tomonidan kuchli dovul sasi eshitildi. Samarqand mudofaasi boshlandi. Birinchi bo'lib ko'chaning oxirigacha chep "til"ga kirdi, dushman ustiga o'qlar yomg'iri yog'ildi. Bandni Mavlonozoda boshliq sarbadorlar qo'shining ilg'or qismi qo'riqlab turardi. Mavlonozoda kavinani olib dashmandan birini – tolbi ilm nazarida o'sha askarlarga buyruq berib turibdi, boshiga bo'rk qo'ndirgan,sovutga o'ralgan otliq badjahl mo'g'ul lashkarboshi bo'lsa kerak – shinakdan turib nishonga oldi. Bu palla lashkarboshi ortiga o'girildi, yurakka mo'ljallangan o'q uning kuragiga tegib otdan qulab tushdi.

- Yog'inga it o'limi! – qichqirdi Mavlonozoda

Na'rali sadolarga sadolar ulandi.

- It o'limi!

- Ur-ho-ur!

Hamma shinaklardan o'qlar otila boshladi. Jahongir ham katta shijoat ko'rsatdi. Xiyla mergan ekan, Mavlonozoda unga tan berdi, o'qi xato ketgani yo'q. Ammo o'zini ehtiyotsizroq tutardi. Yosh-da... Birdan boshni ko'tarmaslik haqida buyruq bo'lsa ham, savash qizig'ida u bilmay yotgan joyidan turib ketdi. Otlarning kishnashi, qilichlarning jarangi, suron ostida hech kim hech narsa eshitmasdi. Mavlonozoda shitob emaklab borib Jahongirning qo'lidan shart tortdi-da, yerga yotqizdi:

- Nima qilyapsen?! Esing joyidamu?! Boshing ketadi-ku, nodon!

- Ana bu yog'iyni ko'ring! Bandga tirmashib chiqmakchi bo'ladir! O'shani tepadanoq saranjom qilmoqchiydim! – chiqqirdi Jahongir.

Chiqsin, bandga chiqsin! Qo'yaver! Chiqadi-yu, boshi oyog'imizning tagiga tushadir, o'zga yo'l yo'q! O'limiga chiqadir, battol o'limiga! – Halloslardi Mavlonozoda. – Bilib qo'y! Temir qoidani buzsang, boshing ketadir, ha!

Mo'g'ullar endi zarba qaysi tomondan kelayotganini bilib qolishdi. Ular shinaklarni mo'ljallab kamondan o'q ota boshlashdi. Halimqul shahna birdan yonidagi Sohib Changalning shilq etib yiqilganini ko'rib qoldi. Daydi o'q shinakdan o'tib uning tomog'iga tegibdi. U til tortmay jon berdi. Halimqul shahna nayzani olib tashladi. Eroniy yigit Sohib Changalni yuzini qibлага qaratib yotqizib qo'ydi. Fursat yo'q, jang davom etardi.

Endi Qolvachilar ko'chasining ikki tomonidagi pusug'lar ishga tushdi. Sarbadorlar qo'shinining barong'ori Xo'rdak Buxoriy askarlari dushmanning chapidan, Axiy Jabbor boshliq javong'or qismi o'ngdan hujumga o'tdilar. Har ikkisi ham mo'g'ullarni ichkariga qo'yib yubordilar, dushman ilg'or qism bilan to'qnashgach, jangga kirishlari lozim edi. Dushmanga ikki qanotdan, tomlardan nayza-o'qlar yog'ildi, quroli yo'q sarbadorlar mo'g'ullarni qora kaltak va toshbo'ron ostiga oldilar.

Ilyosxo'ja lashkarboshilaridan To'lan Bug'o butun qo'shinga baqirdi:

- Pistirmada qoldik! Yog'iy bizni bo'g'moqchi! Ortga! Ortga!

Turli tomondan qilingan hujum mo'g'ullarni shoshirib qo'ydi. Bunday qarshilik bo'lishini kutmagan dushman katakka tushgach yo'lbarsdek o'zini u yoqdan-du yoqqa ota boshladi.

"Ortga!", "Ortga!" degan ovozlar yog'iy safini parokanda qildi. Ertasiga qattiqroq savash qurishni dilga tukkan Jeta qo'shini ortga chekindi. Ikki mingga yaqin halok bo'lган mo'g'ul askari qo'chada qolib ketdi. Chekinayotgan qo'shinga hamla qilgan Xo'rdak Buxoriy bilan Axiy Jabbor askarlari yuzga yaqin jangchini asir oldilar, harbiy o'ljalar qo'lga tushdi.

Chorsu maydonida manzil qurban Abu Bakr Kalaviy qo'shin boshliqlarini to'pladi. Hammaning ruhiyati yashnagan, bili ravshan.

- Qattiq savash qurdingiz, ey fe'li o'tkirlar! – dedi sardor. – Birovning yurtiga bostirib kelgan g'animga adolatdan durust saboq berdingiz! Har kim o'z joyida bo'lsin, hordiq olib, chigilini yozsin. Illo jang tong bilan tiklanur. Musht yegan dushman qo'tosday qasoskordir. Xo'sh... judoliklar yuz berdimi?

Birinchi bo'lib Xurdak Buxoriy so'z oldi:

- Mening safimda o'n besh jigargo'shamiz olamdan ko'z yumdi. Tun sultanati fuqarolaridan besh nafar, tolibi ilmlardan to'rt nafar, g'ayridinlardan ikki nafar, kamongaronliklardan to'rt nafar...

- Yigirma nafar qarchig'ayimizdan ayrıldik... – hisobot berdi Axiy Jabbor.
– Naddoflardan to'rtta, holvachilardan beshta, qalandarlardan uchta, Tun sultanatidan beshta, tolibi ilmlardan ikkita, bitta gung yigit...

- Ellik nafar askarimiz halok bo'ldi.. –dedi Mavlonozoda.–Sohib Changaldan ayrilib qoldik... O'sh besh nafar tolibi lim, yigirma nafar Tun sultanati fuqarosi, to'qiz nafar kulollardan, qolganlari turli qavm kishilari edi...

Keyin o'ljalarni taqsim qilish boshlandi.

- Beshdan birini odatda hukmdor oladi, - Abu Bakr Kalaviy qo'shin boshliqlariga qaradi.– Ammo, fe'li yaxshilar, siz barchaga barobar taqsim aylangiz! Bu sarbadorlar rasm-rusumidir...

Mashvarat allamahalgacha davom etdi. So'ng qo'riqchilardan boshqa barcha uyquga ketdi... Faqatgina Abu Bakr Kalaviy uxlamadi. Maydonni aylanib

posbonlarni qo'zdan kechirdi. Mavlonozoda askarlari oldida Jag'ongir ham posbonlik qilayotgan ekan. Sarbadorlar sardori jang davomida hech kimga bildirmay qizidan baxobar bo'lib turdi. Hozir ham undan hol-ahvol so'rab qo'ygani o'sha yoqqa yurdi.

Cho'pon ota tepaligida chodir tikkan Jeta xoni Ilyosxo'ja ahvolni bilib, qattiq darg'azab bo'lidi:

- Saltanat hukmdori Amir Husayn, Temurbek qochib qolgan bo'lsa... Kimga qarshi ot surdingiz, ey Tulan Bug'o? Kimga qarshi ot surdingizu kimdan qochningiz? Bir payt sichqon deganimizga ko'nglingiz cho'kib ketgandi. Xe-xe-xe-xe! Kimsen, Jeta xonining To'lan Bug'oday lashkarboshisi qandaydir sarbador degan qalang'i-qasang'i, qo'sqi odamlardan qochib o'tiribdi. Endi bo'yingda bo'ladir!.. Tug'asen!! –Ilyosxo'ja oxirgi so'zlarini zug'um bilan aytdi.

Jangda yengilib ko'ziga dunyo tor bo'lган To'lan Bug'o oriyatning kuchliligidan bu gaplarga chidab turolmadi. Shartta qilichini sug'urib Ilyosxo'ja tomon otildi! Shunkum bahodir ko'pdan beri uning avzoini kuzatib turardi. To'lan Bug'o o'rnidan turishi bilanoq, yon tomonidan boshi aralash qilich soldi. Qilich To'lan Bug'oning o'ng yelkasining bo'ynidan ayirib qo'ydi.

- Dayus! – dedi To'lan Bug'o. U endi Shunkum bahodir tomon o'girildi va qadam qo'ymoqqa urindi. Shunkum bahodir hayiqib ortiga tislandi, yana qilich solmoqchi edi, ulgurmadi, To'lan Bug'o bir qadam bosdi-yu, gurs etib yiqildi...

Ilyosxo'ja taxtda jim kuzatib o'ltirardi. Bugungi mag'lubiyatning o'zi noxush edi, ammo To'lan Bug'oday bahodirdan ayrilishi unga bag'oyat og'ir botdi. Bu yaxshilik alomati emas!..

- Ertangi kun jangi jilovi Shunkum bahodirga tutqaziladur!

Xon boshqa so'z demadi.

Shundan so'ng hamma uyquga yotdi. Cho'pon ota tepasida barkashday oy chiqdi. G'ir-g'ir tungi shabada esa boshladi.

Georg Fridrix Gendel. Amir Temur."Yangi asr avlodii".T.: 118-bet.109-111-betlar.Tarixiy drama. (Mashhur nemis bastakori Georg Gendel 1724 yili opera yaratgan. Asarda Boyazidning asrga olinishi Amir Temurning Irinaga uylanishi, Andronik va Asteriyaning nikohlanishi va unga Yunonis-tonni tuhfa qilishi, mamlakatda tinchlik o'rnatishi masalasi yoritilgan)

So`ngi sahna

O`sha oldingilar, Asteriyadan tashqari .

Ohang (qiroat) bilan so`zlash

Irina:

Do`sstarim, tez boring izma-iz,

Sulton qizin g`amdan asrangiz!

Sohibqiron, o`tinaman, siz
 Bir qoshiq qonidan kechsangiz,
 Hayot ato qiling, afv eting,
 Sadoqatim haqqi hurmati!

Andronik:

Hojat bormi shavqatga bu dam-
 Sho`rlikni yeb bo`ldi butkul g`am.
 Yashash uchun kuch-mador yo`qdur,
 Umidsiz ishq va achchiq taqdir-
 Temur, meni majbur etmoqda
 (shamshirini chiqaradi)
 Seni laxta-laxta qilmoqqa.

Temurbek:

Bas, to`xta! Men ko`p mutaasir:
 Boyazidning o`limi-alam
 Va qizining kulfati og`ir, meni qiynar seni g`aming ham,
 Sendek do`sti vafodor uchun,
 Irina-ul sodiq yor uchun
 Asteriya aybidan kechgum,
 Hayot ato etgum uning – chun.

Irina:

Oh, naqadar karamli, mehrga to`la qalbing!

Temurbek:

Go`zalim Irina, sen yonimda qol.
 Toj-taxtni boshqarmoq kerakdir, alhol.
 (andronikka qarab)
 Sendek sadoqatli oshiqqa beshak-
 Asteriya va taxting qaytarilajak!

Andronik:

Bunday kutilmagan, shohona inom,
 Amirim men senga bo`laying`ulom.
 Umurbod asrandi o`g`ling bo`layin.

Temurbek:

Dushmanlikka bergancha barham
 Va qaytadan bo`lib do`st hamdam,
 Boshqaraylik tinch toju taxtni,
 Asrab bizga berilgan baxtni.

Duet

Temurbek va Andronik:

Gul-chechakka qaytsin burkanib
 Sokin hayot va sof muhabbat.
 Ishqning yal-yal cho`g`ida yonib,
 Kulga do`nsin g`nimlik abad.

Ohang (qiroat) bilan so`zlash

Temurbek:

Ana endi, g`olib malikam,
 Garchand aybim afv etilmasdир.
 Ruxsat eting, lekin shunda ham,
 Menga sizning mehringiz basdir.
 Ayting, Amir tavba qilsinmi,
 Chin yurakdan yo yalinsinmi.

Irina

Buyuk amir, sizdan sko`nglim to`q,
 Ko`p shohona bo`ldi ishq, qadr.
 Endi sizga etgancha qulluq,
 Cho`ri yohud rafiqqa bo`lib,
 Xizmatingiz qilay bir umr.

Yakuniy xor

Hamma:

Mudhish tunni uyaltirmoqqa-
 Munavvar tong chiqib kelmoqda,
 Go`zallikka shoshmoqda oftob.
 Tuyg`ular ko`p dunyoda, faqat
 Qalblardagi sevgi muhabbat-
 Eng yorqin, ilohiy, fayziyob.

Opera tamom bo`ldi.

Marsel Brion. “Menkim, Sohibqiron-Jahongir” Temur.T.: “Yangi asar avlodи”.2014.572bet. Fransuz yozuvchisining bu asari Amir Temur to`g`risida yozilgan asarlar orasida mukamalligi bilan ajralib turadi. Asarda Sohibqiron bobomiz shavsi haqida, uning hayoti, faoliyati, siyosiy va harbiy sohada tutgan yo`liga oid boy, xilma-xil ma`lumotlar keltiriladi.

Mening jarohatlangan qo`limdan tinmay qon oqmoqda edi. Ammo, buni sezmasdim.Ko`zlarim bir chekkada, tug`bardorlarni yonida turgan lashkarboshiga qadalgan – u To`xtamish edi, nazarimda. Uning To`xtamish ekanini ikki narsadan tusmollagandim: birinchisi – bayrog`ii; ikkinchisi - uning egnidagi jangovar libosi.

To`xtamishning murti va soqolini qirdirib yurishiga e'tibor qaratdim o'sha kuni. Keyinchalik bilsam, u mana shu odati bilan rumliklarga taqlid

qilar ekan. To'xtamish bilan mening oramizdagi masofa uni o'q bilan siylashim uchun kifoya qilardi. Ammo o'ng qo'lim harakatsiz bo'lgani sabab, men yoyning ipini torta olmasdim. Shuning uchun uni jangchilarimga ko'rsatib, unga tomon o'q uzishlarini buyurdim. To'xtamish ham meni ilg'ab qoldi...

Jang qilib turgan chog'im qanotlardagi ahvol qanday ekanini bilmasdim. Bir pas to'xtab voqeani kuzatgach,bildimki, mening ikki qanotim To'xtamishning qo'shinini tang ahvolga solib qo'yibdi. Ularning aksari yanchib tashlangan, qolgan qismi ham suvoriylarimiz hamlasiga dosh bera olmay chekinib bormoqda edi.

To'xtamish vaziyatni mendan ko'ra yaxshiroq bilardi. Shuning uchun ham uni o'ldirish yoki asir olish payida ekanimni payqab chekina boshladi. Chekinmasa bo'lmasligini anglatdi. Bir ozdan so'ng mening qanot jangchilarim o'z qo'shinining markaz qismini qurshab olishini anglatdi. To'xtamishning chekinishi bizning qanotlardagi g'alabamizdan dalolat edi. Shuning uchun men mayroqchilarim orqali, qanot sarkardalarimga belgi, ishora berib, tezroq To'xtamish qo'shinining markazini halqa qilib o'rab olishlarini tayinladim. Yana ham yaxshiroq tushuntirish uchun qanotlarga ikkita jangchimni yuborib, To'xtamishning markazdagi jangchilar orasida ekan, agar tezroq qurshab olsak, uni tezroq asir olishimiz yoki o'ldirish imkonimiz bo'lishini bildirdim. Chunki uni qo'ldan chiqarmaslik kerak edi. Mening qo'l ostimdag'i otliq jangchilar buyrug'imdan ruhlanib, dushmanning markaz qismiga bosib o'tkazib, hujumkorlikni kuchaytirdilar. Muvaffaqiyat bilan olg'a intildilar. Biroq biz qanchalik ilgarilab bormaylik, To'xtamish shuncha masofaga chekinardi. Oxir-oqibat uning chekinishlari qochish bilan yakun topdi. Uning atrofidagi suvoriylar ham ortga burilib, otlariga qamchi bosdilar. Men zaxiradagi suvoriylarimni safarbar etib, uning ortidan ta'qib etishni buyurdim. Shu yo'l bilan To'xtamishni to'xtatib qolmoqchi edim. Biroq biz bu ishni uddalay olmadik. U va uning yaqinlari g'oyib bo'lishga ulgurishdi.

To'xtamish qo'shinining markazida qattiq qarshilikka uchradik. Aynan mana shu kuch To'xtamish bilan bizning oramizga g'ov bo'ldi. Shularning xizmati bilan u qochishga va yashirinishga muvaffaq bo'ldi. Ular hukmdorlari qochib ketganini, jang taqdiri hal bo'lganini bilsalar ham qattiq turib qarshilik ko'rsatishda davom etishdi. Bunaqasi kamdan-kam hollarda bo'ladi. Aksar hollarda lashkarboshi o'lsa yoki qochib ketsa, qo'shining ruhi tushib, qo'li bo'shashib qoladi.

Garchi dushmanning jangovar tartibini parchalab tashlab, ikki qanotda ishonchli g'alabani qo'lga kiritgan bo'lsak ham, hali qanot jangchilarim dushmanning ortiga o'tib uni qurshab olishga muvaffaq bo'lishmagandi.

Sababi dushman piyodalari tartibsiz ravishda chekina borib, birdan o'zini o'nglab olar, so'ng keskin qarshilik ko'rsatishga o'tardi. Ayrim o'rnlarda esa bizning harbiy qo'shinlar, toki piyodalarni bitta qoldirmay qirmaguncha oldga bir qarich ham siljiy olmay qolgandilar.

Agar To'xtamish qo'rkoq bo'lmanida, agar qo'shinini jangga tayyorlash va qurollantirishga vaqt ajratib, yetarli e'tibor bergenida edi, biz uning qarshilagini yenga olmasdik. Zero, uning jangchilari o'sha jangda mardlik va matonat ko'rsatib, menda ana shunday tasavvur uyg'otdi. Qarang, bir qo'rkoq lashkarboshi yuz ming jangchining jangovar ahamiyatini yo'qqa chiqarishga qodir ekan. O'sha kuni To'xtamishning qochishi shunga yaqqol misol bo'ldi. Biz quyosh botgunga qadar jangni davom ettirdik va bu paytga kelib har ikkala qanot jangchilarim dushman ortida birlashib, unga ortdan zarba bera boshladi. To'xtamishning qo'shinidan qolgan-qutgan qismlar, tom ma'noda qurshovda qoldi.

Mening o'ng qo'limdan avvaliga qon oqishi to'xtamadi. Keyinroq qonga to'yinib, jarohatga yopishib qolgan yengim qon qishini to'xtatgan edi. Kech tushganiga, qurshovga qolganiga qaramay, dushman jangchilari keskin qarshilik ko'rsatishda davom etmoqda edi. Biz ulkan gulxandan qolgan mana shu mittigina cho'g'ni ham o'chirmay turib, to'liq g'alabaga erishdik, deya olmasdik.

Men jangchilarimga mash'alalar yoqib jang maydonini yoritishga buyruq berdim. Negaki qorong'ida yov askari deb, o'zimizning jangchilar o'zimiznikilarga zarba berishlari ham mumkin edi.

Men dushman bilan olishayotgan chog'im, og'riqni his etmagan edim. Jang oxirlab, endi janggohda turishimga zarurat yo'q, deb chiqqan edim hamki, jarohatim chidab bo'lmas darajada og'riy boshladi. Chamamda, qo'limning suyagiga jiddiy zarar yetgandek edi...

Men o'zim uchun chodir tikdirib, u yerda dam olishim mumkin edi, ammo jangning taqdiridan shu qadar bezovta edimki, tezroq uning muvaffaqiyatli yakunini ko'rishni xohlardim. Meni bezovta qilayotgan boshqa sabablar ham bor – shulardan biri To'xtamishning qochib ketishi bilan bog'liq. Axir men kabi o'z yurtidan ming farsangcha narida emas, o'z yerida jang qilayapti. Unda jangni davom ettirish, ustimizga yana qo'shin tortib kelish imkoniyati bor. Jangchilarning jon olib, jon berib olishishidan To'xtamish yangi kuchlar bilan yordamga yetib keladi, degan umidvorlikmi yoki ishonchmi bordek edi. Shuning uchun jangni ertalabgacha cho'zilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ehtimol, To'xtamish hozir yangidan qo'shin to'playotgandir!..

Biz imkon qadar ko'p mash'alalar yoqdik, jang maydonini yoritib turdik. O'sha kech dala oyning yigirma ikkinchi kechasi edi. Men o'sha kechani hayotimdag'i eng unutilmas damlardan biri deb hisoblayman. Qo'shin tabibi

uxlab, hordiq chiqarishim lozimligini ta'kidlab, menga og'riq qoldiruvchi dori ichirmoqchi bo'ldi. Ammo jang maydonida davom etayotgan olishuv bois men uxlay olmasdim. Men harbiy sarkardalarimga ishonar edim. Ularni mardonavor, jasur jangchilar sifatida qadrlar edim. Ammo hech qaysi birini aql-idrok va favqulodda xulosalar chiqarish bobida o'zimga tenglashtira olmasdim. Shuning uchun ham men dilimda, men yotib uxlasm-u, bular jangni davom ettirib turgan payt To'xtamish yordamchi kuch bilan kelib qolsa, qo'shinimni bitta qoldirmay qirib tashlaydi, degan hadik bor edi. Tunning birinchi yarmi o'tdi. Issig'im chiqib ketdi. Garchi uchtimga yopinchig'im bo'lsa ham tanamga qaltiloq kirdi. Uni bosish uchun tabib menga tinimsiz ko'k choy ichirib turdi. Bundan ichimga issiq kirib, butun vujudimga yoyildi – qaltiloq bosildi. Jang maydonida To'xtamish qo'shini jangchilarining baqiriq-chaqiriqlari xuddi yovvoyi hayvonlarning bo'kirig'i kabi qulog'imga chalinmoqda edi. Shuningdek, men harbiy sarkardalarimning: "Ur... o'ldir... tirik qolmasin!" degan ovozlarini ham muntazam eshitib turdim. Vaqtı-vaqtı bilan harbiy sarkardalarim huzurimga kelishar, vaziyat haqida ma'lumot berib ketishar edi. Sunda men ularning qanchalik mardonavor jang qilayotganliklarini yarim belgacha qonga bolanganliklaridan, hatto otlarining qip-qizil tusga kirganidan ko'rib turardim.

Jang yarim kechagacha davom etdi va bora-bora ovozlar eshitilmay qoldi. Demak, jang bizning foydamizga g'alaba bilan yakunlandi.

To'xtamish qo'shining qolgan-qutgan jangchilari mag'lubiyatni tan olib, ortiq qarshilik ko'rsatishdan naf yo'qligini anglab, taslim bo'ldilar. Ular orqali boshqalariga ham kim ixtiyoriy ravishda taslim bo'lsa, tirik qolishi haqidagi taklifimizni yetkazdik.

Poyon Ravshanov. Amir Temur sulolasi."Yangi asr avlodi". T.: 2014. 652 bet. (223-225 betlar).Poyon Ravshanov asosan tarixiy asarlar yaratish borasida qalam tebratadi.Asar qahramonlari obrazi tarbiyaviy juhatidan o`quvchini tarixiy haqqoniylilikda yashashga, fikr qilishga, Yurt fidoysi bo`lishga chorlaydi. Asarni o`qir ekansiz yozuvchi mahoratiga tan bermasdan iloj yo`q.

Hijriy 793 yilning rajab oyi dushanba kunida 1391 yil 18 iyunda Qunduzcha (Samaraga yaqin joy) degan mavzeda To'xtamishxon qo'nalg'asiga yetib boriladi. Sohibqiron barcha qo'shinlarini yetti qo'lga bo'ladi. O'ng qo'lga atoqli bahodirlar jalb etilib, uni boshqarish Mironshoh Mirzo chekiga tushadi. Mironshoh Mirzo qo'shini qarshida turgan son-sanoqsiz yov askarlariga lochindek tashlanadi. To'xtamishxon boshda Amir Temurga ro'baro' turgan bo'lsa, u bilan jangga kirishishdan hayiqib, Umarshayx Mirzo lashkari tomon buriladi. Umarshayx Mirzo yigitlari ham tayyor turganligini ko'rib, Shayx

Temur Sulduz mingligiga hujum boshlaydi. To'xtamishxonning qo'li ustun kela boshlagach, Umarshayx Mirzo yordamga tashlanadi. Yov lashkari orqaga o'tishga muvaffaq bo'ladi, bu xabar Amir Temurga yetadi va tezlik bilan muhoraba maydonida paydo bo'ladi. Sohibqironning ko'rinishi bilan dushman jangchilari to'm-taraqay bo'lib qocha boshlaydi. To'xtamishxon taxtidan, tojidan voz kechib, mamlakatidan mosuvo bo'lib, tahlika ostida qochishga tushadi. Shu jangda Jo'cha avlodidan bo'lgan, To'xtamishxon tarafida turib urushgan ikki shahzoda Amir Temur tomonga qochib o'tadi. Sohibqiron ularga katta himmat ko'rsatadi.

1391 yilning kuzida Dashti Qipchoqda porloq g'alabaga erishgan Sohibqiron Samarqandga qaytib keladi. Poytaxt bayram shodiyonasiga to'lgan edi. Bir necha kunlik oromdan so'ng, Mironshoh Mirzo o'ziga berilgan Xuroson o'lkasiga, Hirot shahriga ketishga ijozat oladi.

90-yillarda, Dashti Qipchoqqa va Mazondaronga qilingan yurishlarda ulug' g'alabalarga noil bo'lgan Sohibqiron, kenja o'g'li, 15 yoshga to'lgan Shohruh Mirzo bilan Mironshoh Mirzoning o'g'li Xalil Sultonni (8 yoshda), qizi Bekisi Sultonni (6 yoshda), Umarshayx Mirzoning o'g'li Rustam Mirzoni, qizining farzandi Sulton Xusaynlarni o'z qarorgohiga chorlaydi. Farzand va nabilarlar bilan Saroy Mulk Xonim, Tuman Og'o va boshqa ayollar hamroh bo'lib keladilar. Amir Temur vaqtı-vaqtı bilan avlod davomchilari bo'lgan yoshlar bilan uchrashib turgan, ularning tarbiyasiga, bilim olishiga, chiniqishiga katta e'tibor bergen. Boshqacha aytganda, Saroy Mulk Xonim, Tuman Og'olar tarbiyasida bo'lgan nabiralarini ham amaliy ko'rikdan o'tkarib, ularning zehnini, iqtidorini, qobiliyatini shaxsan sinab, muqavviylarga ko'rsatmalar bergen, qo'shinlar uning nazoratida qanday o'rin tutgan bo'lsa, avlod tarbiysi ham shunday muhim hisoblangan. Oila sha'nining bu tahlitda e'tiborda turishi taxt va sulola, davlat istiqboli uchun juda zarur edi. Amir Temur qizaloq nabiralariga alohida ehtiromda bo'lgan. Ayniqsa, Mironshoh Mirzoning Xonzoda Begimdan tug'ilgan qizchasi Bekisi Sultonga mehri ayricha edi Samarqandda qiz nabiralaridan faqat Bekisi Sultonga atab bog' va ko'shk bunyod ettiradi, uni nihoyatda yaxshi ko'radi.

Muarrix 1393 yilning saratoni boshlari haqida hikoya qilar ekan, Xamadonda turgan Sohibqironning Mironshoh Mirzoga Ozarbayjon, Ray, Darband, Boku, Shirvanat, G'ilonat kabi mulklarni to Rum sarhadlariga qadar bergenligini qayd etadi. Shahzoda otasi sharafiga Xamadonda katta to'y beradi, behisob tuhfalar peshkash etadi. Shu orada Soriq Muhammad Turkmon yovlik yo'liga kiradi. Mironshoh Mirzo uni daf etadi. Soriq qo'rg'on, Qurdu qo'rg'onlari ham zabit etiladi. Mironshoh Mirzoning xotini Xonzoda Begim shu g'alabalar sharafiga Sohibqiron qaynotasi uchun katta to'y tashkil etadi.

To'yga tayyorgarlik ketayotgan bir paytda, Amir Temur Qurdiston tog'i dovonlarida yo'lto'sarlar va kallakesarlar musulmonlarni talab, o'ldirayotganligi xabari olinadi. Xonzoda Begimning Jahongir Mirzodan tug'ilgan o'g'li Muhammad Sulton bobosi amria muvofiq, to'yni ham kutib o'tirmasdan qaroqchi to'dalar ustiga otlanadi. Xonzoda Begim Sohibqironga atab uyuştirgan to'y mahobatli o'tadi.

Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti. 1978. , 464 bet.Tanlangan asarlar 3-tom. 95-99 betlar. Odil Yoqubov bu romanida tarixiy shaxslarga daxldor bo`lgan davr haqiqatini nozik ilg`ay olgan uchun ham umrboqiy asar yarata oldi. Chunki Ulug`bek o`zidan oldingi o`tgan podsholardan tubdan farq qilib, toju-textni, oltinu kumushlarni emas, balki nodir kutubxona, rasadxona va yozgan ilmiy asarlarini haqiqiy xazina deb tushungan. “Ko`hna dunyo” romanida esa sulton Mahmud G`aznaviy, Beruniy va Ibn Sino adabiy tiplarini yarata olgan. Quyida “Ulug`bek xazinasi” tarixiy romanidan parcha keltiramiz.¹

Ali Qushchi endigina usta Temur Samarqandiy degan mashhur temirchining g'orida turganini tushundi. Amir Temur lashkarida xizmat qilgan bu odam to'g'risida Ali Qushchi ko'p g'alati hangomalar eshitgan, lekin o'zini ko'rmagan edi.

Ali Qushchi tavoze bilan qo'l qovushtirib, chol ko'rsatgan to'nkaga o'tirdi. Qalandar esa cholning yoniga cho'nqaydi.

- Ha, mavlono Ali Qushchi, - dedi chol.— Siz Amir Temur Ko'ragoniy o'lirgan to'nkada o'liribsiz. Amir Temurdan so'ng bul to'nkada uning farzandi Xoqoni Said Shohruh Mirzo o'lirgan edi...— Chol siyrak, lekin o'siq qoshlarini silab miyig'ida kulimsiradi.—Ul zoti sharif quyma oltin olib kelibdurkim, qiblagoh Amir Temurga yasagan qilichday qilich yasab berarmishmen. Bilmaydurlarkim, qilich yasamaslikka ont ichganmen...

Bu to'g'rida ham Ali Qushchining qulog'iga allaqanday mishmishlar chalingach edi. Go'yo Shohruh Mirzo Samarqandga tashrif buyurganida mashhur bir temirgicha qilich buyurgan. Temirchi esa qilich yasashdan bosh tortgan. Shohruh Mirzo darg'azab bo'lib, uni dorga osishga buyurgan, lekin Mirzo Ulug`bek aralashib, temirchini o'limdan olib qolgan...

Ali Qushchi cholning qora qurum bosgan serajin yuziga,paxmoq qoshli ostidagi tiyrak qo'zlariga hayajon bilan tikildi. Cholning keng yuzi, ko'ksiga tushgan oppoq soqoli, kuch yog'ilib turgan baquvvat jussasi, tizzasiga tirak

¹ Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti. 1978. , 464 bet.Tanlangan asarlar 3-tom. 95-99 betlar.

o'tirgan qoq suyak qo'llari xuddi cho'ng qoyadan o'yib yasalganga o'zshar, vujudidan bo'lakcha bir mardonavorlik, iroda, kuch yog'ilib turardi.

- Ont ichmog'ingizga ne sabab bo'ldi, otaxon? – dedi Ali Qushchi. Chol qurum bosgan serajin yuzini bujmaytirib, qo'lini siltadi.

- E-e, buning hangomasi uzoq, inim. Alqissa, kamina Amir Temur lashkarida aslahasoz edim. Usta Temur Samarcandiy yasagan qilichlarning dong'i Yamandan Yasangacha ketgan edi, o'g'lim. Bir kun sohibqiron bir qilich buyurdi. Sopi oltindan, o'zi po'latdan bo'lsin, chopganda toshni kessin, dedi. Yasadim. Shunday qilich bo'ldikim, Amir Temur qo'lida to'nkaday toshni yog'dek kesdi. Sohibqiron xushnud bo'lib, egnimga zarbof to'n yopdi. Ammo falakning gardishini qarang, mavlono, sal o'tmay ul shohi beshafqat osiy banda yasagan shul qilich bilan Ko'ksaroy maydonida yolg'iz og'am, birdan-bir jigargo'shamning kallasini oldi!.. – Chol ko'zlarini yumib, lablarini pichirlatib tilovat qildi va yuziga fotiha tortdi. – Jigargo'sham sarbadorlar sarkardasi edi, mavlono. Ko'kragida sher yuragi bor edi. Faqirga hamisha aytur edi: inim Temur, qo'y shul hunaringni, Bu qonxo'r kallakesarga kimki qilich yasab bersa, gunohi azimga qoladur, tongla mahsharda jazosini tortadur, deya edi rahmatlik. Yo'q, ko'nmagan edim, ul sohibqironning shirin kalomi-yu, tortiqlariga uchgan edim. Ammo bul yumushim parvardigori olamga maqbul bo'limgan ekan, axiyri jazomni tortdim: o'zim yasagan qilich bilan o'z jigargo'shamning boshi olinganini ko'rdim. Og'amga qo'shib yana o'ttiz ikki mard o'g'lon... o'ttiz ikki sarbadorning boshini tanidin judo qildi... Ha, o'g'lim, o'zim yasagan qilich to'kkan jigargo'shamning qonini qo'rdim. Qo'rdim-da, bir tunda Amir Temur in'om etgan hamma sarpolarga o't qo'yib, boshimni olib tog'larga chiqib ketdim... To'rt yil boshimga kuloh, ustimga janda kiyib, bu yog'i Badaxshon, bu yog'i Balx, undan narisi – Hirotu Bag'dod, Makkayu mukarrama – badini darbadar kezib chiqdim. Endi o'z elimni ko'rmoq nasib bo'lmas, suyaklarim yetti ellarda kalxatlarga yem bo'lur, deb o'ylagan erdim. Yo'q, devonaning ishini xudo o'nglar ekan, bolam. Ul berahm shohga Chinu Mochinga yurish qilib, O'tror ustida dori fanodin dorilbaqoga rixlat etibdur degan xabar yetdi... Osiy banda o'z yurtining qadrini musofirlikda bilar erkan, o'g'lim. Bul xabarni eshitdimu belni mahkam bog'lab, qo'limga asoni olib, yo'lga tushdum. O'n ikki oyu besh kun deganda ko'zimga Movarounnahr sarhadi ko'rindi. Jayhunga yetib behush yiqildim!.. – Chol qora-qura yo'g'on barmoqlari bilan ko'z yoshlarini sidirib tashlab sukutga cho'mdi. Ali Qushchi yer ostidan Qalandarga qaradi. U ham soqolini tutamlab, bir nuqtaga tikilib o'tirar, o'z yurtini eslab, o'ksingan bo'lsa kerak, so'nik yuzida teran bir mahzunlik aks etardi.

- Mavlono Ali Qushchi, - dedi chol. – Ollo gadoyi Qalandar sir-asrorni bir chetini ochdi. Faqir ilm dargohidan suv ichmaganmen, ammo Hirotu

Bag'dodu Damashqda ko'p madrasai oliylarda hovli supurib, ko'p donishmand-larning xizmatlarini qilganmen, purhikmat suhbatlaridan bahramand bo'lганмен. Alqissa, ne xizmat darkor bo'lsa – ayamasmen, bolam!..

Ali Qushchi qo'llarini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qildi.

- Ming-ming rahmat chizga, vallomat. Siz shahzoda Mirzo Abdullatif taxtu toj ishqida Movarounnahrga bostirib kirganidin voqifdursiz?

Chol bosh irg'adi.

- O'z padariga qilich ko'targan surriyot, inshoolloh, haq taoloning qahriga yo'liqur, mavlono...

- Inshoolloh, duongiz mustajob bo'lg'ay. Ammo davlatpanoh Mirzo Ulug'bek Movarounnahrda qirq yil hukm surganida rasadxonaday jamiul-ulub barpo etib, ko'p purhikmat kitoblar, ko'p noyob qo'lyozmalar, ko'p ilm durdonalarini to'plagan erdi. Endi bu nodir xazina xavf ostida turbdur. Bu ilm xazinasini johilu gumrohlardin saqlamoqni Mirzo Ulug'bek kamina zimmasiga yuklagan erdi...

- Mirzo Ulug'bek! – Chol ko'zlarini yumib, uf tortdi. – Hay attang! Shunday zukko odam, quzg'un sarkardalariga inonib, qarigan chog'ida ko'p pand yedi. Ko'nglingizga kelmasin, mavlono, ammo urush bahona, bu amiru umaro kafangado qildi-ku, biz bechoralarni. Javr bo'lganda bizday kambag'al hunarmandlarga javr bo'ldi, o'g'lim.

Ali Qushchi qizarinqirib yerga qaradi. Ne chora, usta haq: bu urush yolg'iz fuqaro emas, ustodning o'z boshiga ham ko'p musibat soldi. Qalandar o'rnida bir qo'zg'alib:

- Otaxon! – dedi. – Hozir bu so'zdan foyda yo'q. Ilm xazinasi xavf ostida qolgandir.

- Bas! – usta kaftini uning tizzasiga qo'ydi. – Qancha sandiq lozim deding?

- O'n besh-yigirma sandiq bo'lsa kifoya.

- Qachon tayyor bo'lmog'i kerak?

- Qanchaki tez bo'lsa nur ustiga a'lo nur! – dedi Qalandar va xurjunga imo qilib qo'shib qo'ydi:

- Tillani ayamasbiz, otaxon!

“Tilla” so'zini eshitgan chol ijirg'anib yuzini burishtirdi. U o'siq qoshlarini silab xiyol o'ylangach, Qalandarga yuzlanib:

- Ertaga shomdan keyin bir xabar olursen, o'g'lim, - dedi.

- Rahmat, buzrukvor... Buni ne qilurmiz? – Qalandar xurjunni ko'rsatib kuldi. – Ichi to'la oltin!

- Ko'mmoq darkor, - chol shunday deb, qibla tomondagi qorong'i xonaga ishora qildi. – Olib kirib ko'mgaysen, Faqirga oltin ne, temir ne – farqi yo'qdur.

Qalandar xonaqohdagi temir-tersaklarni bir tomonga surib, tizzadan keladigan chuqur kavladi. Tilla va javohirlarni chuqurga xurjuni bilan ko'mib, ustiga tuyroq tortdi-da, temir tersaklarni uyib qo'ydi.

Ali Qushchi usta Temur Samarcandiy bilan xayrlashib, Qalandar ikkovlon g'ordan chiqarkan, go'yo yelkasidan tog' qulaganday yengil tortdi. Tashqarida hamon sovuq bo'ron uvillar, quturar edi. Shamol kuchayib bulutlar tarqagan, osmon g'uj-g'uj yulduzlarga to'lib ketgan edi. Tong yaqin bo'lsa kerak, har joy-har joyda xo'rozlar qichqirar, itlar hurar, eshaklar hangrardi.

Ular kelgan yo'llaridan orqaga qaytishdi. Jarlikdan chiqib, rasadxona darvozasiga yaqinlashganlarida oldinda borayotgan Qalandar Ali Qushchini qo'llaridan "shap" ushlab, yo'l yoqasidagi chinor panasiga tortdi.

Darvoza tomondan kimdir "Haq do'st, yo ollo", deb g'ing'illab kelardi.

Qalandar Ali Qushchini panada qoldirib, o'zi darveshning yo'lini to'sdi.

- Ha, Qashqir, bu yoqlarda ne qilib tentirab yuribsan?

Qashqir bir nima deb po'ng'illadi.

- Bilib qo'y, g'ilay; sen qashqir bo'lsang, men yo'lbars bo'lurmen. Agar ayg'oqchilik azmida yurgan bo'lsang, g'ilay qo'zingni o'yib olib, o'zingga oshaturmen. Uqdingmi?

Darvesh javob bermay o'zicha so'kindi-da, to'tiqushdek sayraganicha "Bog'i maydon" tomonga o'tib ketdi. Qalandar bir lahma kutib turdi, so'ng Ali Qushchining yoniga qaytib:

- Ehtiyyot bo'lmoq kerak, mavlono, - dedi, - Shayx hazratlari ayg'oqchi ustiga ayg'oqchi qo'yibdur.

Primqul Qodirov."Yulduzli tunlar" romanida Shayboniyxon obrazi ham yorqin ifodalangan. Uning shaxsi badiiy vositalar yordamida yoritilgan¹

Primqul Qodirov.Yulduzli tunlar.Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981. 496 bet. Romanda xalqimiz tarixining shiddatli voqealarga va ibratli saboqlarga boy bo`lgan murakkab fojiali bir davri tasvirlanadi. Asar markazida turgan klassik adibimiz, jahonga tanilgan davlat arbobi va sarkarda Bobur hayoti va faoliyatiga oid tarixiy voqealar tasvirlanadi. Uning davomi bo`lmish "Avlodlar dovonii" romanida Bobur, Xumoyun, Akbar, adabiy tiplarini yarata olgan. Quyida "Yulduzli tunlar" romanidan parcha keltiramiz.

¹ Primqul Qodirov.Yulduzli tunlar.Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981. 496 bet.

Daryo bilan shahar oralig'ini to'ldirib vahimali qora bulutga o'xshab harakatsiz tek turib kutish og'ir edi. Ko'pchilik bek va navkarlar fursatni boy berib qo'yayotgandek sabrsizlanishar, lekin Bobir:

- Hech kim buyruqsiz qo'zg'almasin! – deb hammani qattiq tutib turardi.

Ibrohim Lodi Bobirning qo'zg'almasdan kutib turganini, ikki orada yuzlab aravalardan yasalgan mustahkam devor va chuqur xandaqlarni chaqirib, asosiy zARBANI yovning o'ng qanotiga berish va shahar tomondan aylanib o'tish haqida buyruq berdi. Biroq yuz ming ko'shinga to yangi buyruqni tarqatib, uni shahar tomonga burguncha vaqt o'tdi.

Bobir darhol mana shu vaqtdan foydalandi. Uning buyrug'i bilan to'lg'amaga ajratilgan ikki ming otliq joyidan qo'zg'aldi. Chopqir otlar yov qo'shinining ikki qanotiga tegmay o'tdi-yu, bexavotir kelayotgan orqadagi otliqlar va piyodalarga hamla qildi.

Humoyun boshliq to'rt ming otliq o'ng tomondan yovning yo'lini to'sib chiqdi. Chap qanot ham jangga tushdi. Markazdagi aravalarning ora-orasidan to'plar ustma-ust o'q yog'dira boshladilar.

To'rt tomondan yashin tezligida birvarakayiga qilingan hamlani tepadan kuzatib turgan Tohir Bobirning sarkardalik tajribasiga o'zicha qoyil bo'llib qo'ydi. U harbiy san'atni faqat do'staridan emas, dushmanlaridan ham o'rgangan edi. Bobir to'p va miltiq ishlatishning ahamiyatini birinchi marta ittifoqdosh Shoh Ismoilga qarab bilgan bo'lsa, to'lg'ama ishlatishda ashaddiy yovlari Shayboniyxon va Ubaydullaxonning tajribasini o'zlashtirgan edi. U achchiq mag'lubiyatlar jarayonida orttirgan barcha harbiy tajribalarini bugun go'yo yagona bir mushtga tugib, maydonga ustalik bilan tashlandi-yu, tashabbusni darhol qo'lga oldi.

Bobirning butun rejasi – yon qo'shinini to'rt tomondan o'rab olishga va qanotlarini ichkariga qayirib tashlashga qaratilgan edi. Lekin o'rab olingan yov Bobir qo'shiniga nisbatan yetti-sakkiz barobar ko'p edi. Chopqir otlar bahaybat fillarning bir zarbasidan umbaloq oshib yiqilib ketardi. Shu sababli Ibrohim Lodi askarlari hali o'ngda, hali so'lda Bobir qo'shinining halqasini yorib chiqardi. Bobir yonida turgan aloqachi beklar va yasovullarni ketma-ket jang maydoniga choptirar, yovning qo'li baland kela boshlagan qanotlarga markazdan ko'mak yubortirar edi. U markazni yovga ajoyib ochiq qoldirmoqda edi, chunki hali harakatsiz turgan aravalar va to'fanglar markazga qo'yilgan edi.

Ikki tomondan va orqadan ustma-ust zarba berilavergandan keyin Ibrohim Lodining asosiy kuchlari va harbiy fillari markazga tashlandilar. Shunda Bobir aravalarning g'ildiraklari tagidagi yog'ochlarni olishni buyurdi.

Etti yuz arava joyidan qo'zg'alib yov qo'shinining ro'parasidan chiqdi. Aravalar ustidan to'plar, ora-oradan esa to'fanglar yaqin kelib qolgan yovga o'q ota boshladi. To'plarning gumburlashi, miltiqlarning qarsillashi, borut tutuni, har qanday qalqonni teshib o'tadigan olovli o'qlar zarbasi va yana buning hammasi behisob aravalar shakliga kirib o'z-o'zidan yurib kelayotgani yov qo'shinini dahshatga keltirdi. Fillar yarador bo'lib bo'kira boshladi. Filbonlar talvasaga tushib, fillarini orqaga burdilar. Orqada esa g'uj-g'uj otliqlaru piyodalar bir-biriga aralashib ketgan edi. Itar-itar, ur-sur boshlandi. Yaralanib quturgan fillar otliqlarni yiqitib, piyodalarni bosib, yanchib o'ta boshladi.

To'plar va miltiqlar hamon o'q otmoqda. To'p o'qi tekkan fillardan bir qanchasi piyodalar ustiga ag'anab tushdi. Orqadan kelayotgan otlar va fillar o'zlarini to'xtatolmasdan ag'anab yotgan fillarga surinib yiqilishardi. Ketma-ket bir-birini itarib, surib kelganlari oldin yiqilganlarning ustiga qulashar va o'tib bo'lmaydigan to'siqqa aylanishardi.

Bu qiyomat ur-yiqitdan qochib qutulishning ilojini topgan filbonlaru otliqlar jon-jahdlari bilan qochishga tushdilar. Orqada to'lg'ama ishlatgan otliqlarning safi ancha siyraklashib qolgan edi. Fillar bu safni birpasda yorib o'tdilaru Dehli tomonga intildilar.

Tepalik ustidan buning hammasini ko'rib turgan Bobir:

- Yog'iy Dehlini bekitmoqchi! – dedi va aloqachi beklari turadigan o'ng tomonga o'girildi. Biroq aloqasi beklar, choparlar va yasovullar hammasi birin-ketin jang maydoniga maxsus topshiriqlar bilan yuborilganicha qaytib kelishmagan edi. Ehtimol, ularning ba'zilari o'lgandir yoki yaralangandir – jang busiz bo'lmaydi. Bobir otini burib, ichki beklari va navkarlari tomonga yuzlandi. Shunday uning ko'zi Tohirga tushdi. Tohir maxsus farmonlarni hamisha yaxshi ado etib kelganini esladi:

Tohirbek, Ibrohim Lodi qochdimi yoki jang maydonida qoldimi, shuni aniqlamoq kerak. Agar qochgan bo'lsa xossa tobin (rezerv)dan yuborgaymiz.

Tohir chang-tutunga burkanib jahannam bo'lib yotgan jang maydoniga ko'zi javdirab qaradi-yu, singan boshmaldog'ini eslab, ovozi qaltirab dedi:

- Bosh ustiga, hazratim!

Shu payt jang bo'layotgan tomondan oyog'iga o'q tegib, uzangisidan qon sirqib oqayotgan bir yasovul ot choptirib keldi.

- Hazratim, zafar bizniki! – dedi u hansirab. – Yog'iy qochdi!

Fitrat. Abul Fayzxon. Tarixiy drama. 5-pardali tarixiy fojea. Buxorodagi o'zbek xonlarining so`ngisi. Asarda Buxoro xonligida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, xalq hayoti, suronli davr muhitini tarixi tasvirlanadi.

Xon (tahoratni bitirib turar). Ha, o'g'ullarim, keldingizmi (yuzini artib, ularni bitta-bitta quchoqlab o'par) Qalaysiz, o'g'lum? (ko'z yoshlarini artar).

Abdumo'min. Shukur.

Xon. Sen qalay? (kichkina o'g'li bo'ynini bukmak bilan javob bergan bo'lar) Onang qayda?

Abdulmo'min. Uydayu

Xon. Hammangiz bir uydami?

Abdulmo'min. Ha, bir uyda (Xon kichkina o'g'lini quchoqlab, manglayidan o'par, katta o'g'lini quchoqlab, boshini uning numuziga qo'yub yig'lar).

Bolalar (birdan yig'lab, xonga yopishib). Ota jonim, nega yig'laysiz? Bizni nima qilarlar emdi?

Xon, Hech, o'g'lim, hech. Ketingiz emdi, onangizning yonida turingiz. (Yana quchoqlab o'par. Ikkalasini eshikkacha kelturub, yana o'par, uzatar. Shul chog'da ikki g'ijjakning "Bebokcha" kuylagani eshitilar. Xon cholg'u tovushini qayg'u ostinda tinglag'andan so'ng so'ylar) Insonlar, dunyoning uyalmoq bilmagan hayvonlari! Biringizning ko'z yoshlari, biringizning shodlim yoshlari bog'chalarni sug'oradir. Birinchizni motam ingrashlari to'y cholg'ularini quylatadir. Bir-biringizning borliqlarini yeb, hirsrlaringizni to'ydurmoqdan qachong'acha bezaysiz! (Kun oqarg'onin ko'ruba) Namozimni o'qub olayin. (Joynamozni yoyar, namozning birinchi raqatini o'qugach, bir puchmog'indan devorning teshilgani seziladir. Kesak, tuproqlar to'kula berar. Xon namozning ikkinchi raqatini tez bitirar. Telbalanib turar. Buyuk bir qo'rqu bilan ishning so'ngini kutub turar. Devor kattarak ochilg'och, uzun soqolli bir qishloqli bir qozma ko'tarib chiqar). Bu kim? Sen kimsen?! (Haligi odam gapurmayin, qozmasini yerga qo'yub, telpagini olib, yasama soqolini yeshgach, Ulfat ekani onglashilar). Ulfat!

Ulfat. Men, Ulfat qulingizman, xoqonim!

Xon. Oh, Ulfat, nega bunday kelding?

Ulfat. Qo'rwmangiz, sizga xizmat uchun. (Xonni qo'ltug'indan olib, katga o'tqazar. Uyning eshini sekingina yopar. Qaytib kelib, xon yoniga o'turar). Bilasizmi, Rahim biy meni tutub o'ldurmak uchun tirishadir. Men qochib yurubman.

Xon Qayda eding?

Ulfat. Men Eron qo'shuninda edim.

Xon. Ishimiz nima bo'lar? Meni Eronga yuborar ekanlar, to'g'rimi?

Ulfat. Nodirshohga Rahim biy ham, Hakim biy ham sizni o'ldirmaslik uchun so'z bergen ekanlar. Nodirshohni buyrug'i bilan Rahimbiyga qo'shulub

kelgan Eron qo'shuni sizni omon-eson olib qaytarg'a shohdan buyruq olg'on ekanlar.

Xon. Qachon borarmiz emdi?

Ulfat. To'xtang, hali ish buzulib qolg'on.

Xon. Nima bo'lg'on?

Ulfat. Nodirshohning o'lum xabari kelgan.

Xon. Kim o'ldirgan uni?! E, voy... Meni ham baxtim qaro ekan!

Ulfat. Eron eli yog'iqib, uni o'ldirganlar. Bu xabar Buxorog'a kelgandan so'ng Rahim biy sizni yubormoq fikrindan qaytqon.

Xon. Emdi men nima qilaman?

Ulfat. Eron qo'shuni sizni omon-eson qo'lig'a olmasa, Buxorodan ko'chmaydir. Buni shu kun Rahim biyga bildirdilar.

Xon. Nima degan bu?

Ulfat. Hanuz bir narsa demagan, biroq Eronning qo'shun boshliqlari Rahim biy sizni o'ldurub qo'ymasun, deb qo'rqlalar. Sizni ish qilib qochirmoq uchun meni yubordilar. Shu tobda men bilan qochasiz. (Eshikka borib, tinglag'ondan so'ng) Kelingiz, shahardan chiqib, Eron qo'shunig'a qo'shulamiz.

Xon. Qanday qilib qochaman?

Ulfat. Qochmoqning qanday-qandayi yo'q, mana shu yo'lg'a kirib olsangiz, qochib qutularmiz. Menga ishoningiz, hech qo'rwmangiz.

Xon. Bolalarni nima qilayin?

Ulfat. Vaqtimiz oz qolg'on. Bringiz, tez qochaylik, bir balo chiqmasun.

Xon. Bolalarim nima bo'lalar?

Ulfat. (eshikni tinglab, qaytg'ondan so'ng) Buxoro tahtiga Chingiz bolalarindan boshqa kishi chiqarilmaydir. Shuning uchun Rahim biy katta o'g'lingizni xon ko'taradir. Sizning ularga ishingiz bo'lmasun. (Qo'lini tutub) Turungiz, bot qochaylik emdi.

Xon (o'rnidan turar). Men choqg'och, bolalarimni o'ldirmaylarmi?

Ulfat. O'ldira olmaylar. O'g'lingizni xon ko'tarishdan boshqa chorralari yo'qdir. Yuringiz, tez qochaylik. (Xonni eshikka olib borar). Kiringiz, tez yuringiz!

Xon (birdan keyinga otilib). Yo'q, qochmayman, qochsam, bolalarimni o'ldururlar.

Ulfat, Uf!.. (yuzurib eshikka borib, tinglag'ondan so'ng) Nega bunday qilasiz? Shu tobda bittasi kelib, shu holni ko'rsa, ikkimizni ham o'ldurarlar.

Xon. Men Eronda nima qilarman?

Ulfat. Undan kuch yig'ib, qaytarmiz-da, yana Rahim biy bilan urusharmiz. Eron sizga yot emas, bobolaringizdan nechalari Buxorodan Erong'a ko'chganlar. Kelingiz, tez qochaylik. Kiringiz tez!

Xon (kirmakchi bo'lub, yana qaytar). Oh bolalarim! Sizni kimga tashlab ketaman?

Ulfat. Nega bunday qilasiz, kelib ikkovimizni ham o'ldirarlar!

Xon (juda qisilg'on). To'xta bir oz, Ulfat. Bolalarimni chaqirib, bir ko'ray!

Ulfat (o'z yuzluriga urub). Ey voy, bitdik, shu tobda kelib bizni o'ldurarlar. Baribir bolalaringizni ko'ra olmaysiz.

Xon. Nega ko'ra olmayman?

Ulfat. Ko'ra olmaysiz, chunki... (bir tovush sezgan kabi bo'lub, yugurub eshikka borib tinglar, telba bo'lub qaytar) Xon. Odamlar kelalar. (Soqolini taqar). Keling, qochamiz. (Qozmasini olar) Keling, tez keling. (Oyoq tovushlari kelar). Men qochdim, keling. (Teshikka kirgandan so'ng boshini chiqarib, xonni chaqirar) Keling, xon. (Xon ham yugurib, teshikka kirmoqchi bo'lg'och, uch jallod katta pichoqlar olib kelalar. Ulfat qochar. Jallodlar qotib qolg'on xonni kelib tutarlar).

Jallodboshi. Bu nima? Kim keldi, bu yo'ldan! (Xon indamaydir) Kim keldi bu yo'ldan? (Pichoqni ko'tarar).

Xon. Ulfat kelgan edi. Meni qochirmoqchi bo'ldi. Ketmadim. (Jallodlar shoshib, bir-biriga qaraylar).

Jallodboshi (Bir jallodg'a). Chop, Bekg'a xabar ber, qorovul bersunlar, shu uyning orqasiga borub axtararmiz. (Jallod yugurub chiqar) Biz ikkimiz bu kishining ishini ko'raylik. (Ikkala jallod pichoqlarini ko'tarib, xong'a hujum qilarlar).

Xon (jallodlar bilan talashib, qichqiradir). Nega meni o'ldurasiz? Voy, dod!

Jallodboshi, O'g'lingiz buyurdilar.

Xon (Talashda). O'g'lum... Yo'q. U buyurmas... (Pichoq ko'kragiga tegar) Voh, o'ldim. (Yana bir pichoq urar, xon yiqilar) Oh, nega qochmadim... Bolalarim... O'ldim... Ulfat... (deb jon chekishar. Jallodlar pichoqlarini qinlarig'a solib, xonning so'ng so'lishini kutub turarlar. Shu tobda Ulfat qishloqli aftinda katta bir pichoq qo'linda, teshikdan chiqar, sekingina jallodboshig'a yaqinlashib, pichobni suqub yuborar. Jallodboshi "voh" deb yiqilg'och, Ulfat ikkinchi jallodg'a hujum qilar. Ul qichqirib qochar. Ulfat xonning o'lugi ustiga kelar).

Ulfat. Yuraksiz xon, qochmadi, o'ldi. Muhrini olay. Yo'lda kerak bo'lur. (Xonning kissasindan muhrini tez olib, yugurub teshikka borib yo'qolar. Oyoq tovushlari kelar. Qolg'on jallod bilan besh kishi qilichlar chekib kirarlar).

Jallod (Teshikni ko'rsatib). Mana shunday keldi. (Uch kishi yugurib kirarlar. Qolg'onlari "Biz tashqaridan boraylik", deb chopib chiqarlar).

II. Bob. O`zbekiston tarixining XVII –XIX asrning ikkinchi yarmiga oid tarixini o`rganishda badiiy- tarixiy asarlardan foydalanish.

1. XVII -XIX asr ikkinchi yarmi davri asr davri tarixining badiiy- tarixiy asarlarda yoritilishi

XVIII asrning o`rtalariga kelib O`rta Osiyo hududida uchta davlat (Buxoro amirligi, Xiva va Qo`qon xonliklari) paydo bo`ldi. Ammo ular o`rtasida birlik bo`lmadi, siyosiy qarama-qarshiliklar, o`zaro kurashlar avj oldi. Bunday vaziyatdan foydalangan chor Rossiyasi mahalliy davlatlarni istilo qilib, Turkiston o`lkasini mustamlakaga aylantirdi.

XIX asr o`rtalarida mavjud bo`lgan ishlab chiqarish usullari ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga halaqit berdi va O`rta Osiyo davlatlari taraqqiyotiga to`g`anoq bo`ldi. Biroq mavjud ahvol hukmdorlarni qanoatlantirar va mavjud davlat tomonidan sergaklik bilan muhofaza etilardi. Tinimsiz urushlar, amaldorlar suiiste`moli, ochko`z hukmdorlarning hokimiyat uchun kurashlari sababli davlat o`qtin-o`qtin kasodga uchrar va vayron bo`lar edi. Bu hol XIX asrning ikkinchi yarmida O`rta Osiyo iqtisodiy hayotidagi turg`unlikning asosiy sababi edi. Keyingi buyuk geografik kashfiyotlar sababli O`rta Osiyo tashqi bozorlardan uzilib qoldi.

XIX asr boshida O`rta Osiyo Rossiya uchun to`qimachilik sanoati va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish bozori uchun asosiy manbaga aylana bordi. XIX asr o`rtalaridan boshlab, O`rta Osiyo davlatlari jahon savdosiga tortila boshladilar, bu hodisa tovar-pul munosabatlari rivojlanishi jarayonini jadallashtirdi, ichki bozorni shakllantirdi, mehnat taqsimotini va shaharning qishloqdan ajralib chiqishini tezlashtirishga imkoniyat yaratdi. Shunday qilib, bu davrda O`rta Osiyo mamlakatlarining bir-birlari bilan kelishmovchiliklariga, o`zaro kurashlariga va tashqi tajovuzlarga qaramay, ularning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi davom etaverdi.

Jo`ra Fozilning “Buxoroyi sharif elchilari” tarixiy qissasi ham tarixiy mavzuga bag`ishlangan bo`lib, unda Buxoro amirligining elchisi Mulla Muhammad Ernazarbiy Maqsud o`g`li (Ernazar elchi sifatida ikki marotiba Rossiya imperiyasiga 1774-1776 va 1779-1780 yillarda elchilik qilgan) haqida so`z boradi. (240-243-betlar)

Ernazar Maqsud Ekaterinaning mulohazalarini diqqat bilan tinglar, ularning mag`zini chaqardi.chunki bu ayol qo`qqisidan nozik savol berib qo`yishi mumkinligini u tezda anglab olgandi. Rossiya hukmdorining islom dini haqidagi fikrlari o`rinli va ular elchiga ma`qul edi.¹

Ekaterina so`zida davom etdi:

-Isnaysizmi, yo`qmi ko`p xotinlik-bu davlat ahamiyatiga molik masala. Lekin buni Rossiyadek mamlakatda joriy etaman, degan dindorning ham, hukmdorning ham bo`yni sinishi aniq. Agar shu fikrlarni men imperator kengashida aytSAM, ustimdan kulishlari, meni ersiraganga chiqarishlari hech gap emas. Bu ulug` mamlakatni qalban tushunish mumkun, lekin aqlan tushunib bo`lmaydi.

Ekaterina bir muddat jim qoldi, so`ngra mehmonni dasturxonadagi nozne`matlardan olishga undadi-da, tillodek tovlanib turgan noklarnimaqtay boshladi:

-Mana bu nokdan tatib ko`ring, bularni menga Erondan maxsus olib kelishadi.

Ernazarbek iltifot uchun minnatdorchilik bildirib, xush bo`y taratibturgan bir dona nokni qo`liga oldi,unga suqlanib boqdi:

-Biror-bir san`at asari tabiatning ana shu ne`matidek mukammal va bejrim bo`lolmasa kerak.

-Haq gapni aytdingiz, bek, tabiatdan buyukroqrassom ham, naqqosh hamyo`q, - dedi Ekaterina. Suhbat tizigini hamon uning qo`lida, u mavzuni teztez- o`zgartirganidan elchi asosiy muddaoni aytolmay qolsamgo`rga edi, deya tashvishga tusha boshladi. Zukko Ekaterina buni sezmay qolmadi va suhbatdoshi ko`nglidagini aytishi uchun imkoniyat yaratdi:

-Xo`sh, elchi janoblari, endi Buxoroyi sharif yangiliklaridan gapiring, amiringiz Doniyolbiy sog`liqlaridan gapiring. Bizga qanday arzlaringiz bor, shundan gapiring.

-Buxoroyi sharif yuksalayotir, biz bundan behad sarafrozimiz. Ulug` amirimiz Doniyolbiy fiqaro tashvishi, yurt tashvishida. Bizning arzlarimiz sizning marhamatingizga bog`liq.

-Tortinmay aytavering, elchi janoblari, Siz uchun qo`limdan kelgan hamma ishni qilaman.Men axir, sizdan qanchadir qarzdorman...

-Rossiyadek ulug` mamlakat podshosi bizdek faqlardan qarzdor bo`lishi sira mumkin emas, hazrati oliyalari.

-Bu telba dunyoda hamma narsa bo`lishi mumkin.Ayting, Rossiya Buxoro uchun nima qilsin?

¹ Jo`ra Fozil . Ayriliq ostonasi. Tarixiy roman. // “Buxoroyi sharif elchilari” qissa// T.: “Sharq”, 240-243-betlar.

-Hamonki, shunchalar iltifot qilayotgan ekansiz, yurmiz mudofaasini mustahkamlashga yordam bering.Jafokash xalqimiz bosqinlaru istilolardan juda bezib qolgan.

Ekaterina suhbatdoshiga diqqat bilan tikildi.

-Mudofaaga nima bilan yordam berish kerak?

-Buxoro o'shini qurol aslahalarni yangilash uchun po`lat, mis, qo`rg`oshin va shunga o'xshagan ma`danlar zarur. Zambaraklarsiz qo`shin hech nimaga yaramasligini siz oily bosh qo`mondon sifatida yaxshi bilasiz.

Rossiya hukmdori bir zum o`ylanib qoldi.Strategik ahamiyatga ega bo`lgan ma`danlarni sotish-bu oson hal bo`ladigan ish emas. Shu boisdan Ekaterina mavhumroq javob qildi:

-Yaxshi men harbiy kollegiya rahbarlari bilan maslahatlashib ko`raman, so`ng sizga javobini etkazamiz.

-Hazrati oliyalari, bu masala Buxoro uchun ham, men uchun ham hayot-mamot masalasi, uni orqaga surmay, shaxsan hal etishingizni iltimos qilaman.Bu ish orqaga surilsa, undan qancha ko`p odamlar xabardor bo`lsa , amalga oshishi shunchalik qiyinlashadi. Men ma`dansiz Buxoroga qaytmayman, qaytishga haqqim ham yo`q!-dedi qat`iyat bilan elchi. U agar hozir qat`iyat ko`rsatmasa, ish pachava bo`lishini darhol sezdi.

Ekaterina o`ylanib qoldi."Ha" desa, tashqi ishlar kollegiyasi rahbari Nikita Panin va harbiy kollegiya vitse-prezidenti Grigoriy Potyomkin tixirlik qilishi mumkin, "yoq" desa, Buxoroning dilkash, nimasi bilandir tanish-notanish, do`s-dushmanni o`ziga rom etuvchi elchisini xafa qilib qo`yishi mumkin. Ekaterina juda do`stona o`tayotgan suhbat davomida sezdiki, ko`rkam soqqoliga yakkamdukkam oq oralagan, chehrasidan allaqanday xotirjamlik, o`ziga ishonch va ulug`vorlik ufurib turgan bu kishining biror iltimosini rad etolmaydi. Ernazar Maqsudning qandaydir ko`zga ko`rinmas sehr va jozibasi uni maftun etgandi. To`g`ri u ancha-munchada o`z fikridan qaytadigan odam emasdi, har qanday yo`l bilan, xoh makr hiyla-yu noz-karashma bo`lsin, xoh sovg`a-salom bilan o`z so`zini o`tkazmay qo`ymasdi.Lekin bugun Ekaterina butunlay boshqacha holatda edi. Erta tongda kayfichog`, elchi bilan do`stona suhbat quraman, iltimoslarining hammasini qabul qilaman va shohona sovg`alar beraman, deya ahd qilgan,o`zini shunga tayyorlagandi. Bunga sabab faqatgina Ernazar Maqsudning qimmatbaho sovg`a- salomlari emasdi.U juda ko`p sovg`a olgan, sovg`a bergen, shu boisdan bunaqa ishlarda ustasi farang edi.

Rossiya taxtini egallab turgan bu ayolni o`tkir aql, kuchli mantiq, bilim va farosat bilangina qoyil qilish mumkin edi.

Suhbat davomida u Ernazar Maqsud o`tkir aql –zakovat sohibi, o`z yurtining vatanparvari ekanini yurakdan his etdi va shu boisdan uning iltimosini bajarishga ma`naviy asosim bor, degan qarorga keldi.

Samandar Erkin. “**Tangri qudug`i. Tarixiy roman.**T.: “Kamalak”. 1995.-396 bet. Asarda Xorazm xonliklarining Abulg`ozixon davridagi barqarorligi, vohaning gullab yashnashi, xalqning dard va armonlari, ilm-fanning gullab rivojlanishi, Abulg`ozixonning xayrli amallari yoritilgan.¹

Shunda dafatan o`q tovushi eshitildi. Ancha yiroqdan keldi tovush. Abulg`ozixon Bahodur amri bilan sardor Ali Arslon tovush kelgan tomonga ketdi. Ma`lum bo`ldiki, ikki urug` suv talashgan. Amir etildi, ularni olib kelishdi. Muxoliflar bir-birini yeishga tayyor, har birini qo`lida cho`qmor, bel-ketmon, qay birining belida xanjar, yelkasida miltiq.

Xon janoblari nizo tavslotini so`radilar. Ali Arslon aytdi. Mening o`ng qo`limda turganlar - qang`lilar, so`l tomonimdagilar - qipchoqlar. Bugun ariqdan suv olish navbati qipchoqlarniki. Lekin ular oldingi oy dalalarini bir marotaba ortiqcha sug`organlar. Shunga qang`liklar suvni bugun o`z dalalariga ochganlar. Ikki o`rtada to`palon ko`tarilgan. Bir-birini o`ldirayin der.

Abulg`ozixon ular qoshiga bordi. Dediki, qang`li bilan qipchoq endi bir to`pa, o`rtada suv ham, yer ham endi shu to`paga tegish, boshqa birovning unga daxli bo`lmagay.

Qiyotchi, naymanchi so`radi olomon. Xon dediki, olarning o`z yerlari va suvlarini bor, sizlarga also daxl qilmagaylar, sizlar ham olarga daxl emassizlar.

Abulg`ozixon sulton so`zini tugatib Xojinazar sardorga amr etdi. Chovdurlardan qolgan mingta otni keltiring. Keltirdilar. Otlarning yarimini to`pa ixtiyoriga, yarmini ertalabdan bu yerga to`plangan olomonga berildi. Oling dedi Abulg`ozi Bahodurxon, bu otlar endi sizlarniki, otlarga o`tiringlar. Olomon otga mindi.

Mazkur mavzu yuzasidan yana Otabek Fozilning “Dukchi eshon qo`zg`oloni” tarixiy romanini va Ustoz domla Oybekning “Qutlug` qon” tarixiy asarlarini o`quvchilarga o`qish uchun tavsiya qilishi mumkin.

Fikrimizcha,yozuvchilarimizning nafaqat tarixiy romanlari,balki qissalaridan ham dars jarayonida va darsdan tashqari vaqtarda foydalanish, o`quvchilar qalbi va ongini zabit etish, zamon bilan hamnafas borishini ta`minlash, mustaqil firrraydigan shaxshlarni kamol toptirish mumkin.

¹ Samandar Erkin. “Tangri qudug`i. Tarixiy roman.T.: “Kamalak”. 1995.-394-395 betlar

2. Badiiy tarixiy asarlar oquvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini o`stirish omili.

Hali sobiq sho`rolar davrida xalqimizning o`tmish tarixini o`rganishda bir yoqmalikka yo`l qo`yganimiz ma`lum. Shu davrlarda ajdodlarimiz yaratgan ilmiy, ijtimoiy-siyosiy va adabiy asarlarini ijobiy tomonlarini esa ko`rishni istamadik, ularni tarix oldida, xalqi va vatani oldida qilgan xizmatlarini xaspo`shlab o`tdik.O`z - o`zidan ma`lumki, buning oqibati xayrli bo`lmadi. Oxir oqibat, xalq ommasining ayniqsa, yoshlarning o`z o`tmishini, ota bobolari tarixini yaxshi bilmay qolishiga sababchi bo`ldik.Binobarin, bu holat tarix fanini o`rganish va o`qitish sohasini chetlab o`tmadi.

Mustaqillik bizni o`zligimizni aglashga o`rgatdi.Bugunda tarix sahifalari milliy g`oya ruhida sug`orilgan va u yangidan yaralmoqda. Xolisiylik va haqqoniylik tarix fanini o`rganishda ustuvor o`rin tutmoqda.

Bugunda tarix fanini yanada takomillashtirish borasida Prezidentimizning O`z.Res. FA Tarix institutida tarixchi olimlar bilan bo`lgan uchrashuvidagi so`zlagan nutqlarida, qator asarlari va risolalarida bu vazifani qayta ko`rib chiqish va rivojlantirish zarurligi haqidagi ko`rsatmalari dasturulamal bo`ldi.

Badiiy tarixiy asarlarda tarixiy haqiqatga yangicha yondoshish, yangi badiiy asarlar yaratish hozirda jonlanmoqda Keyingi yillarda yangi badiiy tarixiy asarlar dunyo yuzini ko`rdi. Tarixiy romanlar yaratishda xolisiylik tamoili hukmron bo`lmoqda. Adabiyotchi G.Murodov fikricha “tarixiy hujjat, umuman olganda, tarix haqiqatiga tarafkash yondoshish ham badiiy asar mukammalligi va tarixan haqqoniyligiga jiddiy putur yetkazadi”¹deb hisoblaydi.

Tarix bu-oliy hakam.Tarix-tarbiya vositasi. Prezidentimiz ta`kidlaganlaridek, “Tarix xotirasi xalqning jonajon o`lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy, tarixinitiklash, milliy o`zlikni anglash, ta`bir joiz bo`lsa milliy iftixorni tiklash va o`stirish jarayonida g`oyat muhim o`rin tutadi”²

¹ Murodov G. Tarixiy romanda hujjatchilik// O`zbek tili va adabiyoti. Jurnal, 1994, 4-son, 27-bet.

² Karimov.I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. T.: „O`zbekiston“, 1997. 140-bet.

Tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlar, xususan, romanlar xalqimiz tarixining badiiy solnomasidir. Shuning uchun ham milliy hurlik o`zlikni anglayotgan, ajdodlarning kim ekanligi, tarixiy ildizlari qaysi davrlarga borib taqalishi bilan qiziqayotgan har bir vatandoshimiz uchun tarixiy manbalar bilan bir qatorda shu mamzudagi badiiy asarlar ham g`oyat nodir tarixiy xotira sarchashmasi vazifasini o`taydi.

Keksa tarix har bir davrning o`z haqiqati bo`lishi va bu haqiqat ajdodlar yodi bilan chatishib ketishini, o`z davrining eng ilg`or g`oyalarini o`z faoliyatida mujassamlashtirib, jamiyat taraqqiyotiga kuchli ta`sir o`tkazgan buyuk tarixni shaxslar timsolida davr haqiqatining betakror chizgilar muhrlanib qolishini qayta va qayta isbotlagan.O`tmishda bo`lib o`tgan har qanday hodisa ajdodlarimiz tarixiy xotirasidan abadul abad joy olishi oddiy hayotiy haqiqatdir.

Tarixiy asarlar yaratish sermashaqqat ish.Tarixiy manbalar va hujjatlar zamiriga jo bo`lgan davr haqiqatlatini adabiy tiplar siyosiga ko`chirishga bel bog`lagan yozuvchi izlanishlarini qum barxanlari orasidan tilla zarrachalarini ajratib oladigan oltintoparlarning mashaqqatli menatiga tenglashtirsa bo`ladi. Demak, tarixiy romanlarda badiiy haqiqatni yuzaga keltiruvchi yagona va ayni paytda eng to`g`ri poetik vosita badiiy to`qimadan samarali foydalanishdir.

Tarix - istiqbol beshigi, komil avlodlarni qadriabad ana`lar ruhida tarbiyalovchi ma`rifat sarchashmasidir. Tarixiy romanlar esa hozirgi haqiqiy tarixdan xabardor qiluvchi tarixiy voqealikning haqiqiy badiiyi talqinini o`zida ifodalovchi, tarixiy fakt va badiiy to`qima uyg`unligi vositasida yaratilgan adabiy tiplar talqinida o`z tarixini asrab qolishga rag`batlantiruvchi manbadir.

Tarixiy romanlarda badiiy to`qimaning ikki tipi mavjud bo`ladi: birinchisi-tarixiy shaxslar talqinidagi badiiy to`qima bo`lsa, ikkinchisi – sof badiiy to`qima mahsuli bo`lgan xayoliy obrazlarda davr haqiqatini ifodalashdan iboratdir. Tarixga doir ilmiy tadqiqotlarda hayot qonunlari aniq dalillar tahlili vositasida ochib berilgan holda, tarixiy romanlarda ana shunday qonuniyatlarni ochib beruvchi adabiy tiplarning badiiy talqini ustuvorlik qiladi. Tarixiy voqealikning badiiy to`qima bilan qo`shilib ketishi yozuvchi tasvirlayotgan davr haqiqatini yanada

aniqroq va yaqqolroq tasavvur qilishga imkon beradi. Shuning uchun ham adabiy asardagi badiiy to`qimani boshqa hech bir vosita bilan almashtirib bo`lmaydi.

Bugunda zamonaviy ehtiyojlar bizni tarixdan saboq olishga undaydi. Hozira odamzodni bezovta qilayotgan katta muammolar biri -urush va tinchlik masalasi o`tmish zamonlarda ham boshqacha shakllarda va o`zgacha miqiyoslarda bo`islarda bo`lsa ham ajdodlarimizning boshiga tushgan. Ular bu muammolarni tushunish va hal qilish yo`lida juda ko`p ma`naviy izlanishlarni boshidan kechirganlar va o`z tarixiy tajribalarini bizga meros qilib qoldirganlar.

Ana shu muammolar orasida inson zotiga juda ko`p azoblar bergani - turli davlatlar va mafkuralar adovatidan kelib chiqadigan qirg`n urushlardir. Ayniqsa, hozirgi dunyoda hokim bo`lish ishtiyoqida yurgan diniy oqimlar, teroristik tashkilotlar inson hayotiga tajovvuz solmoqda. Bunga qarshi barcha taraqqiyparvar kuchlar safarbar etilmoqda. Ayniqsa, yoshlarni bu xavfdan ogoh etishda, ularni komil inson qilib tarbiyalashda badiiy tarixiy asarlar ibrat vazifasini bajarmoqda.

Badiiy tarixiy asarlarning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qo`shayotgan hissasi katta bo`lmoqda. Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik sigari xalq qahramonlarining faoliyatini tarixiy romanlarda o`rganib, yoshlаримиз asar qahramonlariga taqlid qilish, ulardek vatanparvar bo`lishga intilmoqda.

Keyingi yillarda global taraqqiyot yangi kashfiyot va fan-texnika sohasida keng imkoniyatlarni o`zi bilan olib kirmoqda. Ikkinci tomondan esa xalqimizga yet“ ommaviy mdaniyat” ning kirib kelishiga ham sabab bo`lmoqda. Bu jarayonni to`xtatib qolishning iloji yo`q. Lekin milliy g`oya va uning ruhiyati bilan sug`orilgan badiiy tarixi asarlar bilan yoshtar qalbiga xalq qadriyati, ajdodlarimiz o`gitlarini, xalqimiz boy madaniy merosiga tayanib singdirish mumkin.. O`zgarib borayotgan XXI asr saboqlaridan ma`lum bo`lmoqdaki, yoshtar tarbiyasiga talabchanlik bilan yondoshish va bu yo`lda duch kelinajak golobolizastsiya mentalitet bosimlarini engib o`tib, milliy urf-odat, zamonaviy qarashlarimizdagи noaniq ilmiy-nazariy qirralarini bartaraf eta olishimiz, muammolarning to`la to`kis yechilishiga erishishimiz kerak. Badiiy tarixiy asarlarning bu o`rinda roli va ahamiyati nihoyatda cheksizdir.

Tarixiy badiiy asarlar orqali yoshlarda insoniylik, rostgo`ylik, o`z-haq huquqi uchun kurasha oladigan kishini tarbiyalashdek muhim insoniy fazilatlarni qaror toptirish mumkin.Binobarin, tarixiy haqiqatlarni bilish va badiiy talqin qilish orqali ajdodlarimizning milliy qadriyatlari va umuminsoniy an`analarini bir butun holda bilishga yo`l ochadi.Yoshlarda milliy g`urur shakllanadi. Hayotda o`z o`rnini topishga ko`maklashadi.

Badiiy tarixiy asarlar yoshlarni ma`naviy yetuk, sog`lom va barkamol bo`lib tarbiyalanishiga ko`maklashadi. Asar qahramonlari odatda mard, sog`lom va tanti sifatida tasvirlanganligi tufayli o`quvchi aha shu qahramonlar orqasidan ergashadi, ularga taqlid qiladi. Tarix bilan yuzma-yuz bo`lish oson emas, tarix qonuniyatlari faqat hozirgi davr va kelajak emas, ijodkorning ma`naviy ma`rifiy darajasi, ruhiy imkoniyati, ixlos e`tiqodi, tafakkuri va iste`dodini ham o`zadolati tarozisiga solib turadi.

Bugunda tarix ta`limi jarayonida badiiy tarixiy asarlardan ijodiy foydalanilgan holda dars tashkil etish an`ana tusini olmoqda. Ko`rinadiki, o`quvchi shaxsini rivojlantirishd badiiy tarixiy asarlardan foydalanish, ma`naviy-madaniy uyg`unlik hamda ijodkorlikni rivojlantirishga keng yo`l ochadi.O`tmishni o`rganish, uni asl holida ko`rish o`quvchi qiziqishini oshiradi. Tarixiy mavzularni o`zlashtirishiga yordam beradi.

Xulosa qilib ta`kidlash o`rinligi, tarix fanlari mavzulari,davrulari, mavzulari hamda undagi sahifalarni o`rganishda badiiy tarixiy asarlarning ahamiyati beqiyos.Yoshlar nafaqat o`z bilimlarini boyitadilar, balki o`zlari ham komil inson sifatida tarbiyalanib boradilar. Eng muhimi badiiy tarixiy asarlar yozhlarda insoniylik fazilatlarinini qaror toptirishga,hayotda o`rninitopishiga, ajdodlarimiz merosiga hurmat bilan qarashga, ulardek faoliyat yuritish, sezgir va hushyor bo`lishga,Vatan mustaqilligini mustahkamlash ushun yonib yashashga yordam beradi.Zero,ota-bobolarimiz merosini o`rgangan, ular qoldirgan qadriyatlat asosida tarbiyalangan shaxsni hech qachon bukib bo`lmaydi.Prezidentimiz ta`kidlagan-laridek, “Tarixiy xotirasi mustahkam inson- irodali insondir”¹

¹ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.: ”Sharq”, 1998. 12-bet.

Xulosa

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, bobolarimiz yaratgan boy ma`naviy merosni o`rganish, o`lkamizning haqqoniy tarixini yaratish, o`zining beba ho tafakkur qudrati tufayli madadaniy-ma`rifiy va ijtimoiy hayotimizda xalqimiz ruhiy - ma`naviy olamida o`chmas iz qoldirgan ulug` ajdodlarimizning mo``tabar asarlarini keng o`rganish va ommalashtirish imkoniyati yuzaga keldi. “Agar biz O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi bo`lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak”¹ deb ta`kidlaydilar, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev.

Darhaqiqat, bugunda milliy zamonaviy adabiyotimiz nafaqat kishilik jamiyatni hayotini, balki o`tmish tarixini qalamga olmoqda, hali tariximizning o`qilmagan sahifalarini badiiy ifodalar, obrazlar orqali o`quvchilarni qurallantirmoqda. Xalqning o`zligini anglashiga yordam bermoqda. Xalqimizning hayot tarzi va insoniy fazilatlarini keng targ`ib qilishga erishmoqda.

Ayni paytda ma`naviyatimiz asosi hisoblangan tarixiy qadriyatlar va tarixiy haqiqatlarni tiklash hamda dunyo svilisatsiyasining beshigi hisoblangan mustaqil O`zbekistonimizning haqqoniy tarixini yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Binobarin ajdodlarimiz tarixining shonli zarvaraqlaridan xalqni bahramand etishda o`zbek tarixiy romanchiligining ham munosib o`rni bor. O`zbek adiblari yurtimiz tarixining o`ziga xos badiiy qomusini yaratish ishtiyoqida qalam tebratib,davr haqiqatlarini badiiy tafakkur qatlamlariga ko`chirishda o`zlarining yuksak ijodiy mahoratlarini namoyish etmoqdalar.

Keyingi yillarda qator badiiy tarixiy asarlar yaratildi. Tariximiz sahifalari nafaqat ilmiy, balki uning badiiy talqini, yanada chuqur o`rganilishi bilan boyib, ommalashib bormoqda.Chunki badiiy tarixiy asarlarni o`quvchilar sevib o`qishadi.O`quvchilar asarni o`qishayotganda o`z hayoti bilan emas, balki asarda

¹Sh.M.Mirziyoyev. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, //Xalq so`zi gazetasi. 28.12.2018.

aks etgan hayot bilan yashaydilar. Adabiy asardagi obrazga qo'shilib harakat qiladilar, hayot qiyinchiliklarini engish yo`lini izlaydilar, qahramonlar xato qilsa-kuyunadilar, zafar quchsa - suyunadilar, qiyinchiliklardan qutulsa - xursand bo`ladilar, ularning bir maromdagи hayotga qaytishidan taskin topadilar.

Yangi pedagogik ta`lim texnologiyasining joriy etilishi tarix ta`limini o`qitishga yangi imkoniyatlar ochdi. Bugunda, yangi jahon ta`lim tajribasidan foydalanilgan holda, tarix darslarida badiiy tarixiy asarlardan foydalanish ijobiy natija bermoqda. Binobarin o`quvchilarda bilish va muloqot qilish ko`nikmasi shakllanmoqda. Bu esa o`quvchilarning tafakkur qobiliyatlarini o`stirmoqda.

Tarix ta`limi jarayonida badiiy tarixiy asarlardan foydalanishning ikki yo`li mavjud. Biri tarix darslarini o`rganish jarayonida, ikkinchisi darsdan tashqari uy vazifasi bajarish maqsadida berilga topshiqlar zamirida amalga oshadi. Bu o`rinda uy topshiriqlariga asar qahramonlari fazilatlarini ochishga yordam beruvchi tafsilotlarni aniqlash masalasi o`quvchini aniq maqsadga yo`naltiradi.

Badiiy tarixiy asarlardagi obrazlarda qahramonlik suyujeti ko`plab tasvirlanadi. Undagi bosh g`oya -el-yurtning birligi va ozodligi uchun kurash, chet el bosqinchilariga qarshi mustaqilik kurashlari egallaydi. Hammasida ham vatanparvarlik g`oyasi birinchi o`rinda turadi. Ayni paytda dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o`qituvchi xalq botirlarining tug`ulgan yurti, ona vataniga bo`lgan mehr-muhabbatini asarlardan misol keltirib, o`quvchilarga o`rnak sifatida ko`rsata bilsa, unda tarixiy xotira va tarixiy iroda shakllanib boradi. Bu esa badiiy tarixiy asarlar orqali o`quvchilarda milliy merosimizga bo`lgan hurmatni va katta qiziqishni uyg`otishga zamin hozirlaydi. Teran fikrli, aqilli, ma`naviy yetuk va bilimli o`quvchilarni kamol toptirishga xizmat qiladi.

Badiiy tarixiy asarlar, yoshlarni tarixiy haqiqatlarni chuqur va atroficha bilishga, ayniqsa, diniy ekstremizm xavfi mavjud bo`lgan hozirgi paytda, ularning diniy va milliy adovatlarni yo`qotish borasidagi, insoniyat istiqboliga daxldor masalalarni tushunib etishiga ko`maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M.Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent, O'zbekiston, 2017.- 488 b..
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishi kerak.T.: “O'zbekiston”, 2017.
3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi PF-4947 sonli Farmoni.
4. Sh.M.Mirziyoevning . “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi Farmoni” 2017 yil, 12 –yanvar.
5. Sh.M.Mirziyoyev.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, //Xalq so`zi gazetasi. 28.12.2018.
6. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. // Karimov I. A. Biz kelajagi-mizni o`z qo`limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston , 2000, 7 - tom. 32— 154 -betlar
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari. T.: „O'zbekiston“, 1997. 140-bet.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T. «Ma'naviyat», 2008. 176-bet
9. Aziz Qayumov. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino.“Yosh gvardiya” noshriyoti. T.: 1987. 240-bet.
10. Axmedov Bo`riboy . Amir Temur.Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.T.: 1995. 640bet

- 11.В.Г.Ян-Янчевский.Чингизхан.Изд,«Каракалпакистан»(русском языке) 1977.c. 336.
- 12.Georg Fridrix Gendel. Amir Temur."Yangi asr avlodi".T.: 118-bet.
- 13.Jo`ra Fozil. Ayriliq ostonasi.Tarixiy roman. "Sharq",2006.-288bet. //Jo`ra Fozil. "Buxoroyi sharif. Tarixiy qissa//.
- 14.Zayniddin Habibulla. Mangu qalqon.Tarixiy roman. T.: "Meriyus". 2012.- 192 bet.
- 15.Narzulla Jo`rayev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. T:, "Ma`naviyat". 2008. 24-bet.
- 16.Maqsud Qoriyev. G`aznaviylar."Sharq" nashriyoti. T.: 2006. 255-bet.,
- 17.Muhammad Ali. Sarbadorlar. G`ofur Gulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.T.:1997. 560 bet.
- 18.Marsel Brion. Menkim, Sohibqiron-Jahongir Temur.T.: "Yangi asar avlodi".2014.572 bet.
- 19.Musurmonova.O.Ma`naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.:1996.187b.
- 20.O'quvchi ma`naviyatini shakllantirish.T.:Sharq, 2000.-273b
- 21.Murodov G. Tarixiy romanda hujjatchilik.// O`zbek tili va adabiyoti. Jurnal, 1994, 4-son, 27-bet.
- 22.Odil Yoqubov. Ulug`bek xazinasi. Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti. 1978. 464 bet.
- 23.Primqul Qodirov. Yulduzli tunlar.Tarixiy roman. T.: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1981.496 bet.//Avlodlar dovonii//.
- 24.Poyon Ravshanov. Amir Temur sulolası."Yangi asr avlodi".T.: 2014.652 bet.
- 25.Sadriddin Ayniy.Temurmalik.Muqanna qo`zg`aloni..(tojik tilida) Dushanbe. 1978.168 bet.
- 26.Samandar Erkin. "Tangri qudug`i. Tarixiy roman.T.: "Kamalak". 1995.- 396 bet.

- 27.Qurbanyazova Z. “Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy o’zlikni anglashni shakllantrishning pedagogik asoslari. Avtoreferat ”Nomzodlik dissertatsiyasi“.T.-2002.
- 28.QuronovM. Maktab ma’naviyati va milliy tarbiya.–T.:Fan,1995.-118b.
- 29.Ergashev.K.Yoshlarning manaviy tarbiyasi.T.: Manaviyat. 1999.–40b.
- 30.Hamid Olimjon. Muqanna.Tarixiy p`esa. 3-tom.G`ofur G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti. T.: 1971. 280 bet.
- 31.Hasanboyeva O.Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi. T.: 1996.196b.
- 32.To`qboyeva Z.D .Maktabda va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning o`ziga xos xususiyatlari. O`z.MU Xabarlari. № 1/3. 2014. 214-217 betlar.

M U N D A R I J A

I. Kirish.....3-8

II. Asosiy qism

II. Bob. O`zbekiston tarixining V-XVI asrlar davri tarixini o`rganishda badiiy- tarixiy asarlardan foydalanish.

1. O`rta asrlar davri tarixining umumta`lim maktablarida o`qitilisi, davrlashtirilishi, maqsad va vazifalari.....9- 15
2. Ilk o`rta asrlar davri tarixining badiiy tarixiy asarlarda tahlili.....16-28
3. XII-XIII asrlar davri tarixiga oid badiiy tarixiy asarlar.....29-45
4. XIV- XVI asrning birinchi yarmiga oid badiiy tarixiy asarlar.....46-66

II. Bob. O`zbekiston tarixining XVII –XIX asrning ikkinchi yarmiga oid tarixini o`rganishda badiiy- tarixiy asarlardan foydalanish.

2. XVII -XIX asr ikkinchi yarmi davri asr davri tarixining badiiy- tarixiy asarlarda yoritilishi.....66-70
2. Badiiy tarixiy asarlar oquvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini o`stirish. omili.....71-74

IV. Xulosa.....75-76

IV. Foydalilanigan adabiyotlar.....77-79

**Tarix ta'lim yo'naliishi “5110600-Tarix o'qitish metodikasi” 4__kurs “_V_”
guruh talabasi Shavqiyeva Muazzam Sobritdin qizining “Maktab ta`limida
tarix fanini o`qitishda badiiy tarixiy asarlardan foydalanish”
 (“O`zbekiston tarixi” misolida)**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING YIG'MA JILDI

- | | | |
|----|--|-----------|
| 1. | “Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasining 2018 yil 27 avgust 1-sonli | _____ bet |
| 2. | Kafedra topshirig`i..... | _____ bet |
| 3. | Kafedraning himoyaga tavsija etish qaroridan ko'chirma
..... | _____ bet |
| 4. | Kafedra xulosasi. Ilmiy rahbar xulosasi (F.I.Sh, ilmiy darajasi, unvoni
va ish joyi)..... | _____ bet |
| 5. | Taqrizlar (F.I.Sh, ilmiy darajasi, unvoni va ish joyi)..... | _____ bet |
| 6. | DAK raisiga fakultet dekanining xati | _____ bet |
| 7. | DAK qarori | _____ bet |
| 8. | BMI rejasi, tushuntirish qismi, boblari, mundarija | _____ bet |
| 9. | BMI ning elektron nusxasi | _____ bet |

(sana)

(imzo)

(talabaning familiyasi, ismi, sharifi)

2. NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“5110600-Tarix o’qitish metodikasi” kafedrasining

2018-yil 27-avgustdagi 1-sonli yig`lish qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra mudiri: t.f.n. A.Aminova, t.f.d. G’. Temirov, dots R.Qarshiyev, dots. R.Rajabov, dots. R.Tolibov, dots. f.f.n. Z.Hayitov,

Katta o’qituvchilar: S.Hamroyeva, F.Shirinova, Z.Junayev, Sh. Ravshanov, U.Narzullayev,

O’qituvchilar: F.Polvonova, X.Boysariyev, Sh. Toshturov, D.Murtazayev J. U. Hayitov, Mustafoyev, Z. Odinayeva, A.Egamberdiyevava, Sh.Xoliqulova boshqalar.

K U N T A R T I B I

2018-2019 - o`quv yilida _____ fakulteti
_____ ta`lim yo`nalishi talabasi

Shavqiyeva Muazzam Sobritdin qizining bitiruv malakaviy ishi mavzusini tasdiqlash to`g`risida

E S H I T I L D I :

Kafedra mudiri: t.f.n.. A.Aminova so`zga chiqib, kafedra a`zolarini bitiruv malakaviy ishi mavzusi bilan tanishtirdi va mavzuning dolzarbligi bugungi kundagi ahamiyatini nazarda tutib:

“Maktab ta`limida tarix fanini o’qitishda badiiy tarixiy asarlardan foydalanish”
(“O`zbekiston tarixi” misolida) nomli bitiruv malakaviy ishining mavzusi qilib tasdiqlansin.

Ilmiy rahbar etib dots. R.Tolibov belgilansin.

Kafedra mudiri:

t.f.n. A. Aminova

3. NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**Tarix fakulteti****“Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasи****«T A S D I Q L A Y M A N»****Kafedra mudiri****t.f.n. A. Aminova _____****«___» _____ 2018-yil****MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO`YICHA TOPSHIRIQ****Talaba _____****1. Bitiruv malakaviy ishining
mavzusi_____****_____, 2018-yil kafedraning ___-sonli majlisida
ma `qullangan.****2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddati****3. Bitiruv malakaviy ishining topshirish muddati «__»_____
2019 yil****4. Bitiruv ishning bajarilishiga doir boshlang`ich ma `lumotlar:****A. Mavzu yuzasidan materiallar to`plash****B. Dastlabki olingan materiallarni ishlab chiqish****V. Adabiyotlar majmuasini tuzish****G. Tadqiqot bosqichlari xulosa va takliflar****5. Malakaviy bitiruv ishi bo`yicha o`tkazilish lozim bo`lgan
tadqiqotlar****4. 6. Bitiruv ishi bo`yicha mavzu mundarijasi va maslahatchi
o`qituvchilar**

Nº	Mundarija	Maslahatchi o`qituvchi	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				

5. 7. Bitiruv ishining bajarish rejasi.

Nº	Bitiruv ishining bosqichlarining nomi	Bajarish muddati	Tekshiruvdan o`tganlik belgisi	
1				
2				
3				
4				
5				
6				
7				
8				
9				
10				

**Bitiruv malakaviy ishi rahbari _____
Topshiriqni bajarishga oldim**

Topshiriq berilgan sana «_____» 2018-yil

6. NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasining

2019-yil __-maydagi __-sonli majlis qaroridan

K O` C H I R M A

Qatnashdilar: Kafedra mudiri: t.f.n. A. Aminova, dots.R.Qarshiyev , t.f.d. G'.

Temirov, dots. R.Rajabov , dots. R.Tolibov, dots.Z.Hayitov

Katta o'qituvchilar: S.Hamroyeva, F.Shirinova. Z.Junayev, Sh. Ravshanov,U.

Narzullayev. Z.Junayev

O'qituvchilar: F.Polvonova, X.Boysariyev, Sh. Toshturov, D.Murtazayev J. U. Hayitov, Mustafoyev, Z. Odinayeva, A.Egamberdiyevava, Sh.Xoliqulova boshqalar.

K U N T A R T I B I

Bitiruvchi talabalarning bitiruv malakaviy ishi muhokamasi.

E S H I T I L D I

Kafedra mudiri: t.f.n.A.Aminova so`zga chiqib, tarix o'qitish metodikasi fani bo`yicha tayyorlagan bitiruv malakaviy ish haqida to`xtalib, ishning to`liq talab asosida tayyorlanganligini, ilmiy rahbarlarning yakuniy xulosasi, ichki va tashqi olingan taqrizlarning ijobiliyigini, zaruriy hujjatlar rasmiylashtirilganligini ta`kidlab o`tdi.

Shundan so`ng bitiruvchi: _____

O`z mavzusi bo`yicha uning dolzarbliji, maqsadi, vazifalari, olib borilgan uslubiy ishlarning natijalari haqida o`zining xulosa va tavsiyalarini bayon etdi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi yuzasidan berilgan savollarga to`liq javob qaytardi

MAJLIS QAROR QILDI:

Bitiruvchi: _____

mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi tugallangan ish deb hisoblansin.

1. Bitiruv malakaviy ish himoyaga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

t.f.n.A.Aminova

**7. DAVLAT ATTESTATSIYASI KOMISSIYASINING
RAISIGA
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

fakulteti

*ta`lim yo`nalishi
bitiruvchi kurs talabasi
ning*

***Reyting qaydnomaga ko`chirmasi, malakaviy bitiruv ishi
rahbarining mulohazasi, kafedraning ishni himoyaga tavsiya etish
haqidagi xulosasi, olingan taqrizlar ilova qilinadi.***

Fakultet dekani: *dots.R.Qarshiyev*

**Navoiy davlat pedagogika instituti
“Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasining malakaviy bitiruv ishi
haqidagi
XULOSASI**

fakulteti

ta`lim yo`nalishi

**mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi kafedra yig`ilishida
muhokama qilingan va davlat attestatsiyasi komissiyasining
himoyasiga tavsiya etiladi.**

Kafedra mudiri: *t.f.n. A.Aminova*

8. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING BAHOLASH MEZONI

Tarix fakulteti
(fakultet nomi)

“Tarix o'qitish metodikasi” kafedrasи

Tarix. Jalon tarixi.

(fanning nomi)

Shavqiyeva Muazzam Sobritdin qizining

(Talabanining ismi, sharifi)

HIMOYA VAQTI «_____» 2019 yil

avzuning dolzarbligi 12 ball	Ishning mustaqil bajarilish darajasi 32 ball	Amaliy ahamiyati 16 ball	Yangi adabiyotlardan foydalananish darajasi 10 ball

Ishning rasmiylashtirishi 10 ball	BMI ning himoyasi 20 ball	Umumiy ball 100 ball	100 %

DAK raisi:
 DAK a`zolari

Navoiy shahri “_____” 2019 yil

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix ta’lim yo’nalishi 4- kurs «V» guruhi talabasi Shavqiyeva Muazzam Sobritdin qizining ”Maktab ta`limida tarix fanini o`qitishda badiiy tarixiy asarlardan foydalanish.(O`zbekiston tarixi misolida) mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga tashqi taqriz

Vatan tuyg’usi u tug’ilgan, voyaga yetgan yer bilan bog’liq. Shunday ekan, bizning asosiy vazifamiz bolalarda bu tuyg’ularni singdirish, murg’ak qalbida unga yaqin va qadrli bo’lgan atrof–olamda, Vatanni kashf yetishga ko’maklashishdir. Buda esa bolani kitob o`qishga o`rgatish, pedagog – ta`lim tarbiya jarayonida u bolaning do’sti, safdoshi sifatida tarbilash, uni mustaqil fikrlashga o’rgatish lozim. Binobarin, Prezidentimiz Sh. M.Mirziyoevning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi Farmoni¹ kitobat madaniyatini yananada takomillashtirish va rivojlantirishga qaratilgan. Farmonning ijrosini ta`minlash bu vazifani amalga oshirish xalqimiz hayotida naqadar muhimligi tasdiqlaydi. Ayni paytda omma savodxonligini oshirish, kitobga bo`lgan talab haqida atroflicha xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bugunda kitobat madaniyati va tarixi unda uning o`rni haqida mantiqiy xulosa chiqarishi zarurdir. El yurtimiz o`zining ko`p asrlik tarixi davomida bunday ma`shum xatarlarni necha bor ko`rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma`naviyatimiz bir paytlar qanday xaf ostiga qolganini barchamiz yaxshi bilamiz. Ana shu fojiali o`tmish, bosib o`tgan mashaqqatli yo`limiz barchamizga saboq bo`lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo`lib yashashga dav`at etishi lozim. O`z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo`q. Shu sababli xalqimiz tarixini u yaratgan ma`naviy yodgorliklarini o`rganish avaylab asrash, har birimizning vazifamiz va burchimizdir.

¹ Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ibot qilish bo`yicha komissiya tuzish to`g`risida”gi Farmoni” 2017 yil, 12 -yanvar.

O'zbekistonning o'rta asrlar davri tarixi mamlakatimizning V-VII asr ikkinchi yarmidagi siyosiyvoqealar turli davrlarda, manbalarda va turli mualliflar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Bular o'z davrida yaratilgan yozma yodgorliklar, tarixiy hujjatlar va solnomalarda qanday bayon qilingan? Va nihoyat, mustaqillik sharoitida tarixiy adolatni tiklash, manbalar asosida xolis va ob'ektiv bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni bilishimiz mumkin va kerak. Bu esa kitobat madaniyatiga, manbalarga ilmiy yondoshuv zaruriyatini taqozo etadi. Qolaversa, tariximiz haqida yozilgan badiiy tarixiy asarlar o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, yurtimiz tarixi to'g'risida xolis va ob'ektiv bilim olishga, o'zligimizni anglashga, boy va qadimiyligi madaniyatimizni bilishga, xalqimizning jahon svilizatsiyasiga qo'shga hissasini taran anglashga yordam beradi. Shu nuqtai nazarda qaraganda bitiruv ishi mavzusi o'z mazmun va mohiyati bilan dolzarbdir.

Bitiruv ishi kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbliji, o`rganilishdan qo'yilgan masalalar yoritilishiga harakat qilingan.

Asosiy qismning birinchi bobida: O'rta asrlar davri tarixining umumta`lim maktablarida o`qitilisi, davrlashtirilishi, maqsad va vazifalari, ilk o'rta asrlar davri tarixining badiiy tarixiy asarlarda tahlili, XII-XIII asrlar davri tarixiga oid badiiy tarixiy asarlar, XIV-XVI asrning birinchi yarmiga oid badiiy tarixiy asarlarni dars jarayonida o`rganish masalalari tahlil qilingan

Ikkinci bobida: XVII -XIX asr ikkinchi yarmi davri asr davri tarixining badiiy- tarixiy asarlarda yoritilishi Badiiy tarixiy asarlar oquvchilarning mustaqil ishslash faoliyatini o'stirish omili ekanligi atroflicha yoritishga harakat qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining tili ravon, ilmiy va berilgan xulosalar o`rinli. Adabiyotlardan o`rinli foydalanilgan. Shuningdek, bitiruv ishida ayrim orfografik xatolar ham uchraydi. Shu kamchiliklarga qaramay bitiruv malakaviy ishi Oliy ta'lif talabi darajasida yozilgan. Bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya etaman.

Navoiy davlat pedagogika instituti Tarix ta’lim yo’nalishi 4- kurs «V» guruhi talabasi Shavqiyeva Muazzam Sobritdin qizining ”Maktab ta`limida tarix fanini o`qitishda badiiy tarixiy asarlardan foydalanish. (O`zbekiston tarixi misolida) mavzuidagi bitiruv malakaviy ishiga ichki taqriz

Bugungi davr talabi xalqimiz tarixi, ma`naviyati, qadriyatlarini kitobat madaniyati orqali xolisona o`rganish va tahlil etish, o`quvchi yoshlarni tarixiy bilimlar bilan qurollantirishni talab etmoqda. Ayniqsa, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning ko`hna tariximizni o`rganishda kitobat madaniyatini yanada takomillashtirish, borasidagi tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, anan`aviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ`ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari bizni bu sohada yanada tadqiqot etishga, ijodiy izlanishga da`vat etadi. Darhaqiqat, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning haqli ravishda ta`kidlashlaricha: “Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi ma`rifat bilan kurash kerakligi haqida ko`p gapiramiz. Bu to`g`ri, albatta. Lekin ma`rifat, ma`rifiy bilimlar qayerda- avvalo ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo`tabar kitoblarda emasmi?”¹

Keyingi yillarda qator badiiy tarixiy asarlar yaratildi. Tariximiz sahifalari nafaqat ilmiy, balki uning badiiy talqini, yanada chuqur o`rganilishi bilan boyib, ommalashib bormoqda. Chunki badiiy tarixiy asarlarni o`quvchilar sevib o`qishadi. O`quvchilar asarni o`qishayotganda o`z hayoti bilan emas, balki asarda aks etgan hayot bilan yashaydilar. Adabiy asardagi obrazga qo`shilib harakat qiladilar, hayot qiyinchiliklarini engish yo`lini izlaydilar, qahramonlar xato qilsakuyunadilar, zafar quchsa - suyunadilar, qiyinchiliklardan qutulsa - xursand bo`ladilar, ularning bir maromdagagi hayotga qaytishidan taskin topadilar.

Badiiy tarixiy asarlarlardagi obrazlarda qahramonlik suyujeti ko`plab tasvirlanadi. Undagi bosh g`oya -el-yurtning birligi va ozodligi uchun kurash, chet el bosqinchilariga qarshi mustaqilik kurashlari egallaydi. Hammasida ham

¹ O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so`zi. 2018 yil, dekabr.

vatanparvarlik g`oyasi birinchi o`rinda turadi.Ayni paytda dars va darsdan tashqari ishlar jarayonida o`qituvchi xalq botirlarining tug`ulgan yurti, ona vataniga bo`lgan mehr-muhabbatini asarlardan misol keltirib, o`quvchilarga o`rnak sifatida ko`rsata bilsa, unda tarixiy xotira va tarixiy iroda shakllanib boradi. Bu esa badiiy tarixiy asarlar orqali o`quvchilarda milliy merosimizga bo`lgan hurmatni va katta qiziqishni uyg`otishga zamin hozirlaydi.Teran fikrli, aqilli, ma`naviy yetuk va bilimli o`quvchilarni kamol toptirishga xizmat qiladi.

Yangi pedagogik ta`lim texnologiyasining joriy etilishi tarix ta`limini o`qitishga yangi imkoniyatlar ochdi. Bugunda, tarix darslarida badiiy tarixiy asarlardan foydalanish ijobiy natija bermoqda. Binobarin o`quvchilarda bilish va muloqot qilish ko`nikmasi shakllanmoqda.Bu esa o`quvchilarning tafakkur qobiliyatlarini o`stirmoqda. Bitiruv ishida shu masalalar atroflicha o`rganilishga harakat qilingan.Shu sababli tanlagan mavzu dolzarbdir.

Bitiruv ishi kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbliji, o`rganilishdan qo`yilgan masalalar yoritilishiga harakat qilingan.

Asosiy qismning birinchi bobida: O`rta asrlar davri tarixining umumta`lim maktablarida o`qitilisi, ilk o`rta asrlar davri tarixining badiiy tarixiy asarlarda tahlili, XII-XIII va XIV-XVI asrlar davri tarixiga oid badiiy tarixiy asarlar va ularidan dars jarayonida foydalanish masalalari tahlil qilingan

Ikkinci bobida: XVII -XIX asr ikkinchi yarmi davri asr davri tarixining badiiy- tarixiy asarlarda yoritilishi, badiiy tarixiy asarlar oquvchilarning mustaqil ishslash faoliyatini o`stirish omili ekanligi atroflicha yoritishga harakat qilingan.

Bitiruv malakaviy ishining tili ravon, ilmiy va berilgan xulosalar o`rinli. Adabiyotlardan o`rinli foydalanilgan.Shuningdek, bitiruv ishida ayrim orfografik xatolar ham uchraydi. Shu kamchiliklarga qaramay bitiruv malakaviy ishi Oliy ta`lim talabi darajasida yozilgan. Bitiruv malakaviy ishni himoyaga tavsiya etaman.

